F.E.Xo'jayev, A.A.Aliyev
K.K.Alimbekova

BOJXONA ISHI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

F.E.XO‘JAYEV, A.A.ALIYEV, K.K.ALIMBEKOVA

BOJXONA ISHI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oily o‘quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti
Toshkent — 2005

65.9(2)
X 69

Xujayev F.E., Aliyev A.A., Alimbekova K.K. Bojxona ishi. O'quv qo'llanma - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. 184 b.

O'quv qo'llanmasida bir-biriga bo'g'langan holda bojxona ishini asosiy tashkil etuvshilari: bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish, qonunchilikda belgilangan bojxona to'lovlarini undirish, bojxona qonunbuzarliklariga qarshi ko'rash, bojxona hamkorligi masalalari yoritilgan.

Oliy o'quv yurtlarining huquq va iqtisod fakultetlari talabalari, bojxona organlari xodimlari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun mo'ljallangan.

M a'sul muharirlar: **M.S. Qosimova**
"Xalqaro biznes" fakulteti dekani, iqtisod fanlari doktori, professor;
M.R.Boltaboyev
"Bojxona ishi va logistika" kafidrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar: **N.M.Mahmudov**
TDIU professori, i.f.d.;
S.A.Aripov
OXBI ning kafedra boshlig'i, bojxona ximati general-mayori.

Ekspertlar: **O. Abduvahobov**
TDIU Ichki monitoring bo'limi boshlig'I, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
S.J.Tursunov
texnika fanlari nomzodi, dotsent.

© O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005

Хужаев Ф.Э., Алиев А.А., Алимбекова К.К. **«Божхона иши»** Учебное пособие. -Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005.- 184 с.

В учебном пособии в системной основе изложено сущность основных составляющих таможенного дела: осуществление таможенного контроля и оформления товаров и транспортных средств перемещаемых через таможенную границу, взымание таможенных платежей, борьба с таможенными правонарушениями, таможенное сотрудничество.

Предназначен для студентов правовых и экономических факультетов вузов, таможенных работников и участников внешнеэкономической деятельности.

Ответственный редакторы:
М.С.Касимова
декан ТГЭУ, доктор экономических наук, профессор.
М.Р.Балтабаев
доктор экономических наук, доцент

Рецензенты:
Н.М.Махмудов
профессор ТГЭУ, д.э.н.;
С.А.Арипов
начальник кафедры «Высщего военизированного таможенного института» гнерал-майор т/с.

Эксперты:
О.Абдувахабов
начальник отдела внутреннего контролья и мониторинга к.э.н. доцент;
С.Ж.Турсунов
кандидат технических наук, доцент.

SamISI
Inv № 437933

Xujaev F.E. Aliev A.A. Alimbekova K.K. THE CUSTOMS AFFAIR - T.: pub. LFUWU, 2005, 184 p.

The main contents of customs those are connected in the study guide followed as: customs control and legalizing goods and a transportation which are incoming and outgoing the border, charging the custom taxes, the struggle with a law, and a custom cooperation.

It is the student's approach of the Economic and law faculties of high education institutes, customs employees and participiants of the foreign economic activity.

Responsible editors: **M.S.Qosimova**
doctor of economic science, prof;
M.R.Boltabaev
doctor of economic science, senior lecturer.

Reviewers: **N.M. Makhmudov**
doctor of economic science, prof;
S.Aripov
General mayor.

Eksperts: **O.Abduvaxobov**
candidate of economic science, senior lecturer;
S.J.Tursunov
candidate of economic science, senior lecturer.

KIRISH

Fanni o'rganishning dolzarbligi: Hozirgi zamon taraqqiyoti milliy iqtisodiyotni mamlakatlararo, mintaqaviy va yagona jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvini jadallashuvi bilan harakterlanadi.

Barcha mamlakatlardagi milliy iqtisodiyot mia'lum tarzda ochiq iqtisodiyotga aylanmoqda, xalqaro mehnat taqsimotiga va xalqaro raqobatga qo'shilmoqdalar.

Keyingi yillarda jahonda savdo hajmi, ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tez o'smoqda, xalqaro savdo tarkibida xizmatlar savdosining ulushi oshib bomoqda, intellektual mulk obyektlarining sotuvi oshmoqda, mamlakatlar o'rtasida pul mablag'lari kapital harakati va kreditlar shaklidagi oqim kuchaymoqda.

Jahon xo'jalik o'loqalarini tezkorlik bilan rivojlanishi tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bo'yicha samarali boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish va qabul qilishga yangicha yondashuvni taqazo etmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat organlari tizimida tez rivojlanayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga qisqa vaqtda va sifatli xizmat ko'rsatadigan bojxona xizmatiga alohida o'rin ajratilmoqda. Bu tashqi iqtisodiy aloqalarning tobora kengayishib borayotganligi bilan ifodalanadi.

Huquqiy himoya qilish organlari tizimining tashkiliy elementi sifatida, bojxona xizmati bojxona qoidalarining buzilishi va kontrabandaga qarshi ko'rashda o'z hissasining qo'shmoqda.

Lekin hozirgi bosqichda bojxona organlari oldida, davlat byudjetining daromad qismini to'ldirish, mamlakatni iqtisodiy suverenitetini himoya qilish, uni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash kabi muhim masalalar turibdi.

Bojxona tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uni qayta tuzilishini, amaliy faoliyatiga zamonaviy bojxona texnologiyalarini tadbiq etishni, bojxona ishini iqtisodiy va huquqiy asoslarini chuqur biluvchi yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan mutaxassislar bilan ta'minlash siyosatini amalga oshirishni taqazo etadi.

Shuning uchun ham, davlat tilida bojxona ishiga oid maxsus adabiyotlarni yaratish bunday mutaxasislarni tayyorlashning zaruriy shartidir.

E'tiboringizga tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanmasida nazariy va bojxona organlarini amaliy faoliyatlarini umumlashtirishi asosida bojxona ishini mazmun va mohiyati ifodalangan. Yuqori professional darajada bojxona nazorati va rejimlashtiruvi masalalari, bojxona to'lovlarini to'gri hisoblanishi va to'liq undirilishi muammolari, valyuta nazoratini takomillashtirish, bojxona

organlari tomonidan huquqni himoya qilish faoliyatini funksiyalarini samarali amalga oshirish masalalari ko‘rilgan.

Bojxona ishi sohasi bo‘yicha bir qator xorijiy va respublikamizning iqtisodchi olimlari ilmiy asarlar yozganlar. Ular ushbu asarlarida bojxona ishini ayrim yo‘nalishlariga bag‘ishlaganlar. Masalan A.Kiriyev «Mejdunarodnaya ekonomika» kitobida tashqi savdoni tartibga solishni notarif usullariga ko‘proq etibor qaratgan bo‘lsa, A. Jiryayeva o‘z kitobida tashqi savdoni tatibga solishda bojxona ekspertizasini o‘rni va uning ahamiyatiga ko‘proq e’tibor bergan. V.G.Draganov o‘z kitobida bojxona ishining barcha sohalari to‘g’risida ma’lumot bergan. Ushbu o‘quv qo‘llanmada yuqoridagi iqtisodchi olimlar asarlarining muhim tomonlarini o‘rganib chiqib uni yanada takomillashtirib yoritishga harakat qilingan.

I BOB
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA ISHINI VUJUDGA KELISH TARIXI

1.1. Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarining paydo bo'lishi

Xalqlar va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning o'ziga xos shakli sifatida bojxona ko'p asrlar muqaddam paydo bo'ldi. Tashqi savdo aloqalari haqidagi ilk ma'lumotlar bizga Qadimgi Misrning oltinchi sulolasi (eramizdan uch ming yil oldin) yodgorliklari orqali yetib kelgan. O'sha davrlarda savdo karvonlarning harakati xavfsiz emas edi. Misrdagi yangi podshohlik davrining tarixiy yodgorliklari ot ulovlar va savdogarlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari haqida hikoya qiladi. Shu sababli karvonni qo'riqlash sarf harajatlarini to'plash maqsadida maxsus yig'imlar undirila boshlandi. Feodallar tomonidan ular orqali o'tuvchi savdogarlardan undiriladigan soliqlar ham bojning qadimgi ko'rinishi edi. Keyinchalik ularni shaharlar ham undirib ola boshladi, davlat paydo bo'lganidan keyin esa boj xazinani to'ldirishning qulay vositasiga aylandi[1].

Ijtimoiy hayot murakkablashishi, shaharlar rivojlanishi, savdo hajmi va intensivligi kengayishi davomida yig'imlarning yangi yangi turlari, shu jumladan savdodan va yuk keltirishdan olinadigan yig'imlar joriy etila boshladi.

Boj o'zining asosiy funksiyasi, fiskal funksiyasini, ya'ni xazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliqlar va yig'imlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Davlat rivojlanishi barobarida bojlar ham rivojlanadi, bojxona xizmatini tashkil etish shakllari va usullari takomillashadi.

Bojxona tarixining Rossiyalik tadqiqotchisi V.A. Simmerman eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Afina aholisi donni Misrdan, Sitsiliyadan, keyinchalik esa Shimoliy Qoradengizbo'yidan olganligini qayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shahar Qadimgi Gretsiyaning tashqi savdosi uchun shunchalik muhim ediki, ulardan tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmas edi. Gretsiyaning o'zida chetdan keltirilgan tovarlardan olinadigan boj ular bahosining undan bir qismini tashkil etardi. Biroq vaqt o'tishi bilan afinaliklar mo'tadil bojlar sovdoning rivojlanishiga ko'maklashadi va ko'p daromad keltirishi mumkin degan qarorga keldilar. Shu sababli eramizdan oldingi IV asrda, Demosfen davrida boj tovar bahosining yigirma, ellik, hatto yuzdan bir qismigacha qisqartirildi. Ayrim buyumlar – qurol-yarog', harbiy anjomlar - umuman boj to'lashdan

[1] У.Т.Комилов ва бошқалар «Божхона иши асослари» китобининг 1-боб, 16-бети

ozod etilgan. Afinaning barcha ittifoqchilari boj imtiyozlariga ega edilar, ular o'z tovarlar uchun bahosining yuzdan bir qismi, qadim shaharlar yigirmadan bir qismi miqdorida boj to'lashar edi.

Boj dengiz portlarida va shahar bozorlarida yig'ilar edi. Quruqlikdagi bojxonalar ham mavjud edi. Bojxonadagi operatsiyalar qo'shinlar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud bo'lgan taqdirda chegaralar yopilganda to'xtatilar edi. Boj odatda oltin va kumush bilan to'lanardi. Boj yig'ish ayrim shaxslar yoki guruhlarga sotilar, ular obro'li fuqarolardan bo'lgan kafillarga ega bo'lishardi.

I.2. O'rta asrlarda bojxona ishini rivojlanishi

O'rta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi xalqaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan mustahkam aloqadorlikda davom etdi. Xristianlikni hukmronlik qilishi Yevropada bojxona ishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, Stasburgda 982-yilgi maqom bilan yepiskopga shaharning to'rt yuqori amaldorini: mer, graf, bojxonachi va xazinachini tayinlash huquqi berilgan edi[2].

Biroq keyinroq, 1249-yildayoq Frayburg shahrida bojxona amaldorini saylash va agar ular o'z vazifalariga vijdonan munosabatda bo'lmasalar, ularni lavozimidan bo'shatish huquqini fuqarolarning o'ziga berildi.

Parijda XII asrda shaharga olib kirishda barcha xorijiy tovarlardangina emas, balki boshqa fransuz shaharlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buyumlardan, shuningdek movut va mo'ynadan ham boj undirilar edi[3].

1275-yilda Angliya parlamenti qirol Eduard I ga import qilinadigan vinoga va eksport qilinadigan ingliz juniga boj belgilash huquqini berdi.

Biroq Yevropa mamlakatlarida bojxonaning markazlashuvi yana ko'p asrlar davom etdi. Angliya bilan Shotlandiya o'rtasidagi bojxonalar 1707-yilda, Angliya bilan Irlandiya o'rtasidagi bojxona zastavalari esa faqat 1823-yilda yo'q qilindi. Fransiyada bojxona birligi 1790-yilda vujudga keldi. Avstriya esa o'z bojxona siyosatini 1775-1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona to'siqlari 1859-yilda quladi, Germaniyaning bojxona jihatdan birlashishi esa 1842-yildan 1888-yilgacha davom etdi. Davlatning ichki siyosati murakkabligiga qaramay, savdogarlarning tashqi savdo aloqalari 15-18-asrlarda feodal Yevropa mamlakatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi.

---

[2] Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил.

[3] У.Т.Комилов ва бошқалар «Божхона иши асослари» китобининг 1-боб 21 бети

XVI asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming, olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj 185 ming funt sterlingni tashkil etar edi. 15-18-asrlarda hududidan savdogarlarning karvonlari Yevropadan Hindistonga, Hindistondan Yevropaga o'tadigan Misrda boj tovar qiymating salkam 15 foizini tashkil etardi, 18 asrning oxirlariga kelib esa ular 35 foizga yetdi va undan ham oshib ketdi. Imtiyozli tarif faqat savdogarlar Pizadan yetkazib beradigan temir va yog'och mahsulotlariga belgilangan (10%). Keyinroq Hindistonga Afrikani aylanib o'tadigan dengiz yo'li ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Xurmuz va Adan dengiz portlarini bosib olinishi tovarlarni Misr orqali olib o'tishga katta ta'sir o'tkazdi, biroq bunda bojlarning haddan ortiq ekanligi ham muayyan o'rin tutadi.

Fransiyada 1664-yilda boj yig'imlarining fiskal ahamiyati hali kuchli bo'lgan vaqtda boj tarifi tovarlarni keltirish bo'yicha 700 modda va olib chiqib ketish bo'yicha 900 moddadan iborat bo'lgan. Bu esa boj yig'imi mayda-chuydasigacha ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

Kanada 1975-yili dekabr oyida prteksionistik maqsadlarda AQSHdan go'sht mahsulotlariga cheklash joriy qilganda, AQSH ushbu mahsulotlarning Kanadadan import qilinishiga qattiq kvota belgilandi, bu hol Kanada iqtisodiyotiga 100 million dollar zarar yetkazdi, AQSH ko'rgan zarar esa Kanadaning ko'rgan zararidan 10 baravar kam bo'ldi.

AQSH 1975 yilda eksport qiluvchi mamlakatlar tomonidan neft narxining oshirilishiga javoban neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti a'zosi bo'lgan davlatlarni tarif pereferinsiyalaridan mahrum qildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash manfaatlari, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Masalan olib kiriladigan mashina va asbob uskunalar, kimyoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojlar undirilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, odatda bojsiz import qilingan. Kiyim-bosh va uy-ro'zg'or buyumlariga oshirilgan stavkalar qo'llanilgan. Zeb-ziynat va alkagolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj undirilgan.

3. 3. Markaziy Osiyoda bojxona ishi

Takibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy -iqtisodiy tizimning puxta faoliyat ko'rsatishi har qanday tuzumda davlat mavjud bo'lishining iqtisodiy asosi hisoblanadi. Akademik B.Ahmedovning fikriga ko'ra bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab mavjud bo'lgan[4]. Chunki ko'p ming yillab

[4] У.Т.Комилов ва бошқалар «Божхона иши асослари» китобининг 1-боб, 26-бети.

Sharqni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo hudidan o'tgan. O'rta dengizdagi Suriyaning Antaliya porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Venetsiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga xizmat qilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo'l olganlar. Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshiriladigan savdoga qaysi darajada aloqador bo'lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiriuvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va maqbul holiga keltirildi. Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qattiqlashtirsa, bojlar va yig'imlar haddan tashqari ko'paytirilsa, karvonlar uni chetlab o'tishning yo'lini qidirganlar: birgina Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yo'lining bir nechta shaxobchasi mavjud bo'lgan. Ushbu karvonlar chetlab o'tgan davlatlar esa anchagina daromadidan mahrum bo'lishar edi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda yerdan xiroj va tanob, tovardan esa zakot undirilgan. Qur'onga muvofiq, har bir musulmon mol-mulkining qirqdan bir qismini zakot qilar edi. Zakot shuningdek kelayotgan va ketayotgan har bir karvondan ham undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlar harakatini ziyraklik bilan kuzatib turishar edi. Shahardan o'tadigan har qanday savdogar zakot olinadigan saroyga to'xtab o'tishi shart bo'lgan. Bu yerda uning tovaridan 2,5 foizli boj undirilar edi. Bundan tashqari, savdogar har bir tuya hisobiga yorliq yozilganligi uchun ham haq to'laganlar. Lekin shunga qaramay, bojxona birlashmasi davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini kengayishida o'z ahamiyatiga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1893-yilda 11 ta chegara posti tashkil etildi. Turkiston okrugi shulardan biri bo'ldi. Turkiston okrugida 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895-yilda Termiz shahrida Patta-Gisar bojxonasi tashkil etildi. Unda asosan Afg'onistondan keltirilgan tovarlardan bojlar undirilar edi. Har yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayohatchi o'tardi. U paytlari Afg'oniston hududi orqali Markaziy Osiyoga ko'plab kontrabanda tovarlari ham o'tkazilgan[5].

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq komissarligida 8 bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etildi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo'lib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. O'sha yili Termiz shahridagi Patta-Gisar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilganidan keyin Bojxona bosh boshqarmasi tashqi savdo vazirligi tarkibida qoldirildi.

[5] Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил.

1986 yilda Bojxona bosh boshqarmasi SSSR Ministirlar Soveti huzuridagi Davlat Bojxona nazorati bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Toshkent shahri sobiq SSSR ning janubiy darvozasi hisoblanib, xorijdan uchib kelgan samalyotlar Toshkentda to'xtab o'tar edi. Yangi havo yo'llarini ochilishi munosabati bilan 1959 yil 14 aprelda Toshkent aeraportida Termiz bojxonasiga bo'ysinuvchi bojxona posti tashkil etildi.

Toshkent postida hammasi bo'lib 3 ta xodim ishlagan. Ularga V. Novikov rahbarlik qilgan. Yetmishinchi yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1988-yilda esa O'zbekiston bojxonasiga aylantirildi.

1988-1989-yillarda Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo'qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona postlari ishga tushdi.

Xulosa

Ushbu mavzuni o'rganish natijasida talabalar bojxona ishi bo'yicha dastlabki bilimga va bojxona ishi to'g'risida dastlabki taasurotga ega bo'ladi. Bu mavzuni yoritish jarayonida umuman bojxona ishini vujudga kelish tarixi uni rivojlanish bosqichlari, xususan Markaziy Osiyo Respublikalari va O'zbekiston Respublikasiga bojxona ishining kirib kelish tarixi to'g'risida uni rivojlantirishda o'sha davrlardagi muhitning ta'siri to'g'risida ma'lumot berilgan. O'zbekiston Respublikasida bojxona ishini mustaqillikka erishgandan keyingi davrlardagi rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasida bojxona ishini hozirgi holati to'grisida bilimlariga ega bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizdan oldingi bojxona ishini qanday tasavvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O'rta asrlardagi rivoji qanday bo'lgan?
4. O'rta asrlardan bojxona ishi bo'yicha ma'lumotlar qanday yetib kelgan?
5. O'rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday xizmat ko'rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to'g'risida gapiring?
7. O'zbekiston Respublikasida bojxona ishini vujudga kelish tarixi to'g'risida gapiring.
8. Pata –Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashkil etilgan?
9. Nechanchi yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e'lon qilingan?
10. Respublikamizda bojxona ishining hozirgi holati qanday.

Asosiy adabiyotlar

1. У.Т. Комилов ва бошқалар «Божхона иши асослари» -Т.: «Адолат» 1997.

2. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

3. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

II BOB
DAVLATNI SAVDO-TARIF SIYOSATI NAZARIYASI

2.1. Boj tarifi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni asosiy vositasi

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishda, jahon amaliyotida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosini boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga asosan bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plami tashkil etadi.

Boj tarifini ta'rifidan shuni aytish mumkinki, ixtiyoriy mamlakatni boj tarifi bojxona bojlarini aniq stavkalaridan iboratdir.

Bojxona boji — tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki importni sharoitini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lgan vznosdir.

Bojxona bojlari mohiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar[6]:

- Fiskal, bu vazifa ham import va ham eksport bojlariga tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat byudjetini to'ldirish manbalaridan biridir.
- Proteksinistik (himoya), bu vazifa faqat import bojlariga taalluqlidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi.
- Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jahon bozoridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat hududan eksport qilinishini oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Dunyo xo'jaligi amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan bojlarni qo'llanilish maqsadiga, tartibiga, obyektiga va yana boshqa belgilarga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin. Bojlarni bunday klassifikatsiyalanishi ularni qo'llashni iqtisodiy mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi.

Bojxona bojlari undirilish tartibiga ko'ra:

- Advolar — bu boj turi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona qiymatidan foizda hisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruhiga mansub bo'lgan har xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Advolar bojlarni, shu guruhga mansub boshqa boj turlaridan farqlantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovar narxining tebranishidan qat'iyy nazar, advolar boj ichki bozorni bir darajada himoya qiladi. Faqat davlat byudjetiga tushayotgan daromad miqdori o'zgarishi mumkin.

[6] А.Киреев «Международная экономика» Москва изд. «Международная отнашения».

Misol: Agar boj tovar bahosining 20%ni tashkil etsa, tovarni narxi 200 dollarga teng bo'lgan holda davlat byudjetini daromadi 49 dollarni tashkil etadi. Tovar narxi 300 dollargacha oshsa, byudjet daromadi 60 dollarni, agarda 100 dollarga kamaysa, daromad miqdori 20 dollarga kamayadi. Lekin ikkala holda ham ichki bozorni himoya qilish darajasi 20%ni tashkil etadi, ya'ni tovarni narxi 20%ga oshgan holda ichki bozorga kirib boradi[7].

Advolar bojni kamchilik tomoni shundan iboratki, bu boj tovarni bojxona qiymatini hisoblashni taqazo etadi. Tovarni qiymati har xil iqtisodiy va ma'muriy omillar ta'sirida o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, advolar bojni qo'llash baholashni subyektivligi bilan bog'liqdir.

Bojni undirilish tartibiga ko'ra ikkinchi turi – xos bojlardir. Bu bojni qiymatini bojga tortiladigan tovarni birligidan belgilangan kattalikda hisoblanadi.

Bu belgiga ko'ra bojni yana bir turi, yuqorida keltirilgan ikkala boj turini o'zida mujassamlashtirgan aralash bojdir.

Jahon xo'jaligi amaliyotida qo'llaniladigan undirilish obyektiga ko'ra belgiga asosan sinflanadigan yana bir guruhi – import va eksport va tranzit bojlaridir. Bu bojlarni jahon xo'jaligiga kiruvchi barcha davlatlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida qo'llaydilar.

Import bojlari import tovarlariga, ularni mamlakat ichki bozorida erkin almashuviga chiqarganda qo'llaniladi. Bu boj jahondagi barcha davlatlar o'rtasida tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun qo'llaniladi.

Eksport bojlari eksport tovarlariga, ularni bojxona chegarsidan tashqariga chiqarishda qo'llaniladi. Bu bojlar mamlakatlar tomonidan juda ham kam hollarda qo'llaniladi. Odatda ular alohida olingan tovarlarga, ularni jahon bozorlaridagi erkin narxlari bilan ichki bozordagi tartibga solinadigan baholari o'rtasidagi katta tafovut holida eksportni qisqartirish va byudjetini to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Tranzit bojlari shu davlat hududidan tranzit sifatida olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Amaliyotda juda kam uchraydi, asosan savdo urushi vositasi sifatida qo'llaniladi.

Harakteriga ko'ra bojxona bojlari[8]:

Mavsumiy fasliy harakteriga ega bo'lgan mahsulotlarni asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xalqaro savdoni tezkor ravishda tartibga solishda qo'llaniladigan bojlarga. Odatda bunday bojlarni qo'llanish muddati bir

[7] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, М., Экономист, 2004.

[8] 1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, М., ЮНИТИ, 2004.

yilda bir necha oydan oshmaydi va ularni qo'llash davrida boj tarifini mavsumiy bojlarga tortiladigan tovarlar bo'yicha ta'siri to'xtatiladi.

Agarda mamlakat bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar narxi, shu tovarlar ishlab chiqarilgan davlatdagi normal narxidan past bo'lsa va bunday olib kirish xuddi shunday tovarlarni ishlab chiqarayotgan mahalliy korxonalarga iqtisodiy zarar yetkazsa yoki ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga to'siqlik qilsa, u holda bunday tovarlarga nisbatan dempingga qarshi boj qo'llaniladi.

Kompensatsion bojlar esa shunday import tovarlariga nisbatan qo'llaniladiki, agarda bunday tovarlarni ishlab chiqarib, tashkil jarayonlarida bevosita va bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan bo'lsa.

2.2. Tarifni mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri

Import tarifini har bir davlat iqtisodiyotiga ta'siri har xil bo'lib, uni ta'sir darajasi har bir davlatning dunyo xo'jaligidagi iqtisodiy salmog'iga bog'liq.

Misol uchun Xitoy XX asr boshlarida iqtisodiy tomondan kichik davlat bo'lib, bojxona qoidalarini buzilishiga molik davlat bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib esa u dunyo xo'jaligida o'ziga xos salmoqqa ega bo'lgan davlatga aylandi.

Xalqaro iqtisodiyotda davlat kichik davlat deyiladi, agarda u tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi dunyo miqyosida ularni bahosini o'zgarishiga olib kelmasa.

Davlat katta hisoblanadi, agar u tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi dunyo miqyosida bahoni o'zgarishiga olib kelsa.

Dunyodagi ko'pgina davlatlar xalqaro iqtisodiyot nuqtai nazaridan kichik davlatlar hisoblanadi, chunonchi ular tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi, ularni dunyo miqyosidagi baholarini o'zgarishiga olib kelinadi.

Buni quyidagi misol orqali ko'ramiz. Modelni 3-bosqichini ko'rib chiqamiz[9]:

- Tovar davlat hududida ishlab chiqariladi va shu hududda iste'mol qilinadi, ya'ni tashqi savdo faoliyati boshlangunga qadar.
- Erkin savdo sharoitida ya'ni chetdan tovarlar importi hech qanday to'siqlar bilan chegaralanmagan.
- Import tarifi kiritilgandan so'ng.

Tashqi savdo boshlangunga qadar kichik davlat E nuqtaga to'gri kelgan miqdordagi tovarni ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. Bu Sd - yerda ichki taklif to'g'ri chizig'i, Dd - ichki talab to'g'ri chizig'i.

Rasmdan ko'rinib turibdiki davlat 50 birlikdagi tovarni har birini 9,5 dollardan ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi.

[9] А.Киреев «Международная экономика».

Erkin savdo holida. Davlat jahon savdosi uchun ochiladi va shuni aniqlaydiki, uni tovarlarini dunyo miqyosidagi bahosi Pw, uni mamlakat ichkarisidagi bahodan kichik ekan.

Dunyo bozori bu davlatga chegaralanmagan miqdordagi tovarni bahoda yetkazib beradi, bu holda taklif chizig'i SdQw gorizontal to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi va u iste'molchilar uchun bu narxda ham ichki manbalardan ham tashqi manbalardan ma'qul bo'lgan tovarlar miqdorini belgilaydi. Erkin savdo sharoitida talab va taklifni F nuqtada erishiladi. Bu nuqtada tovarga bo'lgan talab miqdori Q5 teng bo'lib, uning atigi Q1 miqdorini ichki taklif tashkil etadi, qolgan yetishmayotgan qismi ya'ni Q1Q5 miqdordagi tovar import qilinadi. Import natijasida tovarni ichki bahosi Pd darajadan Pw darajaga pasayadi va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bu bahoda Q3Q1 miqdorida kam tovar sotadilar[10].

Import hisobiga tovarni ichki bozordagi bahosi darajadan darajagacha pasayadi, iste'mol esa 80 birlikka oshadi. Ichki ishlab chiqarish esa 20 birlikgacha kamayadi. Iste'molni qondirish uchun davlat 60 birlik tovarni import qilishga majbur bo'ladi.

Tarif kiritilgandan so'ng. Hukumat chetdan arzonroq tovarlarni olib kelishi natijasida zarar ko'rayotgan milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida import taklifini kiritadi. Gap kichik davlat to'g'risida ketayotganligi bois, uning tomonidan import tarifini kiritilishi tovarlarni dunyo bahosiga ta'sir ko'rsata olmaydi va dunyo bahosi o'zgarmay qoladi.

Bu degani davlatni savdo sotiq sharoitlari o'zgarmaydi, faqat import tovarini bahosi, tarif kiritilishi natijasida, Pw dan PwQt ga oshadi. Buning natijasida umumiy taklif chizig'i yuqoriga, kiritilgan tarif miqdoriga teng kattalikka ko'tariladi, ya'ni SdQwQt ga teng bo'ladi. Taklifni bu yangi darajasida ichki talab va umumiy taklif (ichki va tashki) tengligiga G nuqtada erishiladi, bu holda import tarifini kiritilishi natijasida ichki ishlab chiqarish hajmi Q1Q2 miqdoriga oshadi. Ichki talab miqdori esa Q5Q4 miqdoriga kamayadi. Import miqdori esa Q1Q5 dan Q2Q4 ga kamayadi. Shunday qilib tarifni kiritilishi ichki iste'molni kamayishiga, ichki ishlab chiqarishni esa oshishiga, bu esa importni kamayishiga olib keladi[11].

Tarifni kiritilishi natijasini tovar birligini ichki bahosi 8 dan 9 dollarga oshdi, ichki iste'mol miqdori esa 80 birlikdan 60 birlikka kamaydi, ichki ishlab chiqarish 20 birlikdan 40 birlikgacha oshdi va import 60 birlikdan 320 birlikgacha kamaydi. Importga nisbatan tarifni belgilagunga qadar iste'mol

[10] Международные экономическая отношения,. Учеб. Под ред. И.П.Фоминского, - М.: Экономист, 2004.

[11] В.Г.Свинухов Таможенно - тарифное регулирования ВЭД, -М.: Экономист, 2004.

bo‘yicha ortiqchalik sigmentlar yig‘indisiga teng bo‘lib, ya’ni iste’molchilar ichki va tashqi taklifni umumiy miqdoriga to‘gri kelgan to‘gri chiziq va ichki talab to‘gri chizig‘i bilan chegaralangan miqdordagi tovarni iste’mol qilayotgan edilar.

Tarifni kiritilishi natijasida umumiy taklif chizig‘i import tarifi miqdoriga teng kattalikka yuqoriga ko‘tarildi va iste’mol bo‘yicha ortiqchalikka kamaydi.

Umuman olganda tarifni kiritilishi natijasida ikki guruh iqtisodiy samaraga-qayta taqsimlash samarasiga daromad (samarasi, taqsimlash samarasi) va yo‘qotish samarasiga(himoya va iste’mol samarasiga erishilgan).

Taqsimlash samarasi – daromadni iste’molchilarni import bilan raqobalashuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga taqsimlanishidir. Import tarifi kiritilishi natijasida ishlab chiqaruvchilar tomonidan olingan qo‘shimcha daromad bilan qo‘shimcha tovar ishlab chiqarish uchun ketgan ishlab chiqarish harajatlari o‘rtasidagi farqdir.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni daromadini o‘sishida 40-10q30 dollarni qayta taqsimlash darajasi umuman olganda davlatni iqtisodiy holatini yomonlashuviga olib kelinadi. Endi boj tarifini katta davlat iqtisodiyotiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.[12]

Katta davlatni xatti-harakatlarini monopolistni xatti-harakatlariga o‘xshashi mumkin. Monopolist tovarni kamroq sotib olish orqali uni bahosini tushirishga harakat qiladi. Chunki katta davlat bu tovarni katta miqdorda import qiladi va u tomonidan import tarifini kiritilishi bu tovar bo‘yicha jami tovarni sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Buning natijasida tovar o‘tkazib beruvchilar tovar narxini tushirishga majbur bo‘ladilar[13].

Import tovarlariga narxni pasayishi, eksport tovarlariga bo‘lgan narxni o‘zgarmasligida, davlatni savdo shart-sharoitlarini yaxshilashga olib keladi.

Xulosa

Barcha mamlakatlar kabi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari ham Respublikamizni iqtisodiy xavfsizligini ta’minlaydi va ana shu ishni amalga oshirishda bir qator vositalardan foydalanadilar. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishda, jahon amaliyotida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosini boj tarifi, ya’ni bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari vaqoidalarigaasosan bir tizimgasolingan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan boj stavkalari to‘plami tashkil etadi.

[12] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

[13]. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

SamISI
Inv № 437933

Nazorat savollari

1. Bojxona tarifi va uning asosiy funksiyalari.
2. Bojxona bojlarini qanday turkumlash mumkin?
3. Import bojlarining qo'llashni iqtisodiy ahamiyati.
4. Nominal, o'zgaruvchan va haqiqiy tarifni darajasi qanday hisoblanadi?
5. Tarif eskalatsiyasi nima?
6. Kichik davlat tomonidan kiritilgan import tarifini iqtisodiy samaralari.
7. Katta davlat tomonidan kiritilgan import tarifini iqtisodiy samaralari.
8. Tarifni kichik va katta davlat iqtisodiyotlariga ta'siri o'rtasida qanday farq bor?
9. Qanday tarif optimal tarif hisoblanadi?
10. Tarif kvotasi nima?
11. Eksport tarifini import tarifi iqtisodiyotidan farqi nimada?
12. Tarifni kiritilishi tarafdorlari bilan qarshilari qanday argumentlardan foydalanadilar?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
4. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.
5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.
6. В.Г.Свинухов «Таможенно - тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности», -М.: Экономист, 2004.

III BOB
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI MOHIYATI, AHAMIYATI VA MAQSADLARI

3. 1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyati va ahamiyati

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlaridagi faoliyatini o'ziga xos xususiyatlaridan biri—davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishi va takomillashishidir.

Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama o'ylagan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy sharoitlaridan biri bo'lmish—tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi[14].

Bu chora-tadbirlar dunyo xo'jaligida ma'lum ustuvorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

• bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishilmasdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi.

Odatda biror bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan xuddi shunday tartibda qabul qilingan chora-tadbirlarni qarama-qarshi holda qo'llashga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtasida siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. ikki tomonlama, ya'ni savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi. Ko'p tomonlama, ya'ni davlatlarni savdo siyosatini kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Proteksionistik – tarif va notarif usullarni qo'llash orqali ichki bozorni chet raqobatchilaridan himoya qilishga q aratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzalikka ega, ega emasligi bir biridan ustunligi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillar davomida mavjud bo'lib kelgan

[14] В.Г.Свинухов—Таможенно-тарифное регулирования ВЭД. -М.: Экономист, 2004.

tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60 yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun proteksionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish xos bo'lgan.

70– yillarning boshlarida esa teskari tendensiya, yani erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish kuzatila boshladi.

3. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshirila boshladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar o'rtasida qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarishda bo'lsa, rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida – rivojlanayotgan davlatlarni sanoat tovarlari eksporti sohasida.

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi[15]:

- seletiv proteksionizm – ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.
- Soha proteksionizmi - xalq xo'jaligini ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq xo'jaligi) qaratilgan.
- kollektiv proteksionizm – ma'lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yaxshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi?

Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan.

Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Galvert universitetida 115 ta davlat bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yopiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda ichki yalpi mahsulot hajmini yillik o'sishi 0,7% ni tashkil qilgan bir paytda, ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi. (Albatta ochiq tashqi iqtisodiysiyosatni olib borishni yaxshi rivojlangan va tez suratlar bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayotirlar). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba'zi bir tadbirlari barcha davlatlarda bor. Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskalatsiyasi o'rinlidir, ya'ni xom ashyo va tayyor mahsulotlarga belgilangan import bojlari o'rtasidagi

[15]. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

katta farq. GATTni Urugvay raundidan so'ng rivojlangan davlatlar tomonidan olib chiqilayotgan xom ashyoga belgilangan tarif stavkalari, tayyor mahsulotlarga belgilangan stavkalarga nisbatan 3,5 barovar kam va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan stavkalarga nisbatan esa 7,5 barovar kam bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimlarini tezkor shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tamoyillarini ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi yo'llarini mustaqil belgilab olish vazifasi qo'yilgan edi. Ayni paytda, respublika hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirilishi va zaruriy huquqiy asoslarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini o'rnatilishi va rivojlantirishiga imkon berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» gi Qonunning qabul qilinishi tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur qonunnning 17—moddasiga binoan tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi[16]:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta siyosati orqali tartibga solish;
- soliq siyosati orqali tartibga solish;
- tarif va notarif dastaklar orqali tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensansiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;
- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;
- texnikaviy, formakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Respublikada olib borilayotgan «Ochiq eshiklar siyosati» - savdo iqtisodiy aloqalarni erkin va jadal rivojlantirib borish, ikki tomonlama va ko'p

[16] «Ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 17 — моддаси.

tomonlama asosda teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini kengaytirish, raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi haqiqiy muvozanatni ta’minlash zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublikaga olib kiradigan xorijiy investorlar va alohida mamlakatlarga nisbatan qulay savdo rejimini shakllantirish, xalqaro huquqiy normalarning milliy me’yorlariga nisbatan ustivorligini tan olish, GATT/JST prinsiplari va qoidalariga amal qilish asosida tashqi savdo rejimini bosqichma-bosqich erkinlashtirish va respublikaning mazkur tashkilotiga integratsiyalashib borishini ta’minlash singari bir qator maqsadlarga qaratilgandir[17]. 2000—2001-yillar O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo‘yicha faol chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘llari bo‘ldi. Hozirgi paytda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri, respublika hukumati tomonidan ichki valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganidadir. Xususan, 2000—2001-yillar davomida mazkur yo‘nalishda qabul qilingan me’yoriy aktlar valyutani tartibga solish sohasini yanada erkinlashtirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Ko‘pchilik mamlakatlar o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarning xalqaro bozorlarda ayirboshlashni yaxshilash maqsadida ularni xalqaro standart talablariga moslashtirishga harakat qiladilar. O‘zbekitonda ham tashqi savdo faoliyatini boshqarishda bir qator iqtisodiy dastaklardan foydalaniladi. Xususan, O‘zbekiston hududiga olib kirilayotgan tovarlar ham respublikada amal qiladigan texnik, formakologik, sanitar, veterinar, fitosanitar, ekologik standart talablariga javob berishi. Yuqorida qayd etilgan standart va talablarga javob bermaydigan, sertifikatsiz, maxsus belgisiz tovarlarni mamlakat hududiga olib kirish ta’qiqlanadi. Respublika hukumati importni kamaytirishga, sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Xususan, don, go‘sht, sut mahsulotlari importini kamaytirishga qaratilgan keskin chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, sifatsiz mahsulotlarga ega bo‘lgan narxi baland yoki noqonuniy import qilingan mahsulotlarga ega bo‘lgan importerlarni chet el valyutasiga ega bo‘lmasliklarini kafolatlovchi chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida tovarlar eksporti va importi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakillik organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 18-fevraldagi «Import operatsiyalarini

[17] Ўзбекистон Республикасига жаҳон савдосига интеграллашуви «Бозор, пул, кредит» журналининг 6-июн 2005 йил сони

tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoniga asosan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida faqat erkin almashinadigan valyuta (SKV) ga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarining import shartnomalarini ro'yxatga olinishi ko'zda tutiladi. Soliq solinishi shart bo'lgan tovarlar majmui, shuningdek litsenziyalash va soliqqa tortish tartiblari ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladi. Biroq litsenziyalashni amalga oshirish aksariyat hollarida eksport va importni chegaralash orqali tashqi savdo rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

So'nggi yillarda Respublika hukumati tomonidan tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik siyosatning amalga oshirilishi, respublika tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlash va muddati uzaytirilgan tashqi qarzdorlikning kamaytirish imkonini berdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi kredit majburiyatlarini bajarish, mamlakat oltin valyuta zahiralarini kengaytirish, ichki valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati tug'uldi. Xususan, 2000-yilga kelib respublika tashqi savdo aborotining hajmi 1991-yilga nisbatan qariyb 12 barobariga o'sdi va bunday natijaga O'zbekiston eksporti nomenklaturasi tartibiga kiruvchi xom ashyo tovarlariga nisbatan jahon baholarining qariyb 20 – 40 foizga pasayib ketishi sharoitida erishildi. Shuningdek, tashqi savdoning jo'g'rofiya tuzilmasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi va uning kengayib borish alomatlari kuzatildi. Holbuki, 1991-yilda u amalda faqat MDH mamlakatlari tomon yo'naltirilgan bo'lsa, 2000-yil yakuniy natijalariga qaraganda respublika tashqi savdosida uzoq xorijiy mamlakatlarning ulushi 63%ni, tovarlar va xizmatlar eksportida esa 64,1%ni tashkil etdi.[18] O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bundan tashqari, Tashqi savdoda MDH mamlakatlari bilan ham ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Fikrimizcha, mintaqaviy barqarorlik, mintaqa darajasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini bataraf etishda MDH davlatlari bilan ustuvor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va MDH mamlakatlariga o'zbek tovarlarini eksport qilish uchun asosiy bozorlardan biri sifatida qarash lozimdir. Hozirgi paytda respublika eksporti

[18] «Божхона статистикаси: тўққиз ой якунлари» «Солиқ ва божхона хабарномаси» газетасининг 2005 ноябр сони

dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari tomon qaratilgan bo'lib, uning tarkibini iqtisodiy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda an'anaviy xom ashyo tovarlari bilan bir qatorda, turli ko'rinishdagi jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlari, samolyot, avtomobillar va shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda, ya'ni eksport tarkibida qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushi salmoqli darajada o'sgan. Respublikada 900 turdagi yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish orqali eksport tarkibi bosqichma bosqich kengaytirildi. 2005-yilning yakuniy natijalariga ko'ra, eksport umumiy hajmida qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushi 36%ni tashkil etdi. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich atigi 25 %ga teng bo'lgan edi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining asosiy maqsadi, eng avvalo, tashqi savdoni tariflar orqali tartibga solishning nisbatan samarali usullariga qaratilgandir. Ayni paytda, tashqi savdoni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilma yaratilgan bo'lib, tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi korxonalarning soni 2000-yilda 5000 tani, xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan savdo o'ylar, vakolatxonalar va qo'shma korxonalar soni esa 200 tani tashkil etdi[19].

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining eng muhim jihatlaridan biri bu mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan siyosat hisoblanadi. O'zbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun keng ko'lamli soliq imtiyozlari tizimi yaratilgan va shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantiruvchi bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. G'arb ekspertlarining fikricha, yaratilgan bunday imtiyozlar tizimi MDH mamlakatlari ichida eng maqbul hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida faol investitsiya siyosatini amalga oshirishdan bosh maqsad milliy iqtisodiyotni turli sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni jadal amalga oshirish, tabiiy xom ashyo resurslarini zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur qayta ishlash, ham ichki, ham tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sohalariga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 12 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Respublika hududida xorijiy kapital ishtirokida 3800 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi. Hozirgi paytda O'zbekiston uzoq xorijiy mamlakatlarining 38 tasi bilan qulay savdo iqtisodiy rejimiga ega bo'lib, ular bilan «Investitsiyalarni himoya qilish va o'zaro kengaytirib borish to'g'risida» gi

[19] Ўзбекистон Республикасига жаҳон савдосига интеграллашуви «Бозор, пул, кредит» журналининг 6-июн 2005 йил сони

bitimni imzolagan.

Bizningcha, mamlakat iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti tizimida ro'y berayotgan murakkab vaziyatlarni hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlash va aholi turmush sharoiti yuksaltirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish zarur. Tashqi iqtisodiy siyosat sohasida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish uchun: mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishini yanada jadallashtirish, an'anaviy eksport mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish va ular eksport nomenklaturasini kengaytirib borish; qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan eksport mahsulotlari ishlab chiqarilishini yanada ko'paytirish orqaligina erishish mumkindir.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi infratuzilma institutlari tashkil etilgan bo'lib, u o'z ichiga xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash «O'zbekinvest» milliy kompaniyasi, «O'zinvestloyiha» injenerning kompaniyasi, rivojlangan bank tizimlari, maslahat va lizing kompaniyalari qamrab oladi. Garchi, mamlakatda tashqi savdo infratuzulmasini takomillashtirish va mamlakat salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, eksport tarkibida hamon xom ashyo mahsulotlari ustunlik maqomini egallab kelmoqda. Boy tabiiy va qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lgan O'zbekiston hozirga qadar ananaviy ravishda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari bozorlariga qishloq xo'jaligi va unga tutash bo'lgan sanoat tarmoqlari mahsulotlarini yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Xususan, 2000-yilda quruq mevalar va yong'oqlar eksporti 1,6 barobarga ho'l mevalar va sabzavotlar 1,5 barobarga sanoat va tabiiy maqsadlarda o'simlik eksporti esa 1,2 barobarga ortdi. Shunga qaramasdan, O'zbekiston eksportida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 5,4 %ni, importida esa 12,3 %ni tashkil etgan[20]. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni eksport qilish bo'yicha ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston uni iste'mol qilish bo'yicha jahon xorijiy bozorlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Holbuki, hozirgi paytda uzoq xorijiy mamlakatlarda ham respublikamizda yetishtiralayotgan mevalarning mazasiga va yuqori sifatga ega bo'lgan vino mahsulotlariga yuksak baho berilayotgan bo'lib, O'zbekiston korxonalariga qishloq xo'jaliga mahsulotlarini qayta ishlash asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bozorlarida ham o'z haridlariga ega bo'lishi mumkindir. Ayni paytda

[20] Узбекистон Республикасига жаҳон савдосига интеграллашуви «Бозор, пул, кредит» журналининг 6-июн 2005 йил сони

O‘zbekistonda meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash orqali tayyor eksportbop tovarlarni yaratish imkoniyatlari mavjuddir.

3.3. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish

O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integrallashuvi hamda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yangi turdagi tashqi iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi nafaqat yangicha korxonalarni tashkil etish, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish va shuning, yuqori qo‘shilgan qiymatulushiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta’minlovchi yangi zamonaviy, ilg‘or korxonalarga tashkil etishga qaratildi. Raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish korxonalarning samarali ishlashi va beqiyos rivojlanishining zaruriy sharoiti bo‘lib qolmoqda. Barcha turdagi yangi tovarlar sanoat tarmoqlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar, kichik va o‘rta biznes korxonalari tomonidan o‘zgartirib borilmoqda. Turli faoliyat sohalari bo‘yicha yangi korxonalarning tashkil etilishi, yangi sanoat tarmoqlari, xususan, avtomobilsozlikni rivojlantirilishi pirovard natijada O‘zbekiston tovar aboroti tarkibida, uning eksport va importi o‘z ifodasini topmoqda. Xususan Respublika sanoat tarmoqlari bo‘yicha turli mashinalar va jihozlar eksporti 2000-yilda 8,3 foizga o‘zgardi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar ko‘proq yangi xorijiy mamlakatlar tomon junatilmoqda. 2000-yilda ularning eksporti 1,3 barobarga ortgan. Xususan, «Uz DEU avto», «SamKochAvto» qo‘shma korxonalarida ishlab chiqarilgan avtomobillar MDH mamlakatlari bozorlarida o‘z haridorlariga ega bo‘lib, ular harid narxining nisbatan pastligi, mustahkamligi va sifat ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, O‘zbekiston ishlab chiqarilayotgan avtomobillar va avtobuslar eksportini uzoq xorijiy mamlakatlarga to‘g‘ri keladigan hissasi hozircha unchalik katta miqdorni tashkil etmaydi.

Bizningcha, O‘zbekiston avtomobilsozlik mahsulotlari eksportini kengaytirish strategiyasi rivojlangan uzoq xorijiy mamlakatlarga emas, balki rivojlanayotgan uzoq xorijiy mamlakatlari tomon qaratilmog‘i lozimdir. Chunki, rivojlangan xorijiy mamlakatlar bozorlari segmentining katta qismi dunyoda avtomobilsozlik sanoati bo‘yicha shuhrat qozongan yirik transmilliy koorporatsiyalar tomonidan zabt etilgan bo‘lib, ushbu holat O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomashinalarning mazkur bozorlarida ayribosh qilish imkoniyatlarini chegaralab qo‘yadi yoki harid narxlarining tushishga sababchi bo‘ladi.

Respublikada ishlab chiqarilgan avtomobillar va avtobuslar hamd narxlarining nisbatan pastligi rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari uchun ayni muddaodir. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan turdosh mahsulotlar sifati unchalik yuqori darajada emasligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan bo'lib, ular ham rivojlanganlik mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan sifati yuqori, biroq narxi qimmat bo'lgan avtomashinalarni sotib olish imkoniyatlariga ega emasdirlar. Ayni paytda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar eksportini rivojlanayotgan mamlakatlar tomon kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir.[21]

Fikrimizcha, bozor subyektlari bilan yaqindan hamkorlik qiladigan, shuningdek makro va mikro iqtisodiyot muammolarini to'liq tadqiq etish orqali tashqi savdoni takomillashtirish va rivojlantirish borasida ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan uzluksiz ta'minlanib turadigan raqobatdosh tashqi savdo ilmiy tadqiqot institutlari va tashqi iqtiodiyot muammolari bo'yicha mustahkam va amaliy ilmiy tajribalar olib boradigan ilmiy tekshirish markazlarini shakllantirish o'ta muhimdir. Tashqi iqtisodiyot siyosatda yechilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan yana biri bu eksporterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining yaratilishidir. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari o'zining potensial eksportyorlariga axborotlar berish, savdo ko'rgazmalarini tashkil etish va chet elda biznes faoliyatini olib borish uchun aloqa o'rnatish kabi xizmatlarni taklif etadi. Bevosita va bilvosita subsidiyalar mamlakatdagi sohalarga, mamlakat ichida va tashqarisida xorijiy mahsulotlar bilan raqobat qila olishlari uchun beriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning asosiy qismi o'z eksportyorlariga krerit xatarini sug'urta qilish borasida katta imkoniyatlar yaratib beradi. Bu esa xorijga chiqarilgan tovarlar to'lovi xavfini kamaytiradi.

Bundan tashqari, kelgusida, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:[22]

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;
- Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

[21] В.Г.Свинухов–Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

[22] «Солиқ ва божхона хабарномаси» газетасининг 2003 йил 16 декабр сони.

• Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;

• Eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

• Ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;

• Iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatdosh va ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;

• Xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatsiya qilish sohasida hamkorlik qilish ko'lamini yanada kengaytirish;

• Xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;

• To'g'ridan to'gri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli hududlarida qo'shma korxonalar yaratilishini ta'minlash;

• O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan savdo – iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarni yanada kuchaytirish;

• Kichik va o'rta biznes subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga hamkorlik qilish;

• Xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish harajatlarini kamaytirish;

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilib ketayotgan bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etishi imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu mavzuni o'rganish natijasida talabalar tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish shakllari tog'risida, tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy elementlari to'g'risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat bojxona organlarining o'rni to'g'risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari to'g'risida ma'lumot olishlari mumkin. Bulardan tashqari bu mavzuda Respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosati uni amalga oshirish chora-tadbirlari, respublikamizning tashqi savdo aylanmasini oshirishga ko'maklashuvchi farmon va qarorlar, ularning mohiyati va maqsadi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Mamlakatning eksport siyosati va uning asosiy maqsadlari.
2. Import siyosatining asosiy maqsadlari nimaga qaratilgan?
3. Investitsiya siyosati va uni eksport-import siyosatlari bilan o'zaro bog'liqligi.
4. Valyuta siyosatining asosiy vazifalari.
5. O'zbekistonda valyuta siyosatining huquqiy asoslari.
6. Tashqi iqtisodiy siyosat shakllanishini belgilovchi asosiy omillar.
7. Bojxona siyosati va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati.
8. O'zbekiston Respublikasini bojxona siyosatini shakllanish bosqichlari.
9. Iqtisodiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
10. Import tovarlarining o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni ijobiy tomonlari nimada?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
2. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
3. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.
4. В.Г.Свинухков Таможенно - тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

IV BOB
TIFNI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH DAVLAT SIYOSATI

4. 1. Tashqi savdo siyosatini mohiyati va maqsadlari

Bozor islohotlari Yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy mustahkamlanishi, barqaror rivojlanishi, uning jahon xo'jaligi tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ko'p jihatdan davlatning barcha ko'rinishidagi tashqi iqtisodiy siyosatni (TIS) erkinlashtirishga bog'liq.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi optimal darajada proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqazo etadi[23].

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab qo'ya olmaydi. Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning (TIA) davlat tomnidan tartibga solinishi ayniqsa muhimdir. Bu esa birinchi navbatda tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yurgizishni talab etadi.

TIS mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin ushbu tushuncha mazmunini aniqlashtirib olish zarur.

TIA larni davlat tomonidan tartibga solish-bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida , mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapitallar oqimini kuchaytirishga yo'natirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimidir.

---

[23] «Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикасини Қонуни 2 моддаси

Bu tashqi iqtisodiy siyosatning eng umumiy ta'rifidir. Ushbu tarifni aniqlashtirish uchun tashqi iqtisodiy siyosat davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlash joizdir.

Birinchidan o'tish davri sharoitida tashqi iqtisodiy siyosat yangi iqtisodiy uklad shakllanishining muhim omili, iqtisodiy hayotning bozor munosabatlariga monand ilg'or shakllarini barpo etishning vositasi hisoblanadi va qat'iyy markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning nodinamik, qotib qolgan shakllaridan keskin farq qiladi. U iqtisodiy ma'muriy chora-tadbirlardan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qator asosiy vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan:

- Milliy iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini rag'batlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlash;
- Ichki bozorni himoya qilish;
- Tarkibiy qayta o'zgarishlar amalga oshirilishiga ko'maklashish;
- Mamlakat hududlaridagi resurslardan foydalanish va hokazolar.

Ikkinchidan, puxta o'ylangan va muvozanatli tashqi iqtisodiy siyosat davlat tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi, milliy iqtisodiyotni jahon bozorlaridan himoya qilishga, uning jahon xo'jalilgiga uyg'unlashishi uchun faol ko'maklashishga yo'naltirilgandir.

4.2. TIF ni liberallashtirish

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosat jahondagi siyosiy va ijtimoiy–iqtisodiy shart–sharoitlar nisbatan tez o'zgarayotganligini hisobga olib, jo'shqin, harakatchan, moslashuvchan bo'lishi zarur. Ayni vaqtda, respublikamiz jahon xo'jaligiga qo'shilayotgan bir sharoitda, gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini rag'batlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish to'g'risida borar ekan, buning uchun yetarlicha barqaror bo'lishi talab etiladi. Bunga tashqi iqtisodiy siyosat o'z rivojlanishining ilmiy asoslangan konsepsiyasiga tayanganidagina erishish mumkin[24].

Shunday qilib tashqi iqtisodiy siyosat – bu davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish orqali mamlakatning ishlab chiqarish omillari xalqaro taqsimotida qatnashuvi samarasini oshirishga qaratilgan muayyan harakatlar majmuidir. Uning asosiy ko'rinishlari tashqi savdo siyosati (alohida eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), tashqi sarmoyalar siyosati, valyuta munosabatlarini tartibga solish siyosatidan iborat. Bundan tashqari alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni

[24] В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ,2004.

jo‘g‘rofiy jihatdan muvozanashlashtirish masalalarini ham TIS hal etadiki, bu hol o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘langan.[25]

TIFni erkinlashtirish deganda, eng avvalo TIA qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga solish ma’muriy uslublarining ma’lum qadar qisqarishi, mavjud to‘siq va g‘ovlarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlaqo mukarrar, ichki iqtisodiy munosabatlar erkinlashuvining mantiqiy natijalaridir. Samarali bozor mexanizmi faqatgina jahon bozor munosabatlari bilan uzviy aloqada tashkil qilingan bo‘lishi mumkin. Yana bunda eng muhimi turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma’lum darajada o‘xshashligidir. TIS ni erkinlashtirish islohatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘tish davri iqtisodiyoti masalalari yechimimni tezlashtiradi.

Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari- xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirish, TIA larning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishiga barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to‘siqlarni olib tashklash, eksportni rivojlanishini faollashtirish, milliy valyutaning konvertatsiya qilinishini ta’minlashdir.

Bu shakllar jahon tajribasi ko‘rsatganidek, amaldagi bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Biroq ular to‘liq holda hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida ham qo‘llanmaydi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda, davlat ma’lum cheklanishlarni o‘rnatadi, bojxona tariflaridan keng foydalanadi, turli xil ta’qiqlarni kiritadi va hakazolar. Bozor mexanizmi endi shakllanayotgan, mavjud ishlab chiqarish tizimi bozor sharoitlariga xali to‘liq moslashmagan o‘tish davri iqtisodiyotda davlatning roli yanada muhimdir.

Shuning uchun o‘tish davri iqtisodiyotida TIA ni erkinlashtirish siyosati ichki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga zarar keltirmagan holda, mamlakatda bozor munosabatlarining tezkor rivojlanishini va uning jahon xo‘jaligiga uyg‘un qo‘shilishini maqbul darajada ta’minlashi zarur.

4. 3. Moliyaviy kapitallar bozori va uni erkinlashtirish

Moliyaviy kapital bozorining ochiqlik darajasi alohida masala sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Shak-shubxasiz ochiqlik darajasi birinchi navbatda investitsiyalarni bevosita jalb qilishni ta’minlashi zarur. Biroq portfel investitsiyalar shuningdek o‘rta va qisqa muddatli kreditlarni jalb etish ancha murakkab masala. Yaqinda kuzatilgan Janubiy – Sharqiy Osiyo

[25] В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

mamlakatlaridagi moliyaviy tenglik shuni ko'rsatadiki, mamlakatdan kapitallarni birdaniga chiqib ketish jarayoni yuz berganda qisqa muddatli kapitallar erkin harakati iqtisod rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu Bilan birga, kredit va fond resurslari erkin harakatining mushkullashtirilishi, tabiiyki, milliy xo'jalik imkoniyatlarini cheklaydi.[26]

Valyuta bozorining erkinlashtirilishi milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi, avvalambor joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiya qilinishini ta'minlashni bildiradi. Uning ta'minlanganligi – TIA lar rivojlanishi uchun jiddiy to'siqdir. Valyuta bozorining to'liq liberallashuvi , albatta kapital hisobi bo'yicha konvertatsiya qilinishi ham ko'zda tutadi. Biroq moliyaviy tizim samarasi past bo'lgan mamlakatlar valyutaning to'liq konvertatsiya qilinishiga shoshilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida TIF ni amalga oshirishda na zaruriy institutlarga, na yetarli mutaxassislarga, na samarali o'rnatilgan aloqalarga ega edi. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda o'z TIS ni ishlab chiqish va yurg'izishda katta qiyinchiliklarga duch keldi.

Bosqichma–bosqich amalga oshirilayotgan erkinlashtirish natijasida O'zbekiston tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmoqda: litsenziyalashtiriladigan tovarlar ro'yxati qisqardi; miqdoriy cheklashlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda; erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta o'zi ishlab chiqargan raqobatdosh tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzluksiz ravishda takomillashib bormoqda. Investitsion qo'yilmalarni sug'urta qilish tizimi rivojlanib bormoqda, moliyalashtirishning eng murakkab sxemalarini qo'llash asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy infratuzilmalar shakllanmoqda[27].

Biroq mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar hali ham saqlanib qolmoqda.

Xulosa

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan tashqi iqtisodiy

[26] В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

[27]. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ,2004.

muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapitallar oqimini kuchaytirishga yo'natirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Bu tashqi iqtisodiy siyosatning eng umumiy ta'rifidir. Ushbu tarifni aniqlashtirish uchun tashqi iqtisodiy siyosat davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlash joizdir.

Nazorat savollari

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishining zarurligi nimada?
2. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishini rag'batlantirish.
3. Ichki bozorni himoya qilishni iqtisodiy mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy rivojlanishini asosiy ko'rsatkichlarini hozirgi holati.
5. O'zbekistonda TIFni tashqil etish va boshqarishni huquqiy asoslari.
6. TIFni tashqil etish, boshqarish davlat tashqilotlari va ularni asosiy vazifalari.
7. TIF ni tartibga solishda bojxona organlarini o'rni qanday?
8. TIF deganda nimani tushunasiz?
9. TIF ni rivojlantirish bo'yicha qanday imtiyozlar beriladi?
10. Eksportga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishni ahamiyati to'g'risida gapiring.

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
2. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
3. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред.
И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.
4. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.
5. В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

V BOB
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI DAVLAT BOSHQARUVI VOSITALARI

5.1. Xalqaro savdoda davlatni roli

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlaridagi faoliyatini o'ziga xos xususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishi va takomillashishidir.

Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqsodiy faoliyatini o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama o'ylagan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy shakllaridan bo'lmish – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatdagi savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'langandir. Savdo siyosatini tub mohiyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanadi[28].

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatlarni savdo siyosatini mavjud vositalari yordamida tartibga soladilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari harakteriga ko'ra ta'rif – ya'ni boj tarifini qo'llashga asoslangan va notarif – boshqa barcha vositalarga bo'linadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni ayniqsa tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda, mavjud usullardan qaysi biridan foydalanish muammosi vujudga keladi. Bu chora-tadbirlar dunyo xo'jaligida ma'lum ustivorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

Bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishmaslikdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi. Odatda biror bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan xuddi shunday tartibda qabul qilingan chora-tadbirlarni qarama qarshi tarzda qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtasida siyosiy ziddiyatlarni paydo bo'lishiga va keskinlashuviga olib keladi.

[28] В.Г Свиухов «Таможенно-тарифная регулирования внешнэкономичесих связи».

• Ikki tomonlama, yani savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi. Misol uchun o'zaro kelishilgan holda har bir tomon tomonidan iqtisodiy manfaatlariga ziyon yetkazmagan holda, konvension bojlar qo'llanilishi, mamlakatlar tovarlarini qadoqlanishiga, belgisiga qo'yilgan texnik sabalar, sifat sertifikatlarini o'zaro tan olishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin.

• Ko'p tomonlama, ya'ni savdo siyosati kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksinestik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.[29]

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo'llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati.

5. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvi vositalari va ularni sinflanishi

Bularning qaysi biri qanday afzallikka ega, yoki ega emasligi bir biridan ustunligi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillar mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60 yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun protensionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish xos bo'ldi.

70-yillarning boshlarida esa teskari tendensiya, ya'ni erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish kuzatila boshladi.

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshirila boshladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar o'rtasida qishloq xo'jaligi, tekistil sanoati va kiyim—kechak ishlab chiqarishda bo'lsa rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida – rivojlanayotgan davlatlarni sanoat tovarlari eksporti sohasida, rivonayotgan davlatlar o'rtasida esa ularga xos an'anaviy tovarlar savdosi sohasida[30].

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

---

[29] Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

[30] А.Н.Дюмельцев «Мировая экономика» китобининг 5 – боб.

◦ Selektiv proteksionizm- ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.

• Soha proteksionizmi — xalq xo'jaligini ma'lum sohasini himoya qilishga (kishlok xo'jaligi) qaratilagan.

◦ Kollektiv proteksionizm — ma'lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yaxshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi?

Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan.

Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Garverd universitetiga 115 davlat bo'yicha ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki yopiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda ichki yalpi mahsulot hajmini yillik usishi 0,7%ni tashkil qilgan bir paytda ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi. (Albatta ochiq tashqi iqtisodiy siyosatni olib borishni yaxshi rivojlangan va tez suratlar bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayaptilar). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba'zi bir tadbirlari barcha davlatlarda bor. Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskolatsiyasi o'rinlidir, ya'ni xom-ashyo va tayyor mahsulotlarga belgilan import bojlari o'rtasidagi farq. GATTni Urugvay raundidan so'ng rivojlangan davlatlar tomonidan olib chiqilayotgan xom ashyoga belgilangan tarif stavkalari, tayyor mahsulotlari stavkalariga nisbatan 3,5 barovar kam va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan stavkalarga 7,5 barovar kam bo'ldi.

Davlatning savdo siyosatida ko'pgina masalalar o'zaro bir biriga bog'lanib ketadi. Bular iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalardir.

Xalqaro iqtisod avvalo iqtisodiy masalalarni va savdo siyosatini oqibatlarini organadi.

Savdo siyosatida mujassamlangan boshqa masalalarni esa fanni ixtisoslashgan yo'nalishlari organadi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish usullari mohiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Bojxona tariflariga asoslangan tarif usullariga (iqtisodiy bilvosita), hamda notarif (ma'muriy bevosita) usullari.[31]

Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish usullaridan bir qismi ichki bozorni chel el raqobatidan himoya qilishga, ya'ni importni chegaralashga qaratilgan. Usullarni boshqa qismini asosiy maqsadi eksportni jadallashtirishga qaratilgandir. [32]

---

[31] Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

[32] В.Г.Свиухов «Таможенно-тарифная регулирования внешнеэкономичесих связи» китобининг 154 бети

Oldingi mavzulardan shuni anglash mumkinki, xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalari boj tarifini qo'llashga asoslangan tarif va barcha boshqa usullarga asoslangan notarif turlariga bo'linadi. Davlatni tashqi savdo siyosati, ichki bozorni chet el raqobatiga ochish bilan bog'liq bo'lgan erkin savdo siyosatidan, ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan proteksionistik savdo siyosatidan yoki o'zida erkin savdo va proteksionistik siyosati elementlarini ma'lum propotsiyada mu'tadil savdo siyosatidan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pchilik davlatlarda hukumatning xalqaro savdo sohasidagi asosiy vazifasi – eksportchilarga iloji boricha ko'p mahsulotlarini chetga chiqarishlariga va ularni tovarlarini xalqaro bozorlardagi raqobatdoshligi oshirshga ko'maklashishdan va importni chegaralab, chel el tovarlarini ichki bozordagi raqobatbardoshlik darajasidan tushirishdan iboratdir.

5.3. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish

Xalqaro savdoni tartibga solish davlat mexanizmlarini mamlakatni iqtisodiy holatini ta'sirini iste'molchi tomonidan iste'mol qilinayotgan tovarlarni ortiqchaligi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqargan tovarlarini ortiqchaligi tushunchalari tushunchalari bilan ifodalash mumkin[33].

- Iste'molchi tomonidan iste'mol qilinayotgan tovarlarni ortiqchaligi – bu iste'molchi tomonidan sotib olingan tovarni bahosi bilan shu tovarni sotib olishi mumkin bo'lgan maksimal bahosi o'rtasidagi farq tushuniladi.

Savdo siyosatini harakteri.

Har xil davlatlar o'z savdo siyosatini amalga oshirish uchun xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalarini har xil turlaridan va usullaridan foydalanadilar. Agarda davlat bojxona himoyasini o'rtacha darajasini aniq miqdoriy jihatdan baholash mumkin bo'lsa, notarif usullarini qo'llash darajasi, ularni xilma xilligi va har xil iqtisodiy mazmunga egaligidan, miqdoriy jihatdan takribiy baholashi mumkin.

Notarif chegaralashni o'rtacha darajasi esa shu chegaralashlarga to'g'ri keladigan import yoki eksport ulushini bahosi sifatida hisoblanadi. Bu yerda bu chegaralashlarni qo'llanilish intensivligiga karab o'zgartirishlar kiritiladi. Misol uchun, kerakli hujjatlarni taqdim etilishi bilan, davlat organlari tomonidan beriladigan avtomatik litsenziya eksportni belgilangan miqdordan ortiq tovarni eksport qilishni tasdiqlovchi eksport kvotasiga nisbatan kam

[33] А.Киреев «Международная экономика» китобининг 5 боб.

darajada chegaralaydi. Davlatni savdo siyosati proteksionistik, umerenno'y yoki ochiq(erkin savdo) bo'lishi mumkin. Bu tushunchalarni har biri nisbiy mazmunga ega bo'lib, bir to'g'ri chizikni ikki ekstrimal nuqtalari o'rtasida joylashgan bo'ladilar. Ekstrimal nuqtalarni bir-birini mazmuni shundan iboratki, davlatni tartibga solish qurollari ta'qiqlovchi mazmunga ega bo'lib, tashqi dunyo bilan savdo sotiqni to'xtalishi bilan va ikkinchi nuqta davlat tashqi savdo yo'nalishida hech qanday savdo qurollaridan foydalanilmaydi.

Har bir davlat savdo siyosatini u yoki bu vositalarini qo'llash bo'yicha qaror qilish oldidan, qo'llanilayotgan vositalarni davlat savdo siyosati harakteriga ta'sirini va sherik davlatlar tomonidan javob chegaralari qo'llanilishi mumkinligini o'rganib chiqish lozim.

Savdo siyosati choralarini baholash maqsadida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan 1985 yili indikativ savolnoma mamlakatlar hukumatlari amaliyoti keng qo'llaniladi.

Savdo siyosatini iqtisodiy chora-tadbirlarini qo'llashdan oldin javob berilishi lozim bo'lgan savollar quyidagilardan iboratdir:

- Bu chorani amalga oshirilishi natijasida tarmoq yoki firma uchun qanday iqtisodiy yutuq kutiladi va qancha ish joylari tashkil etiladi yoki saqlab qolinadi?
- Budjet daromadlari qanchaga oshadi yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun qancha byudjet harajatlari talab etiladi?
- Ichki narxlar qanchaga oshadi va bu chora-tadbirlar natajasida iste'mol miqdori qanchaga kamayadi?
- Amalga oshirilmoqchi bo'lgan chora-tadbirlarni bozor tuzilishiga va undagi raqobatga ta'siri qanday?
- Bu chora-tadbirlarni qo'llanilishiga savdo bo'yicha sherik davlatlar qanday munosabat bildiradilar va uni ularga potensial ta'siri qanday?
- Qo'llanilishi kutilayotgan chora-tadbirlar mavjud davlat ishtirok etayotgan ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar qoidalariga to'g'ri keladimi yuqmi?

Mana shu savollar javablarini o'rganib va tahlil qilingandan so'ng xalqaro savdoni tartibga solish vositalari u yoki bu turlaridan qo'llaniladi.

Dunyo xo'jaligi amaliyotida xalqaro savdoni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarni mazmun mohiyatiga ko'ra quyidagi sinflash mumkin.

Xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalari harakteriga ko'ra boj tarifini qo'llashga asosan tarif va notarif usullariga bo'linadi.

Xalqaro savdo sohasida davlatning asosiy vazifasi – eksportchilar uchun iloji boricha ko'p tovarlarini, ularni jahon bozorlarida raqobatdoshligini oshirgan holda, eksport qilishga ko'maklashish, hamda chet el tovarlarini

ichki bozordagi raqobatdoshlik darajasini kamaytirish maqsadida importni qisqartirishdir[34].

Usullar		Savdo siyosati vositasi	Asosan tartibga soladi	
Tarif		Bojxona bojlari		import
		Tarif kvotasi		import
NO	Miqdoriy	Kvotalash		import
		Litsenziyalash	eksport	import
		Ihtiyeriy chegaralash	eksport	
TAR	Kuzga tash– lanmas	Davlat haridlari		import
		Mahalliy komponentlarni borligi		import
		Texnik to'siqlar		import
		Soliq va yig'imlar		import
IF	Moliyaviy	Subsidiyalar	eksport	
		Kreditlash	eksport	
		Demping	eksport	

Xulosa

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy shakllaridan bo'lmish – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatdagi savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'langandir. Savdo siyosatini tub mohiyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faooliyatlarni savdo siyosatini mavjud vositalari yordamida tartibga soladilar.

Nazorat savollari

1. Xalqaro savdo va uni asosiy vazifalari.
2. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishni qanday shakllari sizga ma'lum?

[34] А.Киреев «Международная экономика» китобининг 5 боб.

3. Erkin savdo siyosati bilan proteksionizm o‘rtasidagi farq.
4. O‘zbekiston Respublikasi savdo siyosatini hozirgi holati qanday?
5. Savdo siyosatini asosiy vositalarini sanab o‘ting.
6. Iste’mol ortiqchaligi nima?
7. Ishlab chiqarish ortiqchaligi qachon yuz beradi?
8. Erkin savdo siyosatini proteksionizmdan afzalligi nimada?
9. Savdo siyosatining asosiy vazifalari nimadan iborat?
10. Respublikamizning iqtisodiy siyosati nimaga qaratilgan?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
2. Международные экономическая отношения,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004 год.
3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
4. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.
5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.
6. В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

VI BOB
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI DAVLAT BOSHQARUVIDA NOTARIF USULLAR

6. 1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning nota'rif usullarining turlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullari bilan bir qatorda notarif usullari ham qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda uxtin uxtin tarif usullariga nisbatan notarif usullarini qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki notarif usullar siyosiy tomondan qo'llashda qulay, iste'molchilar uchun soliq bo'yicha qo'shimcha og'irliklar tugdirmaydi. Bundan tashshkari notarif uullari kuzlagan maqsadga erishishda ham qulaydir[35].

Misol, Bugdoy importi miqdorini 2,5 mln.tonna qilib belgilashda notarif usullardan foydalanish qulaydir. Chunki shu tovar bo'yicha import miqdorini, import ta'rifi orqali shunday qilib belgilash uchun kerak bo'lgan tarif stavkasini hisoblash ko'p mehnat talab qiladi.

Va nixoyat notarif usullarni qo'llash hech bir xalqaro tashkilot tomonidan tartibga solinmmaydi v abu usulni o'z savdo siyosatida qo'llash orqali har bir davlat, tarifni qo'llashga nisbatan, uzuni erkinrok his etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tarif usullaridan foydalanish, aniqrogi tashqi savdoni kuzlagan miqdorda tartibga solish butun jahon savdo tashkiloti tomonidan tartibga solinadi.

Notarif usullari mazmun mohiyatiga ko'ra miqdoriy, ko'zga tashlanmas va moliyaviy chegaralash turlariga bo'linadi.

Mikdoriy chegaralash – eksport va importga ruxsat etilgan tovarlarini miqdori va nomenklaturasini belgilashda davlat tomonidan qo'llaniladigan notarif usullarini ma'muriy shaklidir. Mikdoriy chegaralashlar biron bir davlat xukmati qarori asosida yoki ma'lum tovar savdosini tashkil etuvchi xalqaro kelishuvlar asosida qo'llanilishi mumkin.

Mikdoriy chegaralash usullarini amaliyoti keng tarqalgan turi kvota yoki kontingentdir. Bu ikkala tushuncha bir xxil ma'noga ega bo'lib, kontingent suzi odatda mavsumiy harakterga ega bo'lgan kvotani belgilashda qo'llaniladi.

Kvota – bu eksport yoki importni belgilangan miqdorda va summada ma'lum vaqt oraligida chegaralash bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy chegaralash chorasidir.

Kvotalar ta'sir yo'nalishlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

[35] А.А.Алиев «Божхона органларининг иқтисодий фаолияти» маъруза матни Тошкент ТДИУ 2005 йил.

Eksport kvotalari – biron davlatni ma'lum tovar eksportini umumiy miqdordagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi. Bundan tashqari bu kvotalar biror bir davlat tomonidan alohida holda, ichki bozorda taqchil bo'lgan tovarlarni olib chiqib ketilishini oldini olish maqsadida ham kiritiladi.

Import kvotalari – mahalliy hukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirsh, ichki bozordagi talab va taklifni tartibga solish, shuninngdek boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan savdo bo'yicha iqtisodiy tazyiqqa javob maqsadida kiritiladigan kvotalar.

Qamrab olish darajasi bo'yicha esa kvotalar quyidagi turlarga bo'linadi:

• Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotganidan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan kat'iy nazar, ma'lum tovar eksport iva importi bo'yicha ma'lum davrga belgilanadigan kvotalardir. Bu turdagi kvotalar ichki iste'molni kerak bo'lgan darajada ushlab turish uchun qo'llaniladi.

• Individual kvotalar – eksport yoki import qilayotgan davlat tomonidan, global kvota doirasida, belgilanadigan kvotadir. Odatda bunday kvotalar o'zaro 2 tomonlama kelishuvlar asosida qo'llanadilar. Bu kvotalar o'zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga ega bo'lgan davlatlarga eksport va import bo'yicha ma'lum afzalliklar beradi.

Ko'p hollarda individual kvotalar mavsumiy bo'ladilar, ya'ni ichki bozorni ma'lum tovarlar bo'yicha davlat himoyasiga zarurati bo'lganda, ma'lum vaqt oraligida qo'llaniladi.

Mikdoriy notarif usullarini yana bir turi – litsenziyalashdir.

Litsenziyalash – davlat organlari tomonidan, eksport iva importini belgilangan hajmi bo'yicha ma'lum davrga beriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi ruxsatnomadir[36].

Litseziyalash kvotalashni tarkibiy qismi bo'lishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni alohida olingan davlat quroli ham bo'lishi mumkin. 1 – holda belgilangan kvota doirasida kvota doirasida tovarni olib kirish va olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi mumkin, 2 – holda esa u bir qator aniq shaxslarga ega bo'lishi mumkin:

• Bir marotaba beriladigan beriliadigan litsenziya – bir savdo kelishuvi asosida bir yil ichida tovarlar oilib kirish va chiqish bo'yicha davlat tomonidan beriladigan yezma ruxsatnoma.

• Bosh litsenziya – u yoki bu turdagi tovarlarni chegaralanmagan sondagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo'yicha

[36] А.Киреев «Международная экономика» Москва изд. «Международные отношения» 3 боб.

beriladigan ruxsatnoma.

• Global litsenziya – ma'lum vaqt oraligida, chegaralanmagan miqdordagi va qiymatdagi ma'lum bir tovarni ihtiyoriy davlatga olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruxsatnoma.

• Avtomatik litsenziya – eksportchi va importchi tomonidan, ma'lum savdo operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha ruxsat suralgan zaxoti, davlat organlari tomonidan qaytarilmaydigan ruxsatnoma.

Litsenziyalash dunyodagi juda ko'p davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Jumladan rivojlanayotgan davlatlar tomonidan litsenziyalash importni tartibga solishda, rivojlangan davlatlar esa belgilangan kvota doirasida, importchi tomonidan ma'lum tovarni olib kirish bo'yicha ruxsatni tasdiqlovchi hujjat siifatida ishlatiladi.

Importni miqdoriy chegaralash nafakat import qilayotgan davlat tomonidan import tarifi yoki import kvotalari kiritilishi orqali amalga oshirilishi mumkin, balki eksport qiluvchi davlat tomonidan «eksportni erkin ravishda» doirasida ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ham amalga oshirish mumkin[37].

«Eksportni ihtiyoriy ravishda» chegaralash odatda katta importchi davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy tazik ostida amalga oshiriladi. Katta davlat eksport qiluvchi davlatga nisbatan bir tomonlama holda importni chegaralash orqali uni o'z tomonidan «uz eksportni erkin ravishda» chegaralashga majbur qiladi.

«Eksportni erkin ravishda» chegaralash bu, savdo bo'yicha sheriklar bir tomonidan davlatlararo rasmiy kelishuv asosida yoki eksportga kvota o'rnatish bo'yicha norasmiy kelishuvlar asosida eksportni miqdoriy chegaralash yoki juda bo'lmaganda uni hajmini oshirmaslik to'g'risida majburiyat olishidir.

Bu holda daromad samarasi, import kvotasini qo'llash xoligidagidek mahalliy importchilarga emas, balki chet el eksportchilariga tegishli bo'ladi, chunki ular o'z eksport tovarlarini bahosini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu importchi tomonidan import kvotasini qo'llash xavfi tugilganda, eksportchi tomonidan «o'z xohishiga ko'ra» eksportchilarga cheklashlar qo'llashga asos bo'ladi.

Yuqoridagilarga ko'ra eksportchi davlat tomonidan «o'z xohishiga ko'ra» eksport miqdorini cheklagunga qadar importchi davlat bir birlikka teng miqdorda tovarni ishlab chiqarayetgan edi., 7 birlikdagi tovarni iste'mol va 6 oylik tovarni har birin 6 dollardan qilayotgan edi.

Eksportchi davlat tomonidan «o'z xohishiga ko'ra» 2 birlikka teng eksport

[37] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

kvotasini kiritilishi natijasida, importchi davlat 3 birlikka teng mahsulot ishlab chiqarib, 5 birlikka teng tovarni iste'mol va 2 birlik tovarlarni 7 dollardan import kila boshladi. Importchi davlatni iqtisodiy yuqotishlari 4 dollarni tashkil etdi.

Bundan tashqari «o'z xohishiga ko'ra» eksportni bir davlat tomonidan qisqartirilishi, xuddi shunday tovarni boshqa davlat tomnidan eksportini kengayishiga olib keladi. Chunki ular bilan «eksportni ihtiyoriy ravishda qisqartirish» to'g'risida shartnoma tuzilgan shuning uchun ham importchi davlat ichki bozorida bush qolgan siyementlarni egallashga harakat qiladilar. 1- davlat tomonidan «eksportni ihtiyoriy ravishda» chegaralangunga qadar 2- davlat import qilinayotgan tovar bahosi P2 ga teng bo'lib, raqobatlasha olmas edi, «eksportni ihtiyorish ravishda» chegaralanish natijasida u bemalol rakoblasha oladigan bo'ldi, chunki P2<P3 dan. 2- davlat (Q3-Q2)+(Q6-Q5) miqdordagi tovarni eksport qilib, importchi davlatdagi ichki bahoni P2 darajaga kutaradi. Iste'molchilar uchun yuqotishlar himoya va iste'mol samaralaridan katta bo'lmaydi. Bizning xolimizda himoya va iste'mol samarasi ga teng. Agarda 1- davlat o'zining tovarlarini narxini 2- davlat tovarlari narxi darajasigacha kutarsa, u holda o'z daromadini faqatgina c+d segment kattaligiga kutarilishi mumkin. e+f segmentlari esa savdoni chetlanish samarasini tashkil etadilar, ya'ni bu samara importchi tomonidan tovarlarni ma'lum qismini 2- davlatdan sotib olishi bilan bog'liqdir, vaxolanki bu davlatda tovarlarni narxi boshidan birinchi davlatdagi narxlardan yuqoridir[38].

Chetlanish samarasini haqiqiy qiymati jahon iqtisodi uchun to'g'ridan-to'g'ri yuqotishlardir, chunki eksportni «eksportni ihtiyoriy ravishda» chegaralash natijasida resurslardan foydalanish samarasi past bo'ladi.

Rasmdan ko'rish mumkinki, 2-davlat 1-davlat tomonidan kiritilgan 2 birlikka teng «ihtiyoriy» eksport kvotasiga qo'shimcha 2 birlikka teng raqobatbardosh bo'lgan o'zining eksportini kushadi, chunki 2-davlatdagi tovar bahosi 6,5 ga bo'lib, u davlatdan import qilinayotgan xuddi shunday tovarni bahosi 7 dollardani kichikdir.

Tovarlar ikkala davlatdan ham eksport qilinayotganda, import qiluvchi davlat 2 birlikka teng tovar ishlab chiqaradi, 6 birlikdagi tovarni iste'mol qiladi va 4 birlikka teng tovarni import qiladi, shundan ikki birlikdagi tovarni 6 dollardan 1-davlatdan.

Shunga ko'ra va har qanday holda himoya va iste'mol samaralaridan 2 dollarni yuqotilishini hisobga olgan holda, 1-davlat ham o'z tovarlarini har birini qiymatini 6,5 dollarga kutaradi va 1 dollar himoya samarasini 0,5

[38] А.Киреев «Международная экономика» Москва «Международные отношение» 3 боб.

dollarga va daromad samarasini ham 0,5 dollarga qisqarishi oqibatida, ($0,5*2q$1) miqdorida qo'shimcha daromad oladi.

Importchi davlat tomonidan 2- davlatdan «ihtiyoriy kvota» miqdoridan katta bo'lgan ikki birlikdagi 1- davlatdan 6 dollardan sotib olish mumkin bo'lgan tovarni har birini 6,5 dollardan sotib olishga majbur bo'lishi natijasida chetlanish samarsi xosil bo'ladi($0,5*2q$1).

Eksportni «ihtiyoriy ravishshda» chegaralash usuli ichki bozorda katta mavkega ega bo'lishiga erishishga qaratilgan bo'lib odatda savdo siyosati vositasi sifatida rivojlangan davlatlar o'rtasidagi raqobat ko'rashida qo'llaniladi.

6. 2. Miqdoriy notarif usullari va ularni qo'llash tartibi

Ichki bozorni, miqdoriy chegaralash, hamda ko'zga ko'rinmas usullar bilan import tovarlaridan himoya qilish bilan birga xalqaro savdo amaliyotida eksportni kengaytirish usullari ham keng qo'llaniladi. Bu usullarni aksariyati mahalliy eksportchilarni davlat tomonidan bevosita va bilvosita subsidiyalar berish orqali Qo'llab-qo'vvatlashga asoslangan.

Har xil yo'llar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy eksportni tan narxini kamaytirish orqali eksport tovarlarini jahon bozoridagi raqobatdoshlik darajasini oshirishga qaratilgan.

Savdo siyosati sifatida eksportini moliyalashtirish davlat byujetidan, hamda davlat organlari tomonidan (banklar, jamgarmalar va boshqalar) amlga oshiriladi. Shuningdek shaxsiy sektor-eksportchilarini o'zlari ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan amalga oshirilishi mumkin[39].

Eksportni moliyalashtirishni savdo siyosati sifatida banklar tomonidan aylanma kapitalni eksport va importni jarayonlari bo'yicha tijorat operatsiyalarini moliyalash jarayonidan farq qiladi.

Savdo siyosati sifatida moliyalash milliy ishlab chiqaruvchilarni va eksportchilarni manfaatlarini diskriminatsiya qilishga qaratilgan.

Savdo siyosatining keng tarqalgan usullari – bo'lar subsidiyalash, kreditlash va dempingdir. Bu usularning har biriga alohida-alohida tavsifnoma beramiz:

Subsidiyalar agarda davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksportini Qo'llab-qo'vvatlashni lozim deb bilsa, u holda davlat ularga u yoki bu shaklda davlat byudjetidan subsidiyalar berishi mumkin.

Kreditlash va eksport krediti – firmalar eksportini davlat tomonidan rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan, tashqi savdo siyosatining notarif moliya usulidir.

---

[39] А.А.Алиев «Божхона органларининг иқтисодий фаолияти» маъруза матни Тошкент ТДИУ 2005.

Demping – tovarni eksport bahosini shu davlatda mavjud bo'lgan bahodan kamaytirish orqali uni tashqi bozorga harakatini ta'minlovchi tashqi savdo siyosatini moliyaviy usulidir.

Ajratilish (to'lanish) mohiyatiga ko'ra subsidiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

• Tug'ri subsidiyalar – eksportchi tomonidan eksport operatsiyalarini amalga oshirgandan so'ng eksportchiga uni qilgan harajatlarni va daromadlari orasidagi farqqa teng mablag' ajratish. Tug'ri subsidiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga dunyo bozoriga chiqishda ajratiladigan dotatsiyalardir. 60 yillar boshidan boshlab to'g'ri subsidiyalar obyekti sifatida rivojlangan davlatlarning sanoat tovarlari eksporti, ya'ni kemalar, aviatsiya texnikasi va boshqalar belgilandi. Lekin to'g'ri subsidiyalarni qo'llash VTO qoidalar i bo'yicha ta'qiqlangan bo'lib, ularni qo'llash savdo sheriklari tomonidan javob choralarini qo'llanishiga olib keladi.

• Bilvosita – eksportchilarni maxfiy ravishda, soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish, imtiyozli shartlarda sug'urtalash, bozor stavkalaridan kam stavkali karzlar berish, import bojlarini qaytarib beri shva boshqa chora-tadbirlar orqali dotatsiyalashdir. Subsidiyalar import bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqaruvchilarga, shuningdek eksportga tovar ishlab chiqaruvchilarga beriladi. Ikkala holda ham subsidiyalar ishlab chiqaruvchilar uchun salbiy soliqdir, chunki subsidiyalar ularga hukumat tomonidan ishlatilib, ularni foydasidan chegirib tashlanadi.

• Ichki subsidiya – savdo siyosatini ichida ham maskirovkalangan moliya usuli bo'lib, importga nisbatan, import tovarlari bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi ichki korxonalarni byudjetidan moliyalash orqali, iqtisodiy ta'zyiq o'tkazishdir. Ichki subsidiyalarni iqtisodiy samarasini quyidagi chizma orqali ko'rib chiqamiz.[40]

Subsidiya berilishi natijasida ikki turdagi iqtisodiy samara vujudga keladi. Subsidiyalarni bir qismini shu tovarni ishlab chiqarish bo'yicha samaralirok bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi ko'rinishi «segment - a» tegishli bo'ladi. Ximoya samarasi «v- segmenti», iqtisodiyot uchun to'g'ridan-to'g'ri yuqotishlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish bo'yicha samarasiz bo'lgan korxonalar ham subsidiya olgandan so'ng, o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni sotish imkonitiga ega bo'ladilar. Import tovarlari bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqaruvchilariga berilgan subsidiyalar orqali importni chegaralangan, iqtisodiy nuqtai nazardan, importni import yoki kvotasi orqali chegaralashga nisbatan

[40] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

afzalroq hisoblanadi. Chunki import tarifini va kvotasini kiritilishi natijasiga va kvotasini kiritilishi natijasidagi yuqotishlar, subsidiyalar berillgan holdagiga nisbatan, ko'proq hisoblanadi. Ba'zi bir hollarda hukumatlar nafakat import bilan raqobatlasha oladigan ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam beradilar, balki eksportga tovar ishlab chiqaruvchilarga ham moliyaviy yordam chiqaruvchilarga ham moliyaviy yordam beradilar. Eksportni subsidiyalar bilan ta'minlash mahalliy tovarlarni chet el bozorlaridagi narxini pasayishiga va ularni raqobatbardoshlik darajasini oshishiga olib keladi.

Moliyaviy usullarni yana bir turi eksport kreditlaridir. Ko'p hollarda eksportni pinxona (ko'zga tashlanmas holda) subsidiyalash eksport kreditlari orqali amalga oshiriladi.

Eksport kreditlash – tashqi savdo siyosatini notarif moliyaviy usuli bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan eksportni rivojlantirishlari uchun ularni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish.

Eksport kreditlash bir necha shaklda bo'lishi mumkin:

- Milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalashtirilgan kreditlar foiz stavkalari bozor stakalaridan past burgan, davlat banklari tomonidan beriladigan kreditlar;
- Chet el importchilariga, tovarlarni faqat kredit bergan davlat firmalaridan sotib olishlari bilan beriladigan davlat kreditlari;
- milliy eksportchilarni eksport tavakkalchiliklarini sug'urtalash, ya'ni importchi tomonidan yetkazib berilgan tovar narxini to'la olmasligini, importchi tomonidan eksportchi oldidagi majburiyatlarini, davlat tomonidan kutilmagan xatti-harakatlarni amalga oshirilishi natijasida bajara olmasliklarini sug'urtalash.

Eksport kreditlari berilish muddatlariga ko'ra[41]:

- qisqa muddatli – bir yil muddatga beriladigan kreditlar. Bular asosan xom ashyo va iste'mol tovarlari eksporti uchun beriladi:
- o'rta muddatli – bir yildan besh yilgacha beriladi va mashina uskunalar eksportini Qo'llab-kuvvvtlash uchun buriladi;
- uzoq muddatli – besh yildan ortiq muddatga berilib, investitsion tovarlar eksportini va proyektlarni kreditlashga qo'llaniladi.

Eksport kreditlarini berish bilan davlat organlari, davlat nazoratidagi xususiy firma va xalqaro tashkilotlar(kreditlarni va investitsiyalarni sug'urtalash xalqaro ittifoqi – Bern ittifoqi) bo'lishlari mumkin.

Raqobatni kuchayishi sharoitida, eksportni yanada kengaytirish maqsadida subsidiyalash ba'zi bir hollarda uta keskin shaklga ega bo'lishi

[41] А.Киреев «Международная экономика» Москва изд. «Международные отношения» 164 бет

mumkin. Bunday shaklda bo'lishdan maqsad raqobatchilarni sindirish va bozordan siqib chiqarishdir. Ana shu ma'nodagi subsidiyalash dempingdir.

Demping – tovarni tashqi bozorga, eksport bahosini, eksport qilinayotgan davlatlardagi normal bahodan kamaytirib, harakatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, savdo siyosatining notarif moliyaviy usulidir.

Demping o'z mahsulotlari bilan tashqi bozorni egallab olishga harakat qilayotgan, alohida firma mablaglari hisobiga, shuningdek eksportchilarga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat amaliyotida demping quyidagi turlardan biri ko'rinishi bo'lishi mumkin:

Sporadik demping – tovarlarni ortiqcha zahiralarini tashqi bozorda arzonlashtirib sotish. Bu xol ichki ishlab chiqarish hajmi bozor sigimidan oshib ketganda sodir bo'ladi. Ana shu paytlarda korxonalar oldida ikkita muammo kundalang bo'lib turib qoladi. Brinchidan ishlab chiqarish quvvatini bir qismidan foydalanmaslik va tovar ishlab chiqarmaslik yoki ikkichidan tovar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda ichki bozordagi narxidan past narxda sotish. Bunday demping asosan rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Oldindan o'ylangan demping – ataylab eksport tovarlari narxini pasaytirib, tashqi bozorlardan raqobatchilarni siqib chiqarish va bozorda yakka hokimlikka (monopoliyaga) ega bo'lib qolish.

Doimiy demping – doimo tovarlarni narxini tushirgan holda eksport qilish.

Teskari demping – eksport tovarlarini narxini, xuddi shunday tovarlarni ichki bozordagi narxidan oshirish.

O'zaro demping – ikki davlat o'rtasida narxini tushirgan holda o'zaro savdo[42].

Dempingni holatida bozoor holati yotadi. Ichki bozorda monopol mavkeiga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida tovarlarni arzon narxda sotadilar. Bunday holat tashqi bozorlarda ham qo'llaniladi. Demak, bundan shu narsa aniq bo'ladiki demping har xil davlatlardagi talabni egiluvchanligiga bog'liq ekan.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif-moliya usullarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu usullarni barchasi milliy tovarlarni eksportini oshirishga, eksport jarayoniga ko'maklashishga qaratilgan ekan. Bu usullar mazmun mohiyatidan ko'rinib turibdiki, asosan iqtisodiy tomondan baquvvat davlatlar tomonidan qo'llaniladi.

---

[42] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

Notarif usullarini iqtisodiy mohiyati, qo'llanish tartibini tahlil qilib, ana endi respublikamizda bu usullardan foydalanish holatini organamiz. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda miqdoriy chegaralash usullari bilan bir qatorda notarif usullari ichida ko'zga tashlanmas proteksionistik, ya'ni bojxona faoliyatiga tegishli bo'lmagan markaziy davlat va organlar tomonidan savdo yo'nalishida ko'riladigan to'siqlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Kuzga tashlanmas proteksionizm usullarini qo'llash xalqaro savdoni kelishilgan pritsiplarini buzilishigayakkol misoldir.

Ba'zi bir hisob-kitoblarga ko'ra ko'zga tashlanmas proteksionizmni bir necha yuz turlari mavjud bo'lib, ular yordamida mamlakatlar bir yoqlama holda import yoki eksportni chegaralashlari mumkin. Bular ichida:

Texnik to'siqlar – savdo siyosatini ko'zga tashlanmas usullari bo'lib, ularni xosil bo'lishi shu bilan bog'liqki, milliy texnikaviy, ma'muriy norma va qoidalar chet ellardan tovarlarni olib kirilishiga to'siq kuyilishiga mos ravishda ko'rilgan.

Texnik harakterdagi to'siqlarni keng tarqalgan turlari – milliy standartlarga rioya qilinishini talab etish, import mahsulotlari uchun sifat sertifikatini olish, tovarlar spetsifik qadoqlashga va maskirovkalashga to'g'ri kelishi, ma'lum sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llaganligi, mukammal bojxona rasmiylashtiruviga rioya qilish va boshqalar.

Texnik to'siqlar barcha hollarda ham proteksionizm usullari bo'lavermaydilar. Ko'p hollarda ularni qo'llanilishi ichki bozorni himoya qilish maqsadiga emas, balki aholini himoya qilishga qaratilgan. Misol uchun Yevropa Ittifoqi kiruvchi davlatlarda 1993 yildan biri aholini himoya qilish bo'yicha ko'rsatmaga amal qiladi. Bu ko'rsatmaga asosan ishlab chiqaruvchilar bozorga faqat aholini salomatligiga zarar yetkazmaydigan tovarlar chiqarishlari lozim[43].

Ichki soliqlar va yig'imlar – savdo siyosatini ko'zga tashlanmas usullari bo'lib, ular import tovarlarini ichki bozordagi narxini oshirish orqali, ularni raqobatdoshlik darajasini tushirishga qaratilgandirlar. Import tovarlariga qo'llaniladigan soliqlar juda ham xilma-xildir va to'g'ri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, sotuv solig'i) yoki egri soliqlardan (bojxona rasmiyatchiliklari uchun yig'im, ro'yxatdan o'tkazish va boshqa rasmiyatchiliklar uchun, import yig'imlari) iborat bo'ladi.

Ichki soliqlar va yig'imlar diskriminatsion mohiyatga ega bo'ladilar, agarda ular faqat import tovarlariga qo'llanilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tovarlari bunday soliqlarga tortilmasa. Agarda ichki soliqka

[43] А.Киреев «Международная экономика» Москва «Международная отношения».бет

tortish qoidalar i ham mahalliy tovarlarga, ham import tovarlariga nisbatan bir xil bo'lsa, u holda bunday siyosatni baho va sifat bo'yicha raqobat uchun bir xil sharoit yaratish siyosati deyiladi. Ko'p hollarda ichki soliqlar bahosi bo'yicha import bojlarini miqdoridan yuqori bo'ladilar va bundan tashqari ularni stavkalari mahalliy bozorni konyunkturasiga karab o'zgarib turadi.[44]

Odatda mahalliy komponentlarni borligi talab etish usuli rivojlanayotgan davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Bundan maqsad import tovarlaridan voz kechish uchun importni o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish mahalliy quvvatini oshirishdir. Rivojlangan davlatlar tomonidan mahalliy komponentlarni borligini talab etish usullaridan foydalanishdan maqsad, ishlab chiqarishni arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan davlatlarga kuchib o'tishini oldini olish va shu orqali o'zlaridagi bandlik darajasini saqlab qolishdir[45].

Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda texnik to'siqlardan foydalanishini tartib va maqsadlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu usullar bizning fikrimizcha ko'proq rivojlangan davlatlarga xosdir. Chunki rivojlangan davlatlar (bu davlatlarni hammasi asosan savdo tashkilotiga a'zodir). Jahon savdo tashkilotini qoidalariga rioya qilgan holda, o'z iqtisodiyotlarini ravnaki to'g'risida fikr yuritishlari lozim.

Xulosa

Barcha mamlakatlar singari bizning respublikamizda ham Tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullari bilan bir qatorda notarif usullari ham qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda uxtin uxtin tarif usullariga nisbatan notarif usullarini qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi.

Nazorat savollari

1. Notarif usullarini turkumlanishi.
2. TIFni tartibga solishda notarif usullardan foydalanishni tarif usullaridan afzalligi nimada?
3. Mikdoriy chegaralash usullarini qanday turlari mavjud?
4. Kvotalash, turlari va ularni iqtisodiy samaralari nimada?
5. Import tarifi bilan import kvotasini samaralari o'rtasidagi farq nimada?
6. Litsenziyalashni qanday turlari mavjud va ularni bir-biridan farqi nimada?

[44] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

[45] А.Киреев «Международная экономика» 5 том.

7. Eksportni «ihtiyoriy» ravishda chegaralash nima?

8. Eksportni «ihtiyoriy» ravishda chegaralash usulini iqtisodiy samarasi nimada?

9. Moliyaviy usullar va ularni TIFni tartibga solishda foydalanishdan maqsad nima?

10. Ichki subsidiyalar nima maqsadda qo'llaniladilar?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин–Мировая экономика, изд., Учеб, -М.: ЮНИТИ, 2004.

2. Международные экономическая отношения,. Учебник,-М.: Инфра- М, 2004.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

VII BOB
XALQARO SAVDO SIYOSATINI TAKOMILLASHUVI VA DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGI

7. 1. Erkin savdo hududlari va bojxona ittifoqlari

Mamlakat o'rtasida xalqaro savdo munosabatlarini rivojlanishi, ular tomonidan har xil integratsion tuzilmalarni tashkil qilinishiga olib keldi. Keyingi un yilliklarda butun dunyo xo'jaligini qamrab olgan zamonaviy liberallashtirish jarayonlari o'zaro bog'liq ikki tendensiya bilan aniqlanadilar. Birinchidan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni proteksionistik to'siqlardan sekin asta xalos bo'lishi bo'lsa, ikkinchidan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni liberallashdir. Bu jarayon bir guruh davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik ittifoqlari yoki ochiq savdo zonalarini tashkil etish ko'rinishida amalga oshiriladi. Misol uchun AQSH, Kanada va Meksika davlatlari o'rtasida Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi tashkil etilgan. Xuddi shunday hududiy tashkilot ACEAH Osiyo Tinch okeani mintaqadagi davlatlar o'rtasida tashkil etilgan. Maistrix Kelishuvini va Yevropa iqtisodiy hududni tashkil etish bo'yicha shartnomani imzolanishi natijasida Yevropadagi bir guruh davlatlar yangi integrallashgan jamiyatga qadam qo'ydilar.

Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integrallashuv jarayonlarini tobora rivojlanib borishi ularni iqtisodiyotlarini rivojlanish darajasidagi tafovutlarni sekin asta kamayib borishiga olib keladi. Bunday tafovutlarni kamayib borishi esa bu davlatlar tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada erkinlashuviga, iqtisodiyotlarni ochiqlik darajasini oshishiga olib keladi[46].

Mamlakat hududida ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etishni yana bir sababi, mamlakat o'z iqtisodiyotini chet el kapitali uchun butunlay ochishdan manfaatdor emasligidadir. Ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etish dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etish bir tomondan davlat iqtisodiyotini butunlay xo'jaligiga integratsiyalashuvini tezlatsa, ikkinchi tomondan bu hududlarda ishlab sikarishni ba'zi bir turlarini rivojlantirish maqsadida imtiyozlar yaratishdir. Erkin iqtisodiy hududlarni tarixi 1510 yildan boshlanadi. Shu yili ispan konkistadori Vasko Nunyes de Balbao panama kirgogiga tushdi va ikki okeanning ajratib turuvchi bo'ynida o'z sheriklari bilan birgalikda «tijorat portiga» asos soldi. Xuddi shu yerda dunyo tajribasida birinchi marta bojxona ko'rigidan o'tkazish qo'llanildi.

Birinchidan, ular dunyo bozoriga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladilar;

[46] В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

Ikkinchidan, ularga mamlakatni boshqa hududlarida amalda bo'lgan soliq normalari va bojxona chegaralari taallukli emas;

Uchinchidan, ular ma'lum ma'noda «erkin» bo'lishlaridan kat'iy nazar, ularga tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish tegishli bo'ladi.

Yevropada shunday hududlardan birinchisi 50- yillarni oxirlarida Irlandiyada vujudga keldi, shundan keyin ular asosan rivojlanyotgan davlatlarda tarqala boshladilar, ular importni o'rnini bosishdan eksport ishlab chiqarishga o'tishni asosiy quroli sifatida qo'llay boshladilar.

Shunga o'xshash hududlarni 80- yillarni o'rtalariga kelib ommaviyligi osha boshladi. Bunga sabab iqtisodiyoti eksportga qaratilgan bir qator rivojlanayotgan davlatlarni yangi industrial davlatlar qatoriga kirishidir.

Ochiq iktisodiy hududlarni tashkiliy funksional tuzilishi rang barangdir. Ba'zida ularni sinflash juda qiyindir. Chunki bir turdagi ochiq iqtisodiy hudud o'zida bir necha turdagi ochiq iqtisodiy hududlarni xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shunga qaramay Rossiyalik mutaxasislar tomonidan ishlab chiqarilgan uslubiyatga asosan ochiq iqtisodiy xususiyatlarni xo'jalik ixtisoslashuvi belgilashga asosan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin

Ochiq itisodiy hududlarni birinchi guruhi savdo hududlari guruhi deb atalib, bu guruhga erkin bojxona, bond omborlari, erkin portlar, erkin savdo hududlari kabi ochiq iqtisodiy hududlar kiradi.

Ochiq iqtisodiy hududlarni eng sodda shakli — bu erkin bojxona hududlaridir. Bu turdagi ochiq iqtisodiy hududlar mohiyatiga, tashkil etilish tarixiga ko'ra ochiq iqtisodiy hududlarni birinchi avlodiga mansubdir. Ular 17-18 asrlardan byon mavjuddirlar. Bunday hududlarni tashkil etilishi davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni rivojlantirshga xizmat qilganlar. Buyuk Temur davlatda ham «Buyuki pakyo'lida» shunday hududlar tashkil etilgan[47].Bu guruhgakiruvchi «erkinbojxona hududlari eksportiga mo'ljallangan tovarlarni saqlash, ularga bir muncha ishlov berish, hamda tovarlarni sotuvga tayyorlash maqsadida tashkil etilganlar. Erkin portlar esa davlatlarni dengiz portlarida, bu yerga chet davlatlarni savdo kemalarini jalb etish, bu yerda ularga, kemalardagi tovarlarga bir muncha ishlov berish maqsadida tashkil etilganlar. Bu guruhga kiruvchi erkin savdo hududlari esa davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq jarayonlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotlarini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilganlar. Misol uchun MDH davlatlaridan untasi, ya'ni Rossiya, Uyeraina, Belorus respublikasi, Gruziya, Moldava, Ozarbayjo hamda Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida imzolangan

[47] В.Г.Свинухов — Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности. -М.: Экономист, 2004.

shartnomaga asosan erkin savdo hududi tashkil etilgan. Bu hudud shartnomani imzolagan davlatlar hududlaridan iboratdir. Shartnomaga asosan bu hududlarda ishlab chiqarilgan tovarlardan ularni import qilinayotgan bojxona bojlari undirilmaydi. Ochiq savdo hududlarini, ochiq iqtisodiy hududlarni birinchi avlodi deyilishiga sabab bu hududlarda davlatlararo savdo-sotiqni rivojlanishi bu hududlarda savdo-sotiqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarmoqlarni ishlab chiqarishni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ularni hududlaridan korxonalar bojxona bojlarini shuningdek tovarlarni iste'mol xususiyatlarini yaxshilanishi natijasida qo'shilgan qiymat solig'ini undirilmagan holda keng ravishda kurgazma faoliyati bilan shug'ullanishlari , savdo-sotiqni tashkil etishlari, bank va sug'urta xizmatlarini taklif etishlari mumkin[48].

7. 2. Xalqaro integratsiya tizimlari

Barcha savdo ombor hududlari asosan daryo va dengiz portlprida, temir yo'l uzellarida, aeroportlarda, ya'ni tovarlar va yo'lovchilarni tranziti joylarida. Ular hamma vaqt mamlakat iqtisodiy hududidan bojxona va davlat chegarasi orqali ajratilgandir. Erkin portlar – savdo ombor hududini turi sifatida aytib o'tilgan funksiyalardan tashqari ortish, tushirish, qaytadan ortish amallarini bajaradilar.

Hozirgi kunda dunyoda ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda eksport ishlab chiqarish zonalari keng tarqalgandir. Bunday zonalarni hozirgi zamonmodeli 1959 yil Irlandiyani Shenon aeroportida tashkil etilgan ochiq iqtisodiy zonadan boshlanadi. Bunday zonalarni tashkil qilishdan ayniqsa chngi industrial davlatlar ko'p samara ko'rdilar[49].

Eksport ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bilan bog'liqdir. Chunki 60- yillarni o'rtalarida bu davlatlarda eksportni Qo'llab quvvatlash, yangi ish joylarini tashkil etish msalalari paydo bo'ldi.

Texnika – tadbiq etish iqtisodiy hududlar ochiq iqtisodiy hududlarni uchinchi avlodiga mansub bo'lib, ular ko'pincha o'z-o'zidan yoki davlat tomonidan yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil etiladilar. Ularda milliy va xorijiy ilmiy tekshirish, loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chiqarish firmalari yigiladi va ularni hammasi yagona soliq va moliya imtiyozlari tizimidan foydalanadilar.

Bunday hududlarni tashkil etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini yangi zamonaviy texnologiyalar asosida yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tovarlarni dunyo

[48] .В. Фомичев «Международная торговля»,. Учебник, -М: Инфра-М, 2002.

[49] В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

bozorlaridagi raqobatdoshlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni rivojlanishi va unga xizmat qiluvchi ilmiy texnika markazlarini tashkil etilishi bu korxona va tashkilotlarga bank, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirishni taqazo qiladi. Shuning natijasida ochiq iqtisodiy hududlarni navbatdagi avlodi – servis hududlari tashkil etilgan. Servis hududlarga offshor zonalari va soliq gavnalari ularda yaratilgan moliya – valyuta fiskal rejimlari bo'yicha yaratilgan imtiyozlar bilan o'ziga tadbirkorni jalb etadi.

Offshor hududida ro'yxatdan o'tgan soliq va boshqa imtiyozlarga da'vogar firmalarga kuyiladigan talablardan biri, ularni offshor zona joylashgan davlatni rezidenti bo'lmasligi uni hududida foyda olmaslik. Solik gavanlarini offshor hududlaridan farqi shundaki uni hududidagi barcha firmalar birday barcha turdagi yoki ayrim turdagi faoliyatlari uchun soliq imtiyozlaridan foydalanadilar. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ziyod offshor markazlari mavjuddir. Ularning ichidan 70 ga yaqini soliq gavanlaridir. Anchadan beri offshor hududlar tashkil topgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Nomand orollari, Antil orollari, Gonkong, Liberiya, Irlandiya, Shvetsariya davlatlari kiradi.

Ochiq iqtisodiy hududlarni keyingi turi bu kompleks hududlaridir. Bu hududlar mamlakat hududida mavjud bo'lgan umumiy rejimdan farqli o'laroq o'ziga xos imtiyozli rejimlarga ega bo'lgan ma'muriy teritorial bo'linmalarga aytiladi. Bular qatoriga Xitoyda tashkil etilgan 5 ta maxsus iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus», Argentinadagi «Olovli yer», hamda rivojlangan davlatlar tomonidan depressiya hududlarida tashkil etilyotgan komples zonalari kiradi[50].

90- yillardan boshlab davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlanishi, ularni bir – biriga bog'liqlik darajasini oshishi, davlatlarda mavjud u yoki bu turdagi resurslardan unumli foydalanish maqsadida xalqaro iqtisodiy hududlar tashkil etila boshlandi. Hozirgi kunda Tumangan (Tumanszyan) xalqaro iqtisodiy hududni tashkil etish bo'yicha lyixa tayyorlangan. Bu ochiq iqtisodiy hududni Rossiya, Xitoy va Koreya xalq demokratik respublikalarini chegaralarini tutashgan joyida tashkil etish mo'ljallangan. Loyiha 20 yilga mo'ljallangan bo'lib, uni qiymati birinchi bosqichda 90-110 mlrd dollar miqdorida baholanayapti.

Bu ochiq iqtisodiy hududni tashkil etishda Yaponiya, Janubiy Koreya, Mongoliya, Xitoy, KXDR va Rossiya davlatlarini ishtiroki ko'zda tutilayapti. Ochiq iqtisodiy hududda loyihaga ko'ra katta port ko'p sondagi sanoat ishlab chiqarish korxonalarini ko'rish ko'zda tutilgan hududda tashkil etilajak ishlab

[50] Н. Фомичев «Международная торговля»,. Учебник, -М: Инфра-М, 2002.

chiqarish krg'orxonalarini Xitoy va Koreya ishchi kuchi Rossiya bu korxonalarga qayta ishlash uchun xom ashyo yetkazib berishlari ko'zda tutilgan.

Xulosa

Hozirgi kunda mamlakatlap o'rtasida xalqaro savdo munosabatlarini rivojlanishi, ular tomonidan har xil integratsion tuzilmalarni tashkil qilinishiga olib keldi. Keyingi o'n yilliklarda butun dunyo xo'jaligini qamrab olgan zamonaviy liberallashtirish jarayonlari o'zaro bog'liq ikki tendensiya bilan aniqlanadilar. Birinchidan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni proteksionistik to'siqlardan sekin asta xalos bo'lishi bo'lsa, ikkinchidan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni liberallashdir. Bu jarayon bir guruh davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik ittifoqlari yoki ochiq savdo zonalarini tashkil etish ko'rinishida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi nima?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari.
3. Ochiq iqtisodiy hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy rivojidagi o'rni.
4. Ochiq iqtisodiy hududlarni turkumlanishi.
5. Iqtisodiyeti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni o'rni nimada?
6. Rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashqil etilish tarixi.
7. Offshor hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri qanday?
8. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy hududlarni tashqil etilish tarixi qanday?
9. Ochiq iqtisodiy hududlar tashkil etish bo'yicha Xitoy tajribasi to'g'risida gapiring?
10. Ochiq iqtisodiy hudud tashkil etish bo'yicha Rossiya tajribasi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
2. Н. Фомичев «Международные экономическая отношения»,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004 год.
3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
4. Международные экономическая отношения. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.
6. В.Г.Свинухов – Таможенно-тарифное регулирования внешнеэкономическое деятельности, -М.: Экономист, 2004.

VIII BOB
MINTAQALARARO SAVDO IQTISODIY MUNOSABATLAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI IQTISODIY MUNOSABATLARNI SAMARADORLIGI

8. 1. Savdo iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirishda iqtisodiy integratsiyani ahamiyati

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiyaning turlarining mavjudligini yodda tutamiz va ularga asoslanamiz (I.A.Karimov, 1999). Iqtisodiy hamkorlikka intilayotgan dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turli darajada bo'lishi bunga asosdir. Shu urinda ta'kidlash kerakki, bu borada O'zbekiston ham ochiq iqtisodiyot tarafdori sifatida, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida muayyan siyosatga egadir. Uning asosiy mohiyati I.A. Karimovning quyidagi fikrlarini o'z aksini topgan, ya'ni «O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajada – dunyo miqyosida va mintaqa kulamida – integratsiya jarayonlarida, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoklashmaslikka amal qiladi». O'zbekiston YEI kabi uyushma bilan bevosita aloqalarni rivojlantirish orqali bir vaqtning o'zida a'zo mamlakatlarining 375 mln. kishilik yirik bozoriga keng yo'l ochilishi tabiiy va O'zbekiston bunday bozorga o'z mahsulotlari bilan kirishda birinchi navbatda manfaatdor bo'lishi kerak.

Yevropa ittifoqini va u orqali bizning mamlakatimiz uchun butun Garbni, yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbai, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlari ramzi sifatida ko'rish mumkin. Bularning barchasi hozirda ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror rivojlanayotgan va buyuk davlat bo'lish maqsadida yangilanish va taraqqiyotning o'zining strategik vazifasi qilib olgan mamlakatimiz uchun zarurdir.

Asosiy natija va xulosalar

Kelib chiqish tabiati, tarkibi amal qilishiga ko'ra Yevropa Ittifoqi boshqa xalqaro tashkilotlardan farq qiladi. Uning supranatsional institutlari huquqiy uzligi a'zo davlatlarnikidan farq qilgan holda siyosat yuritishga va qonunchilika qulay tarmoqni ta'minlaydi. Xamjamiyat, Yevropada juda katta iqtisodiy talofatni keltirgan va kit'ani ikki super hokimiyatlar tomonidan boshqarilgan bir-biriga qarshi bloklarning ustivorligi holatda qoldirgan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda shakllandi[51].

[51] А. Шакаров «Внешнеэкономическая дятельность и развития экономического потенциала Узбекистана» «Бозор, пул кредит» журнали 2004 йил 8 июл сони.

Yevropada yuz bergan va hozirda ham o'zining yangi kirralari bilan davom etayotgan integratsiya jarayonini tahlil qili shorkali quyidagi xulosalarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

1. Integratsion tajriba nafakat ikki va undan ortiq dalatlar o'rtasidagi bojxona tariflari, soliq imtiyozlari va huquqiy aktlarning uyg'unlashuvini, balki mamlakatlar orasida kapital, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlarning erkin oqib o'tishiga olib keluvchi kerak bo'lsa, ta'minlovchi o'zaro manfaatli mexanizmlarning amalga oshirilishini o'z ichiga oladi. a) ya'ni, bu bilan biz aytmoqchimizki, agar davlatlar o'zaro iqtisodiy munosabatlarni ikki tomonlama sado kelishuvi asosida rivojlantirsa, bu xali integratsiyani anglatmaydi. v) u biror bir davlat o'z hududining bir qismini aytaylik elektrik – energiya bilan ta'minlash maqsadida boshqa bir aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishda ixtisoslashgan mamlakatning energetika sohasiga o'z investitsiyalarni yo'naltirilgan va buning oqibatida yetarli ijobiy natijaga erishgan tarzdagina vujudga keladi.

2. Pirovard maqsaddga erishish yo'lida ishlab chiqarilgan qoidalar integratsion jarayon qatnashchilarining barchasi tomonidan birdek qabul qilinadi.

3. Har bir davlat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan iqtisodiy manfaatlariga erishish uchun bunday harakteriga hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va siyosiy sohada o'zaro qarama – qarshiliklarga barham berishga to'g'ri keladi.

4. Integratsiya ixtisoslashuvi o'zaro to'ldiruvchidik xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Integratsion jarayon tarkibida eng asosiy shu xususiyatlar kuzatilgan taqdirdagina iqtisodiyotlarning haqiqiy yaqinlashuvi haqida so'z yuritsa bo'ladi.

Integratsion jarayonni tahlil qilishda[52], barcha xususiyatlarni umumlashtirilgan holda, quyidagi (Sxema 1)ni keltirish mumkin. Unga ko'ra Yevropa integratsiyasi avval yuzaki integratsiyani amalga oshirish orqali keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishdi. Bu orqali turli xil iqtisodiy yendashuvga ega bo'lgan mamlakatlarning asosiy maqsadlari, savdodan, raqobatning xususiyatlari va keng qamrovli iqtisodiyotdan iloji boricha samarali foydalanish evaziga foyda ko'rish. Sxematik tarzda bu quyidagicha ko'rinishga ega.

8. 2. Yevropa ittifoqi doirasida integratsion jarayonlar tajribasi

Kuyidagi sxemadan shuni ko'rish mumkinki, dastlabki bosqichda o'zaro iqtisodiy munosabat ma'lum munosabat ma'lum mahsulot bozoriga asoslangan tarzda, ularni ochiq raqobat sharoitida ishlashini ta'minlash

[52] .И.И..Дюмелен –«Всемирная тарговая организация» . -М: Экономика, 2003.

maqsadida amalga oshiriladi. Bu yerda oddiydan murakkabga tomon harakat yuz beradi. Iqtisodiy munosabatlar kulami kengayib borgan sari davlatlar o'rtasida ruy beradigan ham moliyaviy ham iqtisodiy operatsiyalar salmog'i ham oshib boradi. Bu esa o'z navbatida iqtisod va moliya sohasidagi standart va tuzumlarni asta-sekin uyg'unlashib borishini taqozo etadi.

Yevropa davlatlarining iqtisodiy usishiga, hukumatlararo darajada ruy berayetgan integratsion jarayonlar juda jiddiy ta'sir kuchiga ega. Xujalik aloqalarining tobora rivojlanib, usib borishi va iqtisodiy subyektlarning ko'proq o'zaro bir-biriga bog'liqligi iqtisodiy hayotning asosiy sohalarida yagoni siyosatining olib borilishi zaruriyatini tugdirdi, qaysiki o'z navbatida xo'jalik hayotini tartibga solishning yagona mexanizmining yaratilishiga olib keladi.

Birinchi navbatda iqtisodiy integratsiyaning komsensiyasiga tarkibiy qism sifatiga qarash o'rinli. Iqtisodiy integratsiya hodisa yoki jarayonning holatini belgilaovchi ilgari alohida bo'lgan iqtisodiyotlarning yuksakrok tadbirlar borasidagi kombinatsiyani o'z ichga oladi. Unifikatsiya natijasidagi daraja va kulamdan kelib chiqqan holda integratsiyaning turlarini belgilash mumkin bo'ladi. Shu bois, to'liq iqtisodiy integratsiya bilan tarif va savdo borasidagi umumiy kelishuv va o'zining hamrox dunyoning qolgan qismiga nisbatan kamsitish elementi bilan harakterlangan regional integratsiya kabi institutlar o'rtasida farqni belgilash mumkin. Iqtisodiy integratsiyaga erishishning yo'llaridan biri bu, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin oqib o'tishini ta'minlash uchun to'siqlarni olib tashlash va masalalarni raqobat va bozor dastaklarining ihtiyoriga qoldirish. Shunday bo'lsa ham bu o'z tabiatiga ko'ra asosan salbiy jarayon bilan birga kuzatilishi mumkin.

Iqtisodiy integratsiyaning eng sodda ko'rinishi preferensial tarif kelishuvlari hollarida yuzaga keladi. Bu a'zo mamlakatlar bilan savdodagiga qaraganda pastroq bo'lishini tahmin qiladi[53].

Erkin savdo hududlarida, kelishuvga kirgan tomonlar o'zaro mahsulotlar bilan savdodagi himoyani butunlay olib tashlashga kelishadilar, lekin bir vaqtning o'zida chetdan kelayotgan mahsulotlarga nisbatan himoya darajasini aniqlashda mustaqillikka egadirlar. Bunga o'zining asl mohiyatiga ko'ra Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (YEESA) yorqin misol bo'la oladi. Erkin savdo hududlari o'z mohiyatiga ko'ra qisman bo'lishi, shu ko'rinishdaki, ya'ni faqat belgilangan iqtisodiy sektorlarni o'z ichiga olishi mumkin. YEKPX shu nuqtadagi hodisa edi, chunki u faqat ikkita sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi va erkin savdo hududlari kategoriyasiga, dastlabki paytda uchinchi mamlakatlardan importga qarshi umumiy himoya darajasi bo'lmaganligi

[53] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

uchun to‘g’ri keladi. Xuddi shuningdek YEESA ham qisman edi, chunki qishloq xo‘jaligi savdosi ko‘p jihatdan istisno qilingandi. Har holda shuni ta’kidlash kerakki, ichki savdoni erkinlashtirish shuningdek, kvota cheklanishlari va «notarif to‘siqlar» NT deb nom olgan boshqa bir qator himoya shakllarini ham olib tashlashni taqozo etadi.

Shu tariqa, 1958-yildan 1972-yilga qadar dastlabki YEX a’zo davlatlariaro savdo 15 foiz hisobida o‘sdi, a’zo bo‘lmagan davlatlar bilan esa 8,5 foizni tashkil etdi.[54] YEXni tuzishning savdosida effektlarini hisoblash yuzasidan qilingan harakatlar 1970 yilga qadar hamjamiyat ichra savdo 8-15 mlrd AQSH dollariga kengaygani ko‘rsatadi. Bu ishlab chiqarilgan maxulotlar bilan savdoning o‘rtacha 15-30 foizga oshganini aks ettiradi. Shuningdek, Robson (Robson, 1987) o‘z hisobida sanoat ishlab chiqarishdagi savdoni yaratish, savdoni qaytarishga nisbatan bir necha barobar ko‘p edi deb ta’kidlasa, bunga qarshi Balassa (Balassa, 1975) qishloq xo‘jaligidagi savdoni qaytarish 1,3 mlrd AQSH dollarini tashkil etganini ko‘rsatish mumkin. Shunday bo‘lsa ham umumiy hisobda a’zo bo‘lmagan davlatlar bilan savdoda, savdoni qaytarishdan ko‘ra tashqi savdoni yaratilishi, ijobiy ta’sirga ega bo‘lgan. 1980-yilga qadar savdoni yaratish effekti natijasida keng kulamli iqtisodiyotlardan kelgan foyda umumiy YAIMning 3-6 foizini tashkil etgan.[55]

1. Bojxona ittifoqi tuzish natijasida savdoni yaratishdan keladigan foydani, faqat bitta kamroq harajatli (hamkor davlat, Germaniya) dan emas balki, eng kam harajatli mahsulotni taklif etuvchi (bizning misolda AQSH) dan kelishi evaziga maksimallashtirish mumkin.

Bojxona ittifoqini tashkil etayotgan davlatlar umumiy tashqi tarifning maqbul darajasini o‘rnatishga alohida e’tiborni qaratishlari orqali savdoni qaytarishning oldini olishlari mumkin.

Savdoni yaratishdan keladigan foydani oshirishga erishish quyidagi sharoitlarning ta’minlanishini talab etadi:

1. A’zo davlatlar orasida tari bilan himoyalangan faoliyatlarida ekstensiv o‘xshashlik va bir-biriga bog’liqlik;

2. A’zo davlatlar o‘rtasida himoyalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish harajatlardagi keng farqlanish;

Shu urinda savdoni qaytarish effektlarini minimallashtirish uchun quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak:

1. Ittifoq a’zolari soni ko‘p bo‘lishi vash u tariqa savdosi qaytarilishi

[54] В.И. Фомичёв – «Международная торговля. -М: ИНФРА- М, 2001.
[55] . И.И..Дюмелен –«Всемирная тарговая организация» . -М: Экономика, 2003.

mumkin bo'lgan mamlakatlar sonining kam bo'lishi;

2. Dastlab ishlab chiqarishga nisbatan savdoning past darajada bo'lishi;

3. Kelajakda bojxona ittfoki doirasida hamkor bo'luvchi mamlakatlar o'rtasida savdoning ulushi yuqori bo'lishi. Boshkacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi hozirgi vaqtda iqtisodiyotlari raqobatdosh biroq salohiyat jihatdan bir-birini to'ldiruvchi mamlakatlar o'rtasida shakllanishi kerak.

Umumiy bozorni tashkil etish dasturi YEI doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakatini ta'minlash natijasida ittifoq YAMM 5 foizga usishini ko'zda tutgan edi. Haqiqatda esa, bu ko'rsatkich (1990 yil bozor narxlarida) 1992 yilda 1 foizni, 1993 yil – 0,6, 1994 yil – 2,8,, 1995 yil – 2,5 va 1996 yil – 1,5 foizni tashkil etdi.[56]

Xulosa

Mamlakatlar o'rtasidagi Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiyaning turlarining mavjudligini yedda tutamiz va ularga asoslanamiz. Iqtisodiy hamkorlikka intilayotgan dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turli darajada bo'lishi bunga asosdir. Shu urinda ta'kidlash kerakki, bu borada O'zbekiston ham ochiq iqtisodiyot tarafdori sifatida, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida muayyan siyosatga egadir.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy integratsiya va uning asosiy bosqichlari.
2. Yevropa iqtisodiy integratsiyasining tarixi.
3. Yevropa iqtisodiy integratsiyasining hozirgi kundagi pirovard natijalari.
4. Iqtisodiy integratsiyaning eng sodda ko'rinishi.
5. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy omillari.
6. MDH davlatlari o'rtasidagi integratsion jarayonlarni holati.
7. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya qachon boshlangan?
8. O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi.
9. Iqtisodiy integratsiyaning bosqichlari to'g'risida gapiring?
10. Yagona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?

[56] А. Шакаров «Внешнеэкономическая дятельность и развития экономического потенциала Узбекистана» 2004 йил 8 июл.

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учеб. -М.: ЮНИТИ, 2004.

2. Международные экономическая отношения,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

4. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

IX BOB
MILLIY IQTISODIYOT MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI

9. 1. TIFni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati

Tashqi iqtisodiy aloqa degani -bu bir mamlakat hududidagi yuridik va fizik shaxslari ikkinchi bir mamlakat xudidagi yuridik va fizik shaxslari bilan iqtisodiy aloqasi tashqi iqtisodiy faoliyat deyiladi.

TIFni abyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari hisoblansa subyekti bo'lib esa shu operatsiyalarni amalga oshirayotgan yuridik va fizik shaxlar hisoblanadi.

TIFni tashkil etuvchilari bo'lib xalqaro savdo, xalqaro mehnat taksimoti, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro kapital migratsiyasi hisoblanadi. Xalqaro savdo o'z navbatida ikkiga tashkil etuvchisidan iboratdir bo'lar eksport va import operatsiyalaridir.

TIFni tartibga solishni ikki xil usuli mavjud bo'lib bo'lar tarif va notarif usullardir. Yuqorida ko'rsatilgan barcha jarayonlarni nazorat qilish bir qator davlat organlari zimmasiga yuuklatilagn shu davlat organlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Kumitasidir.

1997-yil O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi uchun burilish yili bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida» 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815-sonli farmoni chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini huquqiy asoslari «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» «Davlat bojxona xizmati to'g'risida» 1997-yil 29-avgustdagi Uzbekistan Respublikasi Konuni va Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-iyuldagi 374 son qarori bilan tasdiqlangan Uzbekistan Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi[57].

Bojxona organlari o'z faoliyati davrida Uzbekistan Respublikasi Konstitutsiyasiga «davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Konunga, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi

Davlvt bojxona qo'mitasi O'zbekiston vakolatlari doirasida yagona bojxona siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini Davlat bojxona qo'mitasi organlari tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi[58].

---

[57] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисидаги Қонуни» нинг 2 моддаси

[58] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисидаги Қонуни» нинг 3 моддаси.

Bojxona organlari qonunchilikka muvofiq uzbekistan faoliyatini joylardagi davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

9. 2. TIFni tartibga solishda bojxona organlarini huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 374-son 30 -iyul 1997 yildagi qaroriga asosan Davlat bojxona Kumitasining asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

Respublikamizning iqtisodiy manfaatlarini himoyalashva belgilangan vakolatlar doirasida uning xafsizligini ta'minlash:

Respublikamizda bojxona siysatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish:

Bojxona qonunlariga rioya qilish ustidan nazorat o'tkazish:

Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga ko'maklashish:

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chikuvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarni ta'minlash:

Boj poshlinalari, soliqlar va boj to'lovlarini undirish:

Kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi ko'rash.

Maxsus bojxona statistikasini olib borish.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta'minlash va qonunlarda ko'rsatilgan boshqa vazifalar.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish orqali bojxona organlari davlat iqtisodyotini rivojlantirishga, xususan milliy ishlab chiqaruvchilarni, chet el raqobatchilaridan himoya qilish, aholini salomatligiga zarar keltiruvchi tovar moddiy boyliklarini kirib kelishini oldini olishga xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda bojxona organlarini vazifalarini proteksionistik va fiskal vazifalargi ajratish mumkin.

Bojxona organlari davlat iqtisodyotini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklaridan belgilangan miqdordagi bojxona to'lovlarini undirish orqali amalga oshiradi, xususan O'zbekiston respublikasi bojxona kodeksiga asosan O'zbekiston

Respublikasi bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklaridan 9 turdagi bojxona to'lovlari undiriladi[59].

Bojxona to'lovlarini birinchi turi bo'lib bu bojxona boji hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida» gi qonunni 2-moddasiga asosan boj tarifi deb O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsi plari vaqoidalarigaasosan undiriladigan boj stavkalarining tuplamigaaytiladi.

[59] Ўзбекистон Республикаси «Божхона Кодекси» нинг 9- моддаси

Xulosa

Talabalar ushbu mavzuni o'rganishi natijasida ular O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona organlarining asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish yo'llari, milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilishda boj tarif mixanizmi va uning ahamiyati, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda Respublikamiz hududiga kontrabanda mahsulotlari kirib kelishini oldini olish yo'llari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Nazorat savollari

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. TIF deganda nimani tushunasiz?
3. TIF ni tashkil etuvchilariga nimalar kiradi?
4. TIF obyekti deganda nimani tushunasiz?
5. TIF subyekti deganda nima tushunasiz?
6. TIF tartibga solishda bojxona organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat
7. TIF tartibga solishda «Boj tarifi to'g'risida» gi qonunni o'rni nimalardan iborat?
8. «Boj tarifi» nima va u qanday funksiyalarni bajaradi?
9. «Boj tarifi» ni proteksionistik funksiyasi nima?
10. «Boj tarifi» ni fiskal funksiyasi nima?

Asosiy adabiyotlar

1. А.Киреев – «Международная экономика». -М: изд. Международние отнашениея , 2002 год.

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

2. Международные экономическая отношения,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004 год.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

4. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред.

И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

X BOB
BOJXONA NAZORATI TUSHUNCHASI, UNING SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH TARTIBI

10. 1. Bojxona nazorati tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi Bojxona xizmati o'z faoliyatida ichki va tashqi siyosatni tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Bojxona xizmatini asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxonga hududidan samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayriboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat bo'lib, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarin undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan iborat.

Bojxona nazorati – qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidir. Bojxona rejimi – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari makomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuidir.

Bojxona nazorati obyekti- bojxona hududidan o'tayotgan tovarlar, transport vositalari, ular to'g'risida hujjat va malumotlar, tovar va transport vositalariga tegishli jismoniy va yuridik shaxslar, bojxona brokerlari, deklarantlar ularning hujjati va ular tovarlar va transport vositalariga nisbatan tanlagan bojxona rejimlari shulardan iborat.[60]

Bojxona nazrati asosan bojxona zonasida tashkil qilinadi. Bojxona zonasi Bojxona hududi atrofi va Bojxona organi tomonidan aniqlangan, bojxona organi joylashgan yerlarda, bojxona rasmiylashtirish joylari hisoblanadi.

Bojxona nazorati jarayonida- tovarlarning harakati, uning ishlab chiqarilishi jarayoni, saqlash, sotilishi, sotib olinishi, yuklanishi, tushirilishi, joylanishi, sug'urtasi, va boshqalar ko'rish mumkin. Bu tovarlarni qaysi davlatdan kelib chiqishini, bojxona qiymatini, va TIA TN asosida to'g'ri aniqlash bojxona nazorati asosiy funksiyalaridan hisoblanadi[61].

Bojxona nazorati:

- tashqi savdo sotiq opreatsiyalarini bajarishda sharoit yaratib berish;
- davlat bojxona chegarasidan o'tayotagan tovaralr va transport vositalarga nisbatan obyektiv qaror qabul qilish.
- kontrabanda va bojxona soliq qonunbuzarligiga qarshi, qurol aslaha,

[60] У.Т.Комилов ва бошкалар. «Божхона иши асослари» Тошкент «Адолат» 1998.
[61] Ўзбекистон Республикаси «Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида» ги Қонуни.

o‘q dori, portlash moddalari, narkotik moddalri, arxeologik qazilmalar, tarixiy madaniy buyumlarni noqonuniy yo‘l bilan o‘tishini olidini olish;

- bojxona va soliq to‘lovlarini to‘liq va o‘z vaqtida to‘latish;
- bojxona va maxsus statistikasini amalga oshirish;
- bojxona o‘z huquq doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar tovar nomenklaturasini qo‘llash kabi masalalrini hal qiladi.

Unumli bojxona nazoratiga erishish, tovarlarni va transport vositalirini qoniqarli rasmiylashtirish maxsuli desa bo‘ladi.[62]

Bojxona nazoratini tashkil qilish va bojxona rasmiylashtirish - bojxona organlari tomonidan davlat bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini o‘tkazishda amalga oshiradigan kompleks harakatlari tushuniladi.

· bojxona nazoratini va rasmiylashtirishni vaqtini va joyini belgilaydi - kirib kelgan tovarlar va tr. vos-lari bojxona nazoratiga olinadi va bojxona chegarasidan chiqib ketgandan so‘ng bojxona nazorati olinadi. Bojxona rasmiylashtirnvi - asosi deklarant tomonidan rejimlardan birini tanlagan holda bojxona organiga taqdim etishidir. Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organlari bilan kelishilgan holda ish vaqtidan xoli va boshqa yerda bajarish mumkin. (tashkilotlarida va qurilish obyektlarida)[63]

10. 2. Bojxona nazoratini tashkil qilish va bojxona rasmiylashtirishning asosiy yo‘nalishi

Bojxona chegaralarida avtotransport, temir yo‘l transporta o‘tish joylarida va tayyoragohlarda yuklarni va tr. vos-lari nazorat qilish, rasmiylashtirish, chegara qo‘shinlari, ichki ishlar boshqarmalari va boshqa organlar bilan texnologik sxemalarini ishlab chiqadi.

Bojxona nazoratini to‘g’ri tashkil qilgandagina va nazorat qilishda qatnashuvchi organlarining birgalikda harakat qilishlari nazoratini unumli blishini ta’minlaydi. Nazoratni tashkil qilishning asosiy masalalaridan bojxona va uning infrastrukturalarini tashqi iqtisodiy aloqalari qatnashchilari doimiy faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yerlarda va ularni bojxona chegarasidan qatnash yerlarida ham joylashtirish. Bojxona nazoratini birinchi navbatda bojxona va bojxona postlarini, maqsadi, prinsiplari, asosiy yo‘nalishi, bojxona organlarining va postlarning ichki hamjihatligini tashkil qilib berish kerak. Bojxona nazoratining tashkil qilishda bojxona brokerlari, bojxona va vaqtinchalik saqlash omborlari egalari bojxona operatsiyalarini amalga

[62] В.Г.Драганов «Основы таможенного дело» 4 боб.

[63] Ўзбекистон Республикасининг «Узбекситон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида» ги Қонуни. -Т.: 2000.

oshirishda bojxona xodimlari ishini yengillashtiradi. Regionda bojxona nazoratini tashkil qilishda quydagilarga amal qilish kerak:[64]

1. Bojxona organi tomonidan qilinadigan ishlar miqdori (TIA qatnashchilar soni, bojxona nazoratiga olinadigan tovarlar transport vositalari);

2. Bojxona nazoratini va bojxona rasmiylashtiruvi aniqlash, kerakli asbob uskanalar va anjomlar bilan ta'minlash.

3. Bojxona organing xizmatchilar shtatini belgilash.

4. Mutaxassilarni tanlash va ularni o'qitish;

5. Moddiy texnika bazasini tashkil qilish;

6. Bojxona organlari orasida uzviy aloqa o'rnatish;

7. Bojxona organlarining bojxona nazoratini tashkil qilishda hamma shart-sharoitalr yaratib berish.

Bojxona qonunchiligi bojxona nazoratining quydagi shakllarda o'tkazish belgilangan;

1. bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish - bu hujjatlar asosan uch guruhga bo'linadi;

· transport, tijoriy, bojxona va boshqalar;

· transport jujjatlar- yuk varaqalari, konosament, manifest, yo'l varaqasi;

· tijoriy hujjatlar- sharnomalar, bitimlar, invoyslar, faktura hisoblari, yuk varaqalari,

· bojxona hujjatlari - bojxona tomonidan beriladigan litsenziyalar, mutaxasislik atesstati, yetkazish varaqasi, bojxona qiymati bayonnomasi, bojxona qiymatini korrektivlash, BYUB, konteyner va transport vositalarini bojxona nazorati ostida yuk tashishga ruxsat guvohnomasi[65].

· boshqa hujjatlar - shaxslarni nizomi, TIA qatnashchisi sertifikati va varaqasi, boshqa organlarning ruxsati- veterenar, fitosanitariya va madaniyat ishlari boshqarma ruxsatnomalari.

2. jismoniy va mansabdor shaxslarni og'zaki so'rab - surishtirish ;

3. bojxona ko'rigidan o'tkazish - taqdim etilgan hujjatlar asosida tovar va transport vositalarini chegaradan o'tishini qonuniyligiga ishonch hosil qilib, bojxona hududiga man etilgan yuklarni kirishini oldini olish. Bojxona ko'rigi - tovar nomini, sonini, agar kerak bo'lsa sifatini aniqlash va transport vositalarini esa hujjatsiz yuklarni olib o'tishi mumkin bo'lgan sirli joylarini aniqlash. Bu ishlarda texnik vositalarini qo'llash kerak bo'ladi. Ko'riklarni

[64] В.Г.Драганов «Основы таможенного дело» 4 боб.

[65] «Внешнеторговая политика: выбор стратегия Узбекистана». J: Экономические обозрение №1(56), 2004.

quydagi turlarda o'tkazish mumkin:

· qiyoslash ko'rigi, yukni taqdim etilgan BYUB, kelib chiqqan sertifikati, va boshqa hujjatlar, tashqi qiyoslash asosida;

· yukni sonini aniqlash ko'rigi (joylarni xemmasini ochilib yoki qisman)

· tovaralarni ekspertiza yoki tekshirish uchun ma'lum qismini olib qo'rikdan o'tkazish;

· kontrabanda yuklarini berkitilgan sirli joylami aniqlashga qaratilagn ko'rik.

Doimiy ko'rikdan o'tkaziladigan yuklar quydagilar:

a) aksiz tovarlari;

b)boj to'loviga tushadigan tovarlar;

v)litsenziya, kvota to'siqlariga ega tovarlar;

g)TIA TN ning kodida gumon;

d)shaxslarga nisbatan informatsiya.

4. tovarlar va transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qiyoslash (muhr, rasmga olish, belgilash va boshqalar)

5. tovaralar va transport vositalarini hisobga olish - bu nazoratning qo'llanishining asosiy sababi bojxona organi zimmasiga TIA statistikani yuritish yuklatilgan.

6. bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovaralr va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hududlar, (vaqtincha, bojxona, erkin omborxonalarini, erkin zonalarni, va boshqalar) binolar va boshqa joylarni tekshirish.

Xulosa

Ushbu mavzuda talabalar bojxona nazorati, uning amalga oshirish shakllari, bojxona nazorati uchun talab qilinayotgan hujjatlarning guruhlanishi, bojxona nazorati va uning o'ziga xos xususiyatlari, bojxona nazorati hududi, bojxona nazorati o'tkazish uchun texnologik sxemani ishlab chiqish va uning ahamiyati, bojxona nazoratini va uning samaradorligini oshirish yo'llari, har – xil transport vositalari yordamida tashilayotgan tovarlar va transport vositalari va pasajirlarni bojxona nazoratidan o'tkazishni o'ziga xos tomonlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud

Nazorat savollari

1. Bojxona nazorati tushunchasi.
2. Bojxon a nazorati shakllari.
3. Bojxona nazoratining ahamiyati.
4. Yuridik va fizik shaxslarni bojxona nazoratidan o'tkazish.

5. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazish.
6. Og'zaki surokdan o'tkazish tartibi.
7. Qaysi holatlarda jismoniy shaxslar ogzaki so'rab surishtiriladi?
8. Qaysi holatlarda jismoniy shaxslar qayta tekshiriladi?
9. Kayta tekshirish natijasida aniqlangan qoida buzarlik holati bo'yicha bojxona xodimi qaysi ishlarni bajarishi lozim?
10. Jismoniy shaxslardan bojxona nazorati uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекситон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида» ги Қонуни, -Т.: 2000.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни, -Т.: 1997 йил 29 август.
4. Ўзбекистон Республикасининг Божхона Кодекси «Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси», -Т.: 1998.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Бож тарифи тўғрисида» ги Қонуни, -Т.: 1997.

XI-BOB
BOJXONA NAZORATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

11. 1. Bojxona nazoratini tanlab o'tkazish va muayyan shakllardan ozod qilish

Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda, qoida tariqasida, nazoratning qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan shakllarini qo'llaydilar, bu bojxona nazoratini tashkil qilishning prinsipidir.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilinishini bildirmaydi. Masalan Respublikada bojxona imtiyoziga ega bo'lgan Chet el diplomatlari va vakolatxonalari yoki ularga tenglashtirilgan chet davlat vakillari agar ish yuzasida davlat bojxona chegarasidan o'tsa, Vena konvensiyasi asosida hamma bojxona ko'rigidan ozod qilinadi jumladan shaxsiy qo'rikdan ham. Bu holda bojxona nazoratining faqat hujjatlarni tekshirish shakli qo'llaniladi.

Zarurat bo'lganda bojxona organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona nazoratining Kodeksda belgilangan barcha shakllardan foydalanish mumkin.[66]

Bojxona nazoratini o'tkazish bojxona chegarasidan o'tayotgan tovarlarni harakteri, qiymati tanlangan bojxona rejimidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Masalan, erkin muomalaga chiqarish, reimport va bojxona ombori rejimida Respublika bojxona hududiga kiritilgan tovarlarning bojxona ramiylashtiruvini amalga oshirayotgan bojxona xizmatchisi kamida 50% ni qo'rikdan o'tkazishi lozim bo'ladi sharoitlar:

- tovarni kodi yoki uni nomi va qilib chiqqan davlatning nomlari hujjatlarda turlicha tariflangan bo'lsa;
- bir tovar transportida turli tovarlarning yuklanishi va ichida yuqori foizli tovarlarni aniqlash.

Agar tovarlarga bojga va soliqka tortilmagan bo'lsa bojxona nazoratining qiyoslash usulin qo'llanishi mumkin.

Bojxona nazoratini u yoki bu shakllarini qo'llash bojxona mas'ul xodimi o'z xohishiga binoan o'tkazishi mumkin.

Bojxona organlari bojxona nazoratini tashkil qilishda respublikada man etilagan buyumlarni kirib kelishiga qarshi qaratilgan bo'lsa bunaka nazorat yuklarni 100% qo'rikdan o'tkazishi kerak bo'ladi. Bunaka nazoratlarni asosan vaqti vaqti bilan havo transportlarini, yo'lovchilari, ularning bagaji va qo'l

[66] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни, Тошкент, 1997 йил 29 август.

yukilari bilan o'tkazib turilishi kerak. Hamma havo transportlarini va yo'lovchilarni 100% qo'rikdan o'tkazish jismoniy mumkin emas, shuning uchun asosiy kurig reyslarni kayerdan kelishi ularning yo'lovchilari olib kelayotgan tovarlarni harakteri, va boshqalar sabab bo'ladi. Bojxona nazorati prinsipi asosida tanlangan shakl o'zining inson huquqiga va salo-matligia putur yetmasligi kerak. Shuning uchun shaxsni kuzdan kechirish bojxona ko'rigining oxrigi shakli hisoblanadi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi oliy majlis deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda O'zbekiston respublikasi bojxona chegarasidan o'tayotgan bo'lsalar. Bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi[67].

Bojxona organi tomonidan bojxona chegarasidan o'tayotgan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan Chet davlatlarning diplomatlari, konsullari, savdo, va xalqaro tashkilot vakillari rasmiylashtiruvi vaqtida anglashilmovchiliklar ko'proq uchraydi, notogru qarorlar qabul qilinishi natijasida har xil muammolarni kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun avvalom bor Bojxona xizmatchisi Xalqaro huquqiy normativ hujjatlar bilan tanishgan bo'lishi va ular asosida bojxona rasmiylashtiruvi ishlarini bilishi kerak.

11. 2. Shaxslarning ayrim toifalari uchun bojxona imtiyozlari

Chet davlatlarning O'zbekiston respublikasi hududidagi diplomatiya vakolatxonalari bojxona chegarasidan olib o'tishning beligilangan tartibga rioya etgan taqdirda vakolatxonalar va muassasalarning rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni bojxona ko'rigidan va to'lovlaridan ozod etiladi[68].

Diplomatiyavakolatxonasining diplomatiyaagentlari, Chet davlatlarining konsullik muassasalariga va ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek ularning oila a'zolariga (diplomatiya jamoasining boshligi va a'zolari, ma'muriy - texnik xodilari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan oila a'zolari o'zlarining shaxsiy foydalanishiga mo'ljallangan tovarlarini, shu jumladan ruzgorni bir qadar butlab olishga kerakli tovarlarni bojxona chegarasidan bojxona

[67] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни. Тошкент, 1997 йил 29 август.

[68] А.Киреев «Международная экономика», Москва, «Экономист». 2002 йил. 4 боб.

to‘lovlaridan ozod etilgan holda olib o‘tish belgilangan tartibiga rioya qilib O‘zbekiston respublikasiga olib kiriladi.

Ko‘rsatilgan shaxslarning shaxsiy yuki unda shaxsiy foydalanish uchun mo‘ljallanmagan tovarlar yoki olib kirish va olib chiqish qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarda takkilangan yoxud karantin va boshqa maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar bor deb tahmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo‘lagn taqdirda bojxona ko‘rigidan ozod qilinmaydi. Bunday tekshiruv faqat diplomatiya agenti yoki uning vakolatli vakili ishtirokida o‘tkaziladi.Chet davlat diplomatiyavakolatxonasining ma’muriy- texnikva xizmat ko‘rsatuvchi xodimlariga diplomatiya agentlariga beriladigan imtiyozlari har bir chet davlat bilan tuzilagn maxsus bitim asosida va ular bilan munosabatlardagi hamjihatlik prinsipidan kelib chiqib tatbik etilishi mumkin[69]. Diplomatiya va konsullik pochta koplaridan iborat yuk donalari yakkol ko‘zga tashlanadigan tashqi belgilarga ega bo‘lib, ushbu donalarining xususiyati aks ettirmogi lozim, ya’ni faqat rasmiy xat xabarlar va rasmiy foydalanish uchun mo‘ljallangan hujjatlar yoki tovralar bo‘lishi mumkin. Diplomatiyavakonsullik pochtakoplari ochilishi ham, ushlab turilishi ham mumkin emas, pochta kopida man etilgan narsalarni mavjudligiga jiddiy asoslar bo‘lgan taqdirda bojxona organining chet davlat vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi vakilidan pochta kopini ochishni talab qilishga xakli.[70]

Chet davlatlarining diplomatiyavakonsullikkuryerlari o‘zlarining shaxsiy foydalanishlari uchun mo‘ljallangan tovarlarni o‘zaro kelishuv asosida bojxona ko‘rigidan o‘tkazishdan va boj to‘lovlaridan ozod qilishni amalga oshirishi mumkin.Bojxonahududi orqali tranzit bo‘lib o‘tadigan diplomatiya Zgentalri, konsullik mansabdor shaxslar, chet davlat vakillari va delegatsiya va ularning oila a’zolariga beriladigan imtiyozar O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan Chet d^rlatlar diplomatiyavakonsullikmuassasi agentlariga berilgan imtiyozlarga tengdir.

Xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar bojxona nazoratini amalga oshirishni o‘ziga xos xususiyati to‘g’risida, bojxona nazoratining o‘tkazish tartibi to‘g’risida, chet El fuqarolarining bojxona nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g’risida, bojxona nazoratini zonalar bo‘yicha o‘tkazish tartibi to‘g’risida, bojxona nazoratida texnika vositalarini o‘rni to‘g’risida, Respublikamizga kelgan chet El delegatsiyalarini bojxona nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g’risida, tabiiy ofatlar natijasida ko‘rilgan zararni qoplash

[70] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни, -Т.:1997 йил 29 август.

va insonparvarlik yuklarini bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi to'g'risida va respublikamizga «Vaqtincha olib kirish» rejimiga joylashtirilayotgan yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

Nazorat savollari

1. Bojxona nazoratining o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari?
2. Bojxona nazoratini o'tkazish tartibi.
3. Chet fuqarolarini bojxona nazoratidan o'tkazish.
4. Bojxona nazoratini zonalar bo'yicha amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
5. Bojxona nazoratida texnik vositalarni o'rni qanday?
6. Bojxona nazoratida «Metallodetektor» larni tutgan o'rni.
7. Bojxona nazoratidan chet el delegatsiyalari xodimlarini o'tkazish tartibi qanday?
8. Gumanitar yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazishni o'ziga xususiyatlari qanday.
9. Bojxona nazoratini o'tkazish shakillari to'g'risida gapiring?
10. Bojxona nazoratida bojxona bayonnomasini tutgan o'rni to'g'risida ganiring?

Asosiy adabiyotlar

1. Драганов В.Г. «Основы таможенного дело». -М.: Экзамен 1998.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекситон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида» ги Қонуни. —Т.: 2000.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни, -Т.: 1997.
4. Ўзбекистон Республикасининг Божхона Кодекси «Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси». -Т.: 1998.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Бож тарифи тўғрисида» ги Қонуни. -Т.: 1997.

XII BOB
TURLI TRANSPORT VOSITALARI VA ULARDA TASHILADIGAN YUKLAR USTIDAN BOJXONA NAZORATI

12. 1. Suv transportida bojxona nazorati

Bojxona qonuniga binoan bojxona nazorati O'zbekiston bojxona chegarasiga kirib kelishi bilan boshlanadi. Shunday qilib milliy yoki xorijiy kema mamlakatning suv hududiga kirib kelishi bilan bojxona nazoratiga olinadi. Shuning bilan birga kemadagi ekipaj, passajir va yuklar ham bojxona nazoratida bo'lib bojxona organi tomonidan rasmiylashtiruv ishlari tugagandan so'ng bojxona nazorati olinadi. Tovar va transport vositalarini Bojxona chegarasidan chiqib ketishda Bojxona xizmatchisi rasmiylashtiruv ishlarini tugatib chiqib ketayotgan shaxsga topshirgan vaqtdan boshlanadi. Bojxona postlari o'z xizmat vazifalarini port kapitanlari va boshliklari, chegara qo'shinlari, IIV organlari, fitosanitariya. veterenar, ekologiya, xizmati va madaniy yedgorliklarni nazorat kiluvi boshqarmalar biln hamjihatlikda bajarishi mumkin. Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayoni yuqorida ko'rsatilgan xizmatlar bilan birgalikda TEXNOLOGIK SXEMA asosida o'tadi. Texnologik sxemalar[71]:

- savdo, passajir, balik tutuvchi, balikni qayta ishlovchi milliy va xorijiy kemalarni kirishi va ketishini nazorat qilish ;
- eksport va import yuklarini nazorat qilishni va omborda saqlash;
- jismoniy shaxslarni va ularni yuklarini nazorat qilish masalalari yuzasidan ishlab chiqqan bo'lishi kerak.

Portlarda bojxona nazoratini va rasmiylashtiru ishlarini tashkil qilish bilan bojxona posti shug'ullanadi. Bojxona nazoratini chet elga chikuvchi hamma kemalar ustidan olib boriladi, harbiy kemalar bundan mustasno. Kemalarni rasmiylashtiruvi kushma kommisiya (yuqorida ko'rsatilgan xizmat va nozortchilar) tomonidan o'tkaziladi. Xalqaro marshrut bilan qatnaydigan passajir kemalar belgilangan vaqtda nazoratdan kechiriladi, qolgan kemalarni port boshligi kelish, ketish va turish vaqtlari to'g'risida bojxona va boshqa organlarni bir oylik plan ichida avvaldan xabar berishi lozim. Maslan kemalarni portga kirishi va portdan chiqishi quydagicha amalga oshadi milliy va xorijiy kemalar kapitani portga kirishdan 48 soat oldin birinchi va ikkinchisini 24 soat oldin xabar beradi.

Bojxona organi tomonidan portlarda xizmatni tashkil kilshda kirish va chiqishni nazorat qilish rejimi o'rnatilishi kerak bo'ladi. Har bir yuk port

[71] Узбекистон Республикаси Божхона Кодекси, Тошкент, «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси», 1998.

territoriyasiga tovar tmasport nakladnoyi yoki yuklash orderi asosida kiritiladi. Kabul qilinmagan yuklar mas'ul xodim asoslangan sababga ko'ra port territoriya sidan chiqib ketishi kerak. Port territoriyasiga kirayetgan o't o'chiruvchi avtotransportlar, sanitarlar transporta bemalol kirib kelishi mumkin lekin kirishda hamma qatori bojxona ko'rigidan va nazoritdan o'tkaziladi. Port territoriyasiga temir yo'l vagonlari kirishda va chiqishda bojxona nazoratidan o'tadi.[72]

Bojxona nazoratini amalga oshirayetgan Bojxona organlari chet elga qatnay digan kemalarni quydagi yo'l bilan nazorat qilishadi:

- kema hujjatlarini tykshirish;
- kemadaga yuklangan tovrga tegishli hujjatlarni tekshirish;
- kemaning turar va texnik xonalarini tovarlarni bagajlarni yo'lovchilvrning kulidagi yuklarni qo'rikdan o'tkazish;
- ekipajgategishli shaxsiy buyumlarni tekshirish;
- mamlakat hududiga va hududidan man etilgan bumlarni kirishini va chiqishini oldini olish sifatida kemanining pinxona joylarini qo'rikdan o'tkazish.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun kapitan tomonidan quydagi hujjatlar taqdim etiladi;

- Bosh bayonnoma (Generalnaya deklaratsiya) - asosiy hujjat bo'lib, unda kemaning nomi, qaysi mamlakatga tegishli, ro'yxatdan o'tganligi, og'irligi, kapitan ismi, familiyasi, portdagi agentning familiyasi va adresi, tovarlarning qisqacha tarifi, yo'lovchilar soni, kikacha reys haqida ma'lumot, portdan ketish va portga borish vaqti ko'rsatilan;
- Yuk bayonnomasi - asosiy hujjat kemaning nomi va qaysi mamlakatga tegishli, kapitan familiyasi, yuklarni soni, tovarlarni nomi, konosametlar nomeri, tovarlarni yuklangan port nomi, yuklarni tushirish porti nomi.
- Kema tovar zahirasi bayonnomasi - bu hujjat kemadagi oziq ovqatlar zahirasi, yo'lovchi vaekipaj uchun sotiladigan tovarlar nomi, yekilgi moy, suv, kema uchun moddiy texnika va alohida tamaki va spirt ichimliklari ekmpaj uchun yetarli miqdorda bo'lishi kerak.
- Kema ro'yxati - ekipaj ro'yxati har bir ekipaj a'zosi to'g'risida ma'lumot tugilgan yili, joyi, millati jujjatlarini rakami, hujjatni kapitan yoki unining o'rinbosari qo'l kuyishi mumkin.
- Yo'lovchilar ro'yxati - asosiy hujjat, kemadagi yo'lovchilar ro'yxati, nomi familiyasi, millati, tugilgan yili, joyi, qaysi portdan kemaga utirdi qaysi portda qolishi.

[72] Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодекси.

· Kurollar ro'yxati - asosiy hujjat qurollar soni, zavod nomeri, qurol egasi nomi.Kemalarni portlardato'xtash vaqtidakemadan ekipajni kemadan tashqariga chiqarmasligi ni kapitan ta'minlashi lozim.

· Narkotik moddali dori darmonlar ro'yxati - Kema ichidagi shunday dori darmonlar ro'yxati kema kapitani tomonidan saqlanadi.

· Valyuta ma'lumotnomasi - Kema kassasida milliy va xorijiy valyuta miqdori.

· Konasament- bojxona hujjatlarining asosiylaridan hisoblanib kemaga qabul qilingan yuklar to'g'risida ma'lumot tuplangan bo'ladi. Konasament yuk tashuvchi bilan yukni oluvchi o'rtasida huquqni belgilovchi hujjat hisoblanadi.

· Yuk manifesti - konosamentalar ro'yxati.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni hammasi kema kapitani, yoki o'rinbosari tomonidan imzolanib, kema muxiri qo'yilgan bo'lsa u yuridik kuchga ega deb hisoblanadi.

Kema ekipaji yoki yo'lovchilarni bagaji kemaning o'zida yoki alohida ajratilgan joyda bojxona ko'rigini o'tkazish mumkin. Kemani qo'rikdan o'tkazish vaqtida bojxona xizmatchilari tomonidan boj olish, yuklarni tushirishni nazoratga olish va boshqa nazorat ishlarini olib borishadi. Yuqoridagi hujjatlarni ko'rib chiqib natijasinii Bosh bayonnomada Bojxona guruhi ro'yxati ekipajni kamchiliklari bo'lsa bu to'g'risia ham ma'lumot beriladi. Nazorat va kurig natijasi to'g'risida guruh boshligiga raport beriladi.

12. 2. Temir yo'l transportida bojxona nazorati

Temir yo'l transportida yo'lovchi va yuk tashishini bojxona nazoratini chegara va ichki bojxona organlari quydagi yerlarda amalga oshiradi[73]:

· chegara t-yul stansiyasida;

· chegarani o'zida joylashgan nazorat postlarida;

· Davlat chegarasidan chegara t-yul stansiyasiga yurishda;

Ichki bojxona postlari maxsus ajratilgan t-yul stansiyalarining tovar xovlilarida bojxona nazoratini amalga oshirishadi.

Jismoniy shaxslarni bojxona rasmiylashtiruvi quydagi joylarda amalga oshiriladi;

· yo'lovchi poyezdining vagonlarida;

· chegarada joylashgan t- yo'l vokzallarida.

Bojxona nazorati texnologiya kompleksida bir qator t-yul xizmati qatnashadi:

Mamlakatdan chiqishda;

[73] Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

· bojxona nazorati yo‘nalishi, pochta, telegraf, telefon va bank bo‘limlari;

· t-yul transportiga xizmat ko‘rsatish korxaonasi bagaji va yuklarni bojxona rasmiylashtiruvi yo‘nalishi;

· chegara nazorat qilish yo‘nalishi;

· jismoniy shaxsda qurol yarokni nazorat qilish yo‘nalishi - xavfsizlik yo‘nalishi.

Bojxona nazoratining yo‘lovchilar bagaji va qo‘l yukining qo‘rikdan o‘tkazilayotgan vaqtda jonivorlar yoki o‘simliklar bo‘lsa veterenar va fitosanitariya xizmati xodimlarini taklif qilinadi.

Mamlakatga kirishda;

· chegara nazorat qilish yo‘nalishi;

· yuklarni va bagajlarni olish yo‘nalishi;

· jonivor va o‘simliklarni nazorat qilish yo‘nalishi.

Bojxona nazoratini amalga oshirishda chegarada ramiylashtiruv texnologik sxemasini ishlab chiqishda bojxona organi, chegara qo‘shini, fitosanitarlar, veterenarlar va boshqalar chegara t-yul stansiya boshligi boshchiligida va unga buysinadigan yuk bo‘limi boshliklari, passajirlar bo‘limi, navbatchilar bo‘limi boshliklari ishtirok etadilar. Har bir t - yo‘l stansiyalarda chegara t-yo‘l stansiyasi boshligi bojxona organi va chegara qo‘shini boshligi bilan birgalikda bojxona va chegara nazoratini amalga oshirishi uchun territoriya, yo‘llarni, maydonchalarni va xonalarni ajratiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan joylarda bojxona va chegara nazoratini sifatli o‘tishini ta’minlash uchun bu yerlarga kirishi man etilgan shaxslarni, kotrabanda tovarlarini va transport vositasining chegaradan noqonuniy o‘tishini oldini olish uchun bojxona va chegara qo‘shinlaridan qo‘shimcha nazorat rejimini o‘rnatishi mumkin. Xalqaro reysga katnovchi poyezdlar kurig maydonchasida qolib ketishiga yo‘l kuymaslik kerak. Kuzatuvchi va kutib oluvchilarni bojxona va pasport nazorati zallariga kuymaslikni va passajirlarni poyezdan tushirish va chiqarish, pochta, bagaj, va boshqa bumlarni yuklash va tushirish faqat bojxona organi va chegara qo‘shinlari ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bojxona zonasiga t-yul stansiyasi xizmatchilari va boshqa organlar xodimlari bojxona organi tomonidan berilgan ruxsatnomalar asosida kirib chiqilishi mumkin[74].

Yuk tashuvchi poyezdlarni nazoratdan uikazishda vagonlarni, konteynerlarni, plombasini t-yul vakili bilan birgalikd ochib qo‘rikdan o‘tkazib, ochilganligi to‘g’risida akt tuzilib kommisiyada ishtirok etilgan vakillar tomonidan imzolanadi. Chegara t-yul nazorat postida

[74] Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

rasmiylashtirilagan, passajir va yuk tashuvchi t-yul transportlarini maxsus kitoblarda ro'yxat qilib boriladi.

12. 3. Xalqaro aeroportda bojxona nazorati

Xalqaro havo transportida bojxona nazorati xalqaro tayyoragoxda o'tkaziladi jumladan:

- tovarlarni xalqaro yo'lovchilar yo'nalishidagi bojxona nazorati;
- tovralarni xalqaro yuk tashish yo'nalishidagi bojxona nazorati;
- havo transportini nazorat qilish yo'nalishi;
- tayyoragox hududini nazorat qilish yo'nalishi.

Tayyoragohda yo'lovchilarni yuklarni va kulidagi yuklarni bojxona rasmiylashtiruvi alohida ajratilgan zallarda o'tkaziladi. Uchish zalida bojxona xizmati aviakompaniyalar chiptalarni ro'yxatdan o'tkazish stollaridan oldinda joylashadi, shuning uchun yo'lovchi avval bojxona nazoratidan o'tib keyin chiptani, bagajlarini va qo'l yukini ro'yxatdan o'tkaziladi, pasport nazoratiga o'tiladi va oxrigi etapda maxsus nazorat yo'lovchining bagajida qo'l yukida o'zida qurol aslaha yoki portlovchi moddalarni yo'qligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Qo'nish zallarida bojxona nazorati eng oxrigi etapda o'tkaziladi. Uchib kelgan yo'lovchilar pasport nazorati o'tkazilgandan so'ng bagajlarini olib bojxona nazorati sari yo'l olishadi.

Tovarlarni bojxona ramiylashtiruvi boshqa transportlarda rasmiylashtiruv laridan farq qilmaydi.

Noqonuniy yuklarni bojxona hududiga va bojxona hududidan olib chiqishini oldini olish maqsadida bojxona nazoratidan tashqari boshqa nazorat organlari bilan birgalikda havo kemalarini tekshirish amalga oshiriladi.

Chet el havo kemalarini qo'rikdan o'tkazish uchun xalqaro normativ hujjatlar asosan yetarli va jiddiy asos bo'lishi shart.

Tayyoragoh territoriyasining hammasi va yo'lovchilar zallari bojxona hududi hisoblanadi. Bojxona qonunchiligi havo transportini kurig vaqti belgilanmagan faqat uchish jadvalidan kelib chiqqan holda va tovar va transport vositalarini bojxona hududidan o'tish to'g'risidagi qonunga asosan rasmiy lashtiruvi amalga oshiriladi. Havo transporti bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi obyekti hisoblanadi (ekspluatatsiya uchun yonilg'i ehtiyot kiyem, asbob uskuna, va moddiy texnika taminoti.)

Havo transporti 1944 yil Chikago konvensiyasi asosida xalqaro hujjat Bosh bayonnoma (Generalnoy deklaratsii):

· uchish marshruti xalqaro hisoblansa;

· bojxona organiga berilgan havo transportining aniqlangan xalqaro uchish marshrutining o'zgartirmasligi to'g'risidagi xati bo'lsa;

Uchish vazifalari normal holda bo'lishi uchun yonilg'i ehtiyot kiyem, asbob uskuna, va moddiy texnika taminoti bosh bayonnomada ko'rsatilishi kerak.

Xulosa

Talabalar ushbu mavzuni o'qishlari natijasida bojxona nazoratini o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida, turli xil transport vositalari yordamida tashilayotgan tovar moddiy boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish,masalan, temir yo'l transporti yordamida tashilayotgan tovar moddiy boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi va uni o'ziga xos tomonlari, avtomobil transporti yordamida tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari, havo tranporti yordamida tashilayotgan tovar moddiy boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi va su transporti yordamida tashilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini bojxona nazoratini o'ziga xos xususiyatlari tagrisida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Nazorat savollari

1. Suv transport vositasini bojxona nazoratidan o'tkazish.
2. Temir yo'l transportini bojxona nazoratidan o'tkazish.
3. Avtomobil tarnsportini bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi.
4. Suv transportida pasajirlar tashish va uni nazorat qilish.
5. Suv transporti orqali «Xavfli» yuklarni tashish va tashish ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish.
6. Suv transporti orqali xalqaro junatmalarni tashishda bojxona nazorati o'rnatish.
7. Havo transportida pasajirlar tashish va uning ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish.
8. Havo transporti orqali tashilayotgan yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish.
9. Temir yo'l orqali tashilayotgan yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi.
10. Avtomobil transporti orqali pasajirlar tashish ustidan bojxona nazoratini o'rnatish.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодекси Тошкент «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси», 1998.

2. У.Т.Комилов «Божхона иши асослари» Тошкент «Адолат» 1998.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

XIII BOB
BOJXONA RASMIYLASHTIRUVI VA UNING TARTIBI

13. 1. Bojxona rasmiylashtiruvining jahon amaliyoti

Bojxona rasmiyatchiliklari va tartiblari tovar mamlakat chegarasini kesib o'tgan paytdan boshlanadi.

Xalqaro qoidalar bojxona deklaratsiyasi taqdim etilgunga qadar amal qiluvchi bojxona rasmiyatchiliklari eng kam bo'lishini va barcha mamlakatlarning tovarlari va transport vositalariga nisbatan bir xilda qo'llanilishini, tashqi savdo uchun to'siq yaratmasligini talab etadi. Kirish bojxonasi tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi kerak bo'lgan joydan boshqa joyda joylashgan hollarda bojxona ma'murlari faqat chegarani kesib o'tishda transport vositalari va yuklarni birxillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni – transport va tovarga ilova qilingan hujjatlarni talab qilishga haqlidirlar. Bunda, odatda, bojxona ma'murlariga yuk o'rinlari soni, uning maskirovkasi, og'irligi va nomi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan hujjatlar, shuningdek transport vositalarini birxillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlari kifoyadir.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida bojxona rasmiylashtiruvi ham chegara bojxona muassasalari, ham mamlakatning bojxona hududi ichida joylashgan bojxona muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Eksport va imoprt yuklarini o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi bojxonalar ro'yxati muntazam ravishda e'lon qilinadi. Ko'pchilik mamlakatlarda tovarlarning ayrim o'ziga xos toifalarini (olmos va brilliantlar, san'at buyumlari va osori atiqalar va ayrim boshqa buyumlar) bojxona nazoratidan malakali xodimlarga ega bo'lgan, buning uchun maxsus mo'ljallangan bojxona muassasalari tomonidan o'tkazishni nazarda tutuvchi tartib amal qiladi[75].

Yuklarni deklaratsiyalash (bojxona deklaratsiyasini taqdim etish) – bojxona rasmiylashtiruvining majburiy tartibidir. Ko'pchilik davlatlarda deklarant (bojxona deklaratsiyasini to'ldiruvchi va beruvchi shaxs) nafaqat yuk egasi, balki uning nomidan yukni tasarruf qiluvchi, tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan va rasmiylashtiruvidan o'tkazish uchun bojxona organiga taqdim qiluvchi boshqa shaxs (transport agenti, bojxona brokeri va boshqalar) bo'lishi mumkinligini nazarda tutuvchi tartibga amal qiladi. Odatda, bunday shaxslar doirasi milliy qonun hujjatlari bilan

[75] Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил. 37 бет

belgilanadi va ancha keng bo'lishi mumkin. Deklarant barcha hollarda bojxona deklaratsiyasida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ishonchliligi va boj hamda boshqa yig'imlar to'lanishi uchun bojxona ma'murlari oldida javob beruvchi shaxs hisoblanadi. Deklarant tovarlarga deklaratsiya taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelgan hollarda «bojxona ma'murlari unga o'zlaridagi mavjud istalgan zarur axborotni taqdim etishlari hamda bojxona deklaratsiyasi to'ldirilishida deklarantga ko'maklashishlari kerak» (Kioto Konvensiyasi, V. 1 - ilova). Bojxona xizmatlarining ushbu turi ayrim mamlakatlarda pulli tusga ega bo'lishi mumkin. Yuk deklaratsiyasining rasmiy ish qog'ozlari ham sotilishi mumkin.

Deklaratsiya tekshirilgandan va qabul qilingandan keyin **yuklar bojxona tekshiruvidan o'tkazilishi** (ya'ni ular bojxona ma'murlari tomonidan fizik inspeksiya qilinishi) mumkin. Bojxona tekshiruvining asosiy maqsadi – bojxona ma'murlariga taqdim etilgan yukning bojxona deklaratsiyasi va unga ilova qilingan hujjatlarda ta'rifga muvofiqligini aniqlashdir.[76]

Xalqaro normalar bilan bojxona tekshiruvi bojxona deklarsiyasi berilgan va u qabul qilinganidan keyin eng qisqa muddatda o'tkazilishi belgilangan. Bir qancha hollarda milliy qonunchilik yuk va transport vositalarining barcha bojxona rasmiylashtiruvini, shu jumladan ularning fizik inspeksiya qilinishini o'tkazish uchun aniq cheklangan muddatlarni belgilaydi. Kioto Konvensiyasi yukning boshqa vakolatli ma'murlar (karattin, sanitariya va inspeksiyalarning boshqa turlari) tomonidan inspeksiya qilinishi bojxona tekshiruvi paytida o'tkazilishini tavsiya qiladi.

Ko'pchilik davlatlarda qonunchilik yukning bojxona tekshiruvi majburiyligini belgilamaydi, biroq, ushbu huquq bojxona ma'murlariga beriladi, har bir aniq holatda masalani hal etishni ularga qoldiradi.

Ko'pchilik davlatlarning qoidalari tovarlar deklarantning talabiga ko'ra bojxona ma'murlari tomonidan quyidagi manzillarda inspeksiya qilinishini belgilaydi:

A). Bojxona deklaratsiyasi taqdim etilgan bojxona muassasasi hududida;

B). Boshqa bojxona muassasasida;

V). Deklarant (eksport qiluvchi yoki import qiluvchi) binosida, shu jumladan yetkazib berish punktida;

G). Yukning buzilishini yoki odamlarga boshqa biror zarar yetkazilishini istisno qiluvchi (qorong'i bino, sovutgich va boshqalar) maxsus jihozlangan binoda. Agar bu qo'shimcha harajatlar bilan bog'liq bo'lsa, haqini deklarant to'laydi.

[76] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси.

Kioto Konvensiyasi qatnashchi mamlakatlar bojxona ma'murlariga tanlab tekshirishni tavsiya qiladi, ayniqsa quyidagi hollarda:

A). Eksport yoki import operatsiyalari muntazam ravishda yukni chegaradan olib o'tishning barcha qoidalarini bajaruvchi bir korxona yoki jismoniy shaxs tomonidan sodir etilsa;

B). Deklaratsiyada va unga ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlarni tekshirish oson bo'lsa;

V). import (yoki eksport) bojlari va soliqlar stavkalari ko'p bo'lmasa.

Yuklarning bojxona rasmiylashtiruvini jadallashtirish maqsadida xalqaro amaliyotda turli davlatlar bojxona xizmatlari o'rtasida hamkorlik, hamkorlik qiluvchi mamlakatlar bojxona ma'murlari tomonidan amalga oshirilgan rasmiylashtirishni o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu holda bojxona ma'murlari transport hujjatlariga tegishli belgi qo'yadilar va yukni o'tkazadilar. Bunday tizim bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq chiqimlarni jiddiy ravishda qisqartiradi[77].

Bojlar va yig'imlarni hisoblab chiqish va to'lash odatda, bojxona deklaratsiyasi taqdim etilgan va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilgan bojxona muassasasida o'tkaziladi. Biroq, bojxona ma'murlari boj va yig'imlar to'lanadigan boshqa muassasani ham ko'rsatishlari mumkin. +oidaga ko'ra, bojlar va yig'imlar bojxona ma'murlari tovarni o'tkazganga qadar to'lanadi. Biroq, xalqaro amaliyotda ushbu jihatlarni qattiq qo'llash qabul qilinmagan. Ko'plab mamlakatlarning bojxona qoidalari boj to'lovchining iltimosiga ko'ra boj va yig'imlar to'lanishi kechitirilishiga yo'l qo'yadi. Bunday amaliyot, jumladan, muntazam ravishda tovarlarni import qiluvchi shaxslarga nisbatan amal qiladi. Bojxona muassasalari boj to'lanishini kechiktirishga ruxsat berar ekan, to'lovchidan kafolat yoki ta'minlashni talab qilishi mumkin.

Boj va boshqa yig'imlar to'lanadigan sana turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi:

A). Bojxona deklaratsiyasi berilishining ro'yxatdan o'tkazilgan sanasi bo'yicha ;

B). Bojxonada qayd etilgan bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan sanasi bo'yicha;

V). tovar bojxonaga haqiqatda taqdim etilgan sana bo'yicha (ba'zan — tekshirish sanasi bo'yicha).

Boj to'langanligini tasdiqlab, bojxona deklaratsiyasi nusxasiga belgi qo'yadi. Ushbu nusxa deklarantda qoladi yoki unga boj to'langanligini tasdiqlovchi hujjat beriladi.

[77]Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

Ichki iste'mol yoki eksport uchun bojxona tomonidan tovarning chiqarilishi o'zida bojxona rasmiylashtiruvining yakunlovchi operatsiyasini ifodalaydi. Biroq, xalqaro amaliyot va Kioto Konvensiyasi tavsiyalari ushbu operatsiyani tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi vaqtiga ko'ra oxirgisi deb hisoblamaydi. Yuk bojxona tomonidan yuqorida aytib o'tilgan barcha operatsiyalar tugallangunga qadar chiqarishi mumkin. Agar bojxona ma'murlari bojxona tozalashi bilan bog'liq barcha operatsiyalarni deklarant bajarishiga ishonsalar, ular tovarni deklarant bojxona uchun maqbul bo'lgan tovarga ilova qilingan hujjatlar yoki tovar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa rasmiy hujjatni taqdim etishi sharti bilan chiqarishlari mumkin.

Kioto Konvensiyasi to'g'ridan to'g'ri bojxona ma'murlariga, agar bojxona tekshiruvi darhol o'tkazilishi mumkin bo'lmasa, tovarni operatsiyalar tugallangunga qadar chiqarishni tavsiya qiladi. Masalan, ekspert chaqirilgan va uning xulosasini kutish zarur bo'lgan holda yoki namunalar (nusxalar) tahlili natijalari maxsus laboratoriyadan kelishini ko'tish zarur bo'lgan hollarda, deklarant, agar boj ekspertiza natijasida oshsa, qo'shimcha boj to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Jahonda hamma joyda boj solig'i darajasi pasayishidan keyin bojxona rasmiylashtiruvi va tadbirlarini soddalashtirish va birxillashtirish, ko'plab operatsiyalarni ma'lumotlar va hujjatlarni ishlash texnik, shu jumladan elektron vositalar ixtiyoriga topshirish jarayoni bormoqda[78].

13. 2. Bojxona rasmiylashtiruvining umumiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasining bojxona haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq, bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi kerak. Uni o'tkazish tartibi va shartlari BK ning IV «Bojxona rasmiylashtiruvi» bo'limida bayon qilingan qoidalar va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shu jumladan Davlat bojxona qo'mitasining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Bojxona kodeksida «bojxona rasmiylashtiruvi» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmui. Biroq, mazkur tushuncha mohiyatini aniqlash uchun quyidagi ancha keng ta'rif maqsadga muvofiq hisoblanadi: ***bojxona rasmiylashtiruvi*** *– tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar va bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan tovarlar va transport vositalarining muayyan bojxona rejimi ostida olib o'tilishi yoki ushbu rejim*

[78] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси I бўлим 5 моддаси

amal qilishining tugallanishi maqsadida Bojxona kodeksi bilan belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladigan, o'zaro bog'liq tashkiliy – huquqiy va texnik tadbirlar tizimidir.[79]

BKning 77-moddasiga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar va ularning vakillari bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida ishtirok etishga haqlidir. Bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa, mazkur shaxslar va ularning vakilliri bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida hozir bo'lishlari va rasmiylashtirishni amalga oshirishda ularga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar deganda mamlakat qonunlariga muvofiq o'z nomidan deklaratsiya to'ldirish, tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda yuridik ahamiyatga ega xatti – harakatni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan ularni bojxona chegarasi orqali olib o'tuvchi bojxona brokeri tushuniladi.[80]

Agar tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan bo'lsa yuqorida ko'rsatilgan operatsiyalar bojxona organining ruxsati bilangina amalga oshiriladi (BKning 78-moddasi).

BKning 79-moddasiga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish uchun bojxona organlari, ularning ruxsati bilan esa tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar va davlat nazoratini amalga oshiruvchi boshqa organlar bojxona nazorati ostida turgan tovarlardan ularni tekshirish (ekspertiza qilish) uchun namunalar va nusxalar olishga haqlidirlar.[81]

O'zbekiston Respublikasi DBK ning har bir mintaqaviy boshqarmasi tarkibida bojxona ekspert laboratoriyasi ishlaydi, ularning faoliyati yuksak darajada tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy texnika va laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan DBKning Markaziy bojxona ekspert laboratoriyasi muvofiqlashtiradi[82].

O'zbekiston Respublikasi DBK Markaziy bojxona ekspert laboratoriyasi eng avvalo iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga va tovarlar kodlarining TIF TN ga muvofiq to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilishga da'vat etilgandir. Bu esa bojxona to'lovlarini undirishga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bojxona ekspert laboratoriyasi zarurat bo'lganda bojxona rasmiylashtiruvi paytida tovarga taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazadi.

---

[79] У.Т.Комилов ва бошкалар. «Божхона иши асослари», -Т.: «Адолат», 1998.
[80] У.Т.Комилов ва бошкалар. «Божхона иши асослари», -Т.: «Адолат», 1998.
[81] Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодексининг 79-моддаси.
[82] Ш.Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002

Markaziy bojxona ekspert laboratoriyasi o‘z faoliyatida respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish ko‘rib qonun hujjatlariga va O‘zbekiston Respublikasi DBK ning normativ hujjatlariga amal qiladi.

Buning uchun vakolat berilgan tashkilotlar tomonidan beriladigan hamda bojxona organlarining mansabdor shaxslariga tovarlarni bayonot berilgan bojxona rejimlariga muvofiq chiqarish imkonini beradigan qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan hujjatlar davlat nazoratining ko‘rsatib o‘tilgan turlari amalga oshirilishi natijasi hisoblanadi.

+onun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat nazorati ko‘rsatib o‘tilgan turlarining amalga oshirili bojxona rasmiylashtiruvi tugallanganligi, ya’ni tovarlarni u yoki bu bojxona rejimi ostida joylashtirish to‘g‘risida yohud bojxona rejimi amal qilishining tugallanganligi to‘g‘risidagi qarorning bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan rasmiylashtirilishi tugallanganligi sharti hisoblanadi.

Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibini qo‘llanish shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi[83].

BKning 84-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovarlar va transport vositalarini olib kirishda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan tovarlar va transport vositalarini olib kirishda tashuvchi bojxona chegarasini kesib o‘tish to‘g‘risida bojxona organini xabardor qiladi[84].

Xabarnomaning asosiy vazifasi - O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o‘tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta’minlash va ularni bojxonada rasmiylashtirish.

84 – moddada nazarda tutilgan xabarnoma berilganidan keyin tashuvchi BK talablariga rioya etgan holda tovarlar, transport vositalari va ularga tegishli hujjatlarni bojxona organiga belgilangan joyga yetkazib keltirishi va kelganidan keyin shu joyda turishi shart (BKning 85-moddasi).

Tovarlar, transport vositalari va ularga hujjatlarni yetkazib berish yo‘nalish va tashish shartlari hisobga olingan holda bojxona organi tomonidan belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

Tovarlar va transport vositalari yetkazib keltirilgan joyda bojxona organiga ko‘rsatiladi, ulaga tegishli hujjatlar topshiriladi. Ko‘rsatish tovarlar va transport vositalari keltirilganidan keyin kechi bilan 30 minut ichida, tovarlar va transport vositalari bojxona organining ish vaqtidan tashqari

---

[83] Назаренко В.М., Назаренко К.С. «Таможенное обслуживание внешнеэкономическое деятельности», – М.: Экзамен, 2001.

[84] Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодекси.

paytda yetkazib keltirilgan taqdirda, bojxona organining ish vaqti boshlanganidan keyin ko'pi bilan 30 minut ichida ular keltirilganligi haqida xabar qilishdan iboratdir (BKning 86-moddasi).[85]

XIII. 3. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishni dastlabki operatsiyalari

Tashuvchi tomonidan qisqa deklaratsiya topshirish vakolati berilgan shaxs bo'lmasa, kapitan, haydovchi yoki transport vositasini boshqaruvchi boshqa shaxs bojxona organlari uchun shunday shaxs deb hisoblanadi.

Tashuvchining vakili qisqa deklaratsiyani rasmiylashtirishda bojxona organlariga yordam ko'rsatishi shart.

Qisqa deklaratsiyaning shakli, unda ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ro'yxati va uni berish tartibi bojxona organlari tomonidan belgilanadi.

Qisqacha deklaratsiyani qo'llash tashuvchining majburiyati emas, balki uning huquqi hisoblanadi, vaqtincha saqlash omboridan foydalanish tartibi yoki reglamentiga muvofiq yoki bojxona organining talabiga ko'ra uning qo'llanilishi majburiy hisoblangan hollar bundan mustasno.[86]

Deklaratsiyalash - tovarlar va transport vositalarini muayyan bojxona rejimi ostiga joylashtirish bo'yicha va boshlanishi asosiy bojxona rasmiylashtiruvi boshlanadigan payt bo'lgan bunday rejim amal qilishi tugallanilishi bo'yicha tartibning tarkibiy qismi hisoblanadi. Deklaratsiyalashning asosiy vazifasi – asosiy bojxona rasmiylashtiruvini ta'minlashdir.

BKning 92-moddasi bilan bojxona deklaratsiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshirilishi belgilanadi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan oshmasligi lozim.[87]

BKning 94-moddasiga muvofiq bojxona deklaratsiyasini taqdim etish bilan bir vaqtda bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi[88].

---

[85] Назаренко В.М., Назаренко К.С. «Таможенное обслуживание внешнеэкономическое деятельности», – М.: Экзамен, 2001.

[86] Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

[87] Узбекситон Республикаси Божхона Кодексининг 90,91,92 моддалари.

[88] ЎзбекистонРеспубликаси Божхона Кодексининг 93,94 моддалари

BKning 97-moddasiga muvofiq ayni bir shaxs tomonidan ayni bir xil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o'tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga bitta bojxona deklaratsiyasi berilishiga ruxsat etishi mumkin.[89]

BKning 100 – moddasi qoidalariga muvofiq deklarant bojxona deklaratsiyasini topshirguniga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruxsati bilan namunalar va nusxalar olishga haqli. Agar ular tovarlarga doir bojxona deklaratsiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nusxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklaratsiyasi taqdim etilmaydi.[90]

Xulosa

Ushbu mavzuda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibi to'g'risida, tovar va transport vositalarini bojxona nazorati uchun talab qilinadigan meyoriy hujjatlar va ularni tagdim etish tartibi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Nazorat savollari

1. Bojxona rasmiylashtiruvi deganda nima tushunasiz?
2. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun talab qilinadigan hujjatlar nechta guruhga bo'linadi
3. Tijorat hujjatlariga nimalar kiradi?
4. Transport xujjatlariga nimalar kiradi?
5. Bojxona hujjatlariga nimalar kiradi?
6. Boshka hujjatlar guruhiga qaysi hujjatlar kiradi?
7. Bojxona rasmiylashtiriuvida bojxona yuk bayonnomasining o'rni?
8. Bojxona rasmiylashtiruvida T-6 bayonnomasini o'rni qanday?
9. Bojxona rasimiylashtiriuvida bojxona qiymati bayonnomasi tutgan o'rni.
10. Suv transporti orqali tashiladigan yuklarni bojxona rasmiylashtiruvi.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистнн – Республикаси Божхона Кодекси. Тошкент «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» 1998.

2. Ершов А.Д. Международные таможенное отношения,. Учебник, -М: IVESEP - M, 2004.

[89] Ўзбекистон Республикаси божхона кодиссининг 97 моддаси.
[90] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодексининг 100 моддаси.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

4. Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

5. Ш.Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил.

XIV BOB
BOJXONA REJIMLARI VA ULARNING TURLARI

14. 1. Bojxona rejimlari tushunchasi shakli va ahamiyati

Bojxona rejimi - O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalrining makomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui. Bojxona rejimlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruhga erkin muomalaga chiqarish, eksport, reimport, reeksport rejimlarida tovarlar shaxsga ihtiyoriga to'liq o'tadi.

Ikkinchi guruhda - bojxona organi tomonidan o'rnatilgan shartlarga rioya etilgan holda, tovaralardan ma'lum maqsadda foydalanish ko'zda tutilgan - Bojxona ombori, vaqtincha saqlash, Erkin bojxona va ombor zonasi, vaqtinch olib kirish va olib chiqish, boj olinmaydigan savdo do'koni, tranzit, qayta ishlash, yuk qilish, davlat foydasiga voz kechish.

Ikkinchi guruhdagi rejimlar ko'pchiligi maqsadi savdo sotiqni, ishlab chiqarishni, xalqaro transportni rivojlanishga va har xil iqtisodiy muomalarni yechishga qaratilgan.

Erkin muomalaga chiqarish shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatsiz bu yerda doimiy qoladi. Bu rejim import bojlarini, soliqlarni va boshqa boj to'lovlarini to'lashni, iqtisodiy siyosat choralariga hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi[91].

Erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar egalik qiluvchi shaxslar ihtiyoriga berilib bojxona nazorati olinadi va davlat qonunlari belgilangan tartibda boshqa rejimga o'tkazish mumkin bo'ladi. Erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar asosan xorijiy davlatlardan savdo sotiq shaklidagi kontraktlar asosida kelib tushadi.

Bu rejim o'ziga xos bir nechta xususiyatlari ega. Ayrim tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyatida xayriya va texnik yordam sifatida tovarlarni mamlakat shaxslari qabul qiladigan bo'lsa bojxona organi tomonidan bu tovarlarni erkin muomalaga chiqairsh bojlardan va soliqlardan ozod qilingan holda rasmiylashtiriladi. Agar mamlakat shaxslari xoijdan tuxfa sifatida tovar yoki transport vositalarini olsalar erkinmuomalaga bojxona to'lovlari to'liq to'langan holda amalag oshiriladi.[92] Yana bir xususiyatlaridan erkin muomalag chiqarilagn tovarlar respublika tovari nomini oladi. Shuning

[91] «Эркин муомалага чиқариш» тўғрисидаги Давлат Божхона Кумитасининг йўриқномаси.

[92] Назаренко В.М., Назаренко К.С. Таможенное обслуживанийе внешнеекономической деятелности, - М.: Екзамен, 2001.

uchun bu rejimdan boshqa rejimga o'tkazilgnada bu tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari va bojxona to'lovlari to'lash va boshqa chora-tadbirlarga rioya etiladi.

14. 2. Bojxona rejimlari harakteristikasi

Reimport shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O'zbekiston tovarlari import bojlarini, soliqlarni to'lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmagan holda belgilangan muddatlarda qayta olib kiriladi. Olib chiqilgan vaqtdan boshlab 10 yil ichida bojxona hududiga qaytarib olib kirilgan, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlaridan kamayish oqibatidagi o'zgarishlar hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hollarni istisno etganda, olib chkilgan paytda qanday bo'lsa. Shunday holatda turgan tovarlar reimport rejimiga joylashtiriladi.[93]

Tovralarni eksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan eksport boji va soliqlari summusi, bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlab uch yil ichida reimport rejimida qaytarib olib kirilgan taqdirda, bojxona organining taqdimnomasi byuicha qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda qaytariladi.

Tovralar reimport qilinganda tovarlarny olib o'tayotgan shaxe tovarlarni olib chiqish chogida to'lov tarzida yoki boshqa imtiyozlar tufayli olgan summalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytaradi.

1. Tovralarni olib chikuvchi va olib kiruvchi bitta shaxe bo'lishi lozim;
2. Bojxona organiga eksport to'lovlari to'langan va rasmiylashtirilgan BYUB to'lovlarnomalar va to'lovlarni bojxona organi hisobiga tushganligi yoki bu to'lovlar o'z navbatida byudjetga o'tkazilagni to'g'risidagi xati bo'lishi lozim.
3. Tulovlarni qaytarish to'g'risida ariza.

Tovralarni reimplort rejimida mamlakatdan qaysi shaxe olib chiqqaniga qaramasdan har qaysi shaxe olib kirishi mumkin.

Reimport rejimiga xorijiy tovarlarni va respublika tovarlarni vaqtincha olib chiqish, tranzit, bojxona territoriyasidan tashqarida qayta ishlash rejimidagi tovarlarni kiriti bo'lmaydi.

Xulosa

Ushbu mavzuda O'zbekiston Respublikasi organlari faoliyatida bojxona rejimlarini tutgan o'rni, bojxona rejimlarini turlari, bojxona rejimlarini qo'llash tartibi to'g'risida yozilgan Bojxona rejimi - O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport

[93] «Реимпорт» режими тўғрисидаги Давлат Божхона Кумитаси йўриқномаси

vositalrining makomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui. Bojxona rejimlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga erkin muomalaga chiqarish, eksport, reimport, reeksport rejimlarida tovarlar shaxsga ihtiyoriga to'liq o'tadi. Ikkinchi guruhda - bojxona organi tomonidan o'rnatilgan shartlarga rioya etilgan holda, tovaralardan ma'lum maqsadda foydalanish ko'zda tutilgan - Bojxona ombori, vaqtincha saqlash, Erkin bojxona va ombor zonasi, vaqtinch olib kirish va olib chiqish, boj olinmaydigan savdo do'koni, tranzit, qayta ishlash, yuk qilish, davlat foydasiga voz kechish. Ikkinchi guruhdagi rejimlar ko'pchiligi maqsadi savdo sotiqni, ishlab chiqarishni, xalqaro transportni rivojlanishga va har xil iqtisodiy muomalarni yechishga qaratilgan.

Nazorat savollari

1. Bojxona rejimlari deganda nimani tushunasiz?
2. Bojxona rejimlarini turlari.
3. Tovarlarni bojxona rejimlariga joylahtirish tarti qanday.
4. «Ekport» bojxona rejimida rasmiylashtirish tartibi qanday?
5. «Import» bojxona rejimida rasmiylashtirish tartibi to'g'risida gapiring?
6. «Tranzit» rejimida tashiladigan tovarlarni bojxona nazorati.
7. «Vaqtincha olib kirish (olib chiqish)» rejimida tovarlarni saqlash muddati qanday?
8. Qaysi holatlarda tovarlar «Davlat foyidasiga voz kechish» rejimiga joylashtiriladi?
9. Kanday holatlarda tovarlar yuk qilinadi.
10. «Bojxona ombori» rejimi to'g'risida gapiring?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодекси. -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
2. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида «Божхона фанларининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари академияси, 2002
3. Йершов А.Д. Международные таможенные отношеныя: учеб. пособ. ИВЕСЕП, 2000.
4. Назаренко В.М., Назаренко К.С. Таможенное обслуживание внешнеекономической деятельности – М.: Екзамен, 2001.

XV BOB
BOJXONA EKSPERTIZASI, UNING MOHIYATI VA O'TKAZISH TARTIBI

15. 1. Bojxona ekspertizasi tushunchasi

Bojxona ekspertizasi tushunchasi tartibi O'zbekiston espublikasi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Konunning 5-moddasi, Bojxona kodeksining 79, 181, 182-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 374-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, shuningdek, bojxona qonunchiligi buzilishi holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish yoki yuritilish vakolati qonunbuzarliklar bo'yicha surishtiruv ishlarini o'tkazish jarayonida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan bojxona labaratoriyalarida ekspertiza tayinlash, o'tkazish, xulosa berish qoidalar ini belgilab beradi.

Bojxona ekspertizasida qo'llanilgan terminlar va qisqartmalar:

BKB-bojxona qoidalar ini buzilishi.

TIF TN- Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi.

Laboratoriya – Markaziy bojxona laboratoriyasi. Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasi, hududiy bojxona laboratoriyalari.

Materiallar – hujjatlar, ekspertiza uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar, namuna va sinamalar.

Hududiy bojxona boshqarmalaridan tovarlar va ashyoviy dalillarni ekspertizadan o'tkazish uchun namuna (sinama)lar olish, ularni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi, hududiy bojxona laboratoriyalari va Oliy harbiy bojxona instituti Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida (bundan keyin matn davomida – Laboratoriyaga yuborish), O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonodan 2003 yil 29 avgustda 1269-rakam bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlarning namuna va sinamalarini bojxona organlari tizimida tasarruf qilish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi.[94]

[94] Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 2003 йил 29 августда 1269-ракам билан руйхатга олинган «Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасидан олиб утилаётган товарларнинг намуна ва синамаларини божхона органлари тизимида тасарруф килиш тартиби тўғрисидаги йўриқномаси.

Bojxona nazoratiga olinishi lozim bo'lgan barcha tovarlar va tovar hujjatlari hamda bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar bojxona ekspertizasi obyektlari bo'lishi mumkin.

Bojxona ekspertizasi quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

tovarning TIF TN bo'yicha kod rakami to'g'ri tasniflanganligini nazorat qilish;

tovarni qayta ishlangandan so'ng uni (tasdiqlangan uslub asosida) identifikatsiya qilish;

tovarning navi, turi, markasi, va asosiy sifat ko'rsatkichlarini tegishli organlar tomonidan berilgan rasmiy hujjatlar asosida nazorat qilish;

tovarni ishlab chiqarish texnologiyasini o'rganish;

tovarning taqdim etilgan hujjatlar asosida kimyoviy tarkibi va zaxarli moddalarga tegishli ekanligini o'rganish.

Yuqorida qo'yilgan masalalarni hal qilishda Laboratoriyada bojxona ekspertizasining quyidagi turlari o'tkaziladi:

tovarlarning TIF TN bo'yicha tasniflanishi;

tovarshunoslik;

materialshunoslik;

identifikatsion (shartnoma tuzishdan oldin tasdiqlangan va shartnomada ko'ratilgan uslub asosida):

kimyoviy va boshqalar.

Bojxona ekspertizalari:

tovarlarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida Laboratoriyada;

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha yuzaga kelgan baxs-munozarali hollarni yechishda, O'zbekiston Respublikasining bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qarorlariga asosan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining bojxona yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida hududiy bojxona laboratoriyasi eksperti bergan xulosaga shubxa tugilganda, murakkab hamda qayta ekspertizalar Markaziy bojxona laboratoriyasida va Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida shaxodatlangan sohalari bo'yicha Laboratoriyada o'tkaziladi.[95]

Ekspertiza jarayonida ekspertlar bilan bir qatorda, soha mutaxasislari ham qatnashishlari mumkin.

Ekspertiza Laboratoriya joylashgan manzilda o'tkaziladi. Zaruriyat tugilganda ekspertiza-tadqiqot ishlari boshqa joy (ilmiy-tadqiqot muassasalari korxonalar va boshqa tashkilot)larda ham o'tkazilishi mumkin.

[95] Ўзбекистон Республикаси «Давлат божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни,

15.2. Bojxona ekspertizasini o‘tkazish maqsadi va vazifalari

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritayotgan marsabdor shaxsning ekspertiza tayinlash to‘g’risidagi qarori Davlat bojxona qo‘mitasi raisi o‘rinbosari yoki hududiy bojxona boshqarma boshliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Qo‘shimcha va qayta ekspertizalar yangi ekspertiza sifatida umumiy qoidalar asosida tayinlanadi.

Qo‘shimcha va qayta ekspertizalar tayinlanganda dastlabki ekspert xulisasi va Ushbu xulisa berilishiga asos bo‘lgan barcha, shuningdek, dastlabki ekspert xulisasi berilgandan so‘ng kelib tushgan qo‘shimcha materiallar.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining qarori yoki murojaat xatiga asosan ekspertiza respublika hududida joylashgan ekspert muassasalari, Laboratoriya, shaxodatlangan lavozimdagi Davlat bojxona qo‘mitasi xodimlari tomonidan, hamda Fan-texnika, san’at va boshqa sohalardagi mutaxasislarni jalb qilgan holda oshirilishi mumkin.[96]

Laboratoriya boshligi ekspertiza o‘tkazish jarayonida:

Laboratoriyaga yullangan materiallarni qabul qiladi va yozma ravishda bir yoki bir nechta ekspertlarga ekspertiza o‘tkazish to‘g’risida topshirik beradi. Ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, bilgan holda yolgon xulisa berganlik, ekspertiza o‘tkazishdan bosh tortish yoki rad qilish uchun javobgarlik to‘g’risida ogohlantiradi.

ekspertiza o‘tkazish muddatini bo‘lgilaydi. Agar 5 ish kunida ekspertizani to‘liq o‘tkazish imkoniyati bo‘lmasa, bu xakda Davlat bojxona qo‘mitasi raisi o‘rinbosariga xabar beradi va uning roziligi Bilan qo‘shimcha 10 ish kunigacha muddat belgilaydi.Ekspertiza tayinlagan organiga ekspertiza uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha materiallar talab qilib surovnoma yuborgan vaqtdan boshlab, Ushbu materiallar ekspertizaga taqdim qilingan yoki surovnomani rad qilish to‘g’risida xabarnoma olingan kungacha bo‘lgan vaqt ekspertiza o‘tkazish muddatiga kirmaydi.[97]

ekspertlarga ilmiy-uslubiy yordam beradi, ekspertiza natijalari Bilan tanishadi va uning tahlilini nazorat qiladi.

Laboratoriya boshligining yozma ko‘rsatmasi va ekspertizaga taqdim qilingan materiallarni olganidan so‘ng ekspert ekspertiza o‘tkazishga kirishadi.

Ekspertiza o‘tkazish uchun taqdim etilgan ma’lumotlar yetarli bo‘lmasa,

---

[96] Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 2003 йил 29 августда 1269-ракам билан руйхатга олинган «Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасидан олиб утилаётган товарларнинг намуна ва синамаларини божхона органлари тизимида тасарруф килиш тартиби тўғрисидаги йўриқномаси

[97] Божхона кодексининг 79, 181, 182-моддаси.

ekspert materiallarni qabul qilgan vaqtdan boshlab bir ish kuni davomida bu haqida Laboratoriya boshligiga yozma ravishda murojaat qiladi.

Laboratoriyada kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazish uchun Laboratoriya boshligi ekspertlar xay'ati faoliyatini tashkil eti shva muvofiqlashtirishni taminlaydigan yyetakchi ekspertni taminlaydi.

Ekspertlar xayati boshligi bo'lgan yyetakchi ekspert BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yichautkazilayotgan ekspertizada boshqa ekspertlar bilan bir xildagi huquq va majburiyatlarga ega, hamda ekspertiza masalalarini hal etishda hech qanday ustunlikka ega emas.[98]

15. 3. Bojxona ekspertizasini o'tkazish tartibi

Ekspert xulosasi uch qismdan iborat: kirish, tadqiqot va yakuniy

XulosaAning kirish qismida ekspertiza o'tkazish uchun tilxat bergan ekspertning ismi-sharifi va tilxat berilgan sana, xulosa qayd etilgan tartib rakami, xulosa berilgan sana, eksportyor va importyor haqida ma'lumot, tovar yoki namuna (sinama) nomi, materiallar ekspertizaga qabul qilingan sana va ro'yxati; ekspertizani amalga oshirish uchun asos (topshirik, qaror, murojaat xati). Kayta va qo'shimcha ekspertizalarni amalga oshirishda xulosaning kirish qismida dastlabki ekspertiza to'g'risidagi ma'lumotlar ham keltiriladi (xulosa rakami, sanasi, kim tomonidan berilgan).

Kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazilayotganda xulosaning kirish qismida yyetakchi ekspertning ismi–sharifi ko'rsatiladi. Kompleks yoki komissiyaviy ekspertizaga qo'yilgan umumiy savollarniyechishga ta'sir qiladigan alohida o'tkazilgan avvalgi ekspertizalar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Xulosaning tadqiqotlar qismida ekspertiza natijalari tavsiflab, shuningdek aniqlangan holatlar bo'yicha ilmiy-uslubiy tushintirishlar beriladi.

Xulosaning tadqiqotlar qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

aniq ifodalangan va o'tkazilgan tadqiqot uslublari to'g'risida ma'lumotlar;

qo'yilgan savollvrni yechishda ekspert amal qilgan me'yoriy-ma'lumot materiallari (davlat standartlari, texnik sharoitlar, buyruqlar, ko'rsatmalar va boshqalar);

tovar namunalari va dastlabki ma'lumotlarni ko'zdan kechirish, tekshirish, tajriba o'tkazish natijalari;

ilovalar va ularga tegishli tushinrishlar.

---

[98] Ўзбекистон Республикаси «Давлат божхона хизмати тўғрисида» ги Қонуни.

Komissiyaviy va kompleks ekspertizalar o'tkazilganda xulosa nusxalari soni ekspertiza tayinlagan organ va ekspertizada qatnashgan har bir ekspert muassasasiga yuborish uchun yetarli miqdorda tuzilishi lozim.[99]

Ekspertning majbkriyatlari[100]:

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritayotgan mansabdor shaxs (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya)ning chaqiruvchmga asosan o'zi bergan xulosa yuzasidan tushintirishlar va o'zi bilgan qo'shimcha ma'lumotlarni beradi;

ekspertizani tayinlagan surishtiruvutkazayotgan organning ruxsatisiz BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha o'tkazilgan ekspertiza natijalarini yoki surishtiruv natijalarini oshkor qilmaydi;

ekspertiza o'tkazish jarayonida xavfsizlik texnikasiga rioya qiladi;

laboratoriya boshligining yozma ravishda topshirigisiz materiallarning ekspertizasini o'tkazmaydi;

Bojxona ekspertizasi natijasida tovarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga xos kodi BYUDda noto'g'ri belgilanganligi aniqlasa Ushbu holat bojxona rahbariyatiga ma'lum qilinadi.[101]

Xulosa

Ushbu mavzuda bojxona ekspertizasi tushunchasi, bojxona ekspertizasini mohiyati va maqsadi, bojxona ekspetizasining o'tkazish shakllari, bojxona ekspertizasidan o'tkazish uchun tovarlardan probalar olish, ekpertiza natijalarini qayd qilish tartibi, oziq-ovqat tovarlarini bojxona ekspertizasidan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, spirtli mahsulotlarni bojxona ekspertizasidan o'tkazish tartibi, bojxona ekspertizasida bojxona yuk bayonnomasining tutgan o'rni, istemolga yaroksiz oziq-ovqat tovarlarini yuk qilish tartibi va bojxona ekspertizasini o'tkazish bo'yicha huquqiy meyoriy hujjatlar keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Bojxona ekspertizasi deganda nima tushunasiz?
2. Tovarlarni biologik ekpertizadan o'tkazish?

---

[99] Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 2003 йил 29 августда 1269-ракам билан руйхатга олинган «Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасидан олиб утилаётган товарларнинг намуна ва синамаларини божхона органлари тизимида тасарруф килиш тартиби тўгрисидаги йўриқномаси

[100] Божхона кодексининг 79, 181, 182-моддалари.

[101] Ўзбекистон Республикаси «Давлат божхона хизмати тўгрисида» ги Қонуни,

3. Tovarlarni ximik ekspertizadan o'tkazish.
4. Tovarlarning fizikaviy xususiyatlari?
5. Tovarlarni bojxona ekspertizasidan o'tkazish tartibi qanday?
6. Narkotik vositalarini bojxona ekspertizasi.
7. Dori - darmonlarni bojxona ekspertizadan o'tkazish tartibi.
8. Sa'nat asarlari va ularni bojxona ekspertizasidan o'tkazish.
9. Bojxona ekspertizasi uchun probalar olish.
10. Oziq–ovqat mahsulotlarini bojxona ekspertizasidan uktkazish.

Asosiy adabiyotlar

1. Қзбекистон Республикаси Божхона Кодекси. -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

2. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида «Божхона фанларининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари академияси, 2002.

3. Назаренко В.М., Назаренко К.С. Таможенное обслуживание внешнеекономической деятельности – М.: Екзамен, 2001.

XVI-BOB
BOJXONA STATISTIKASI VA UNING ASOSIY VAZIFASI

16. 1. Bojxona statistikasining asosiy vazifalari va o'rganish obyektlari

Bojxona statistikasi tashqi savdoda, shuningdek bojxona to'lovlarini hisobga olish va tahlil qilish, kontrabandaga qarshi ko'rash va bojxona qoidalari buzilishi, nosavdo oboroti va hokazolarbilan bog'liq maxsus sohalarda yuz berayotgan hodisalarda yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarning miqdor jihatini o'rganadi.[102]

Davlat statistikasidan farq qilgan holda bojxona statistikasida barcha dastlabki axborot eng quyi darajadan eng yuqori darajagacha beriladi, biroq unda ko'rsatkichlar jami ancha kam.

Quyidagilar bojxona statistikasining **asosiy vazifasi** hisoblanadi:

- Mamlakat eksport va importi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va ishonchli hisobga olinishini ta'minlash;
- Tashqi savdo rivojlanishi tamoyili, eksport va import tuzilmasini, tovar oqimlari harakatini makroiqtisodiy vaziyat tahlili bilan birgalikda tahlil qilish;
- Davlat hokimiyati oliy organlari tomonidan bojxona siyosati hamda tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish sohasida qarorlar qabul qilinishida ularni axborot bilan ta'minlash;
- Respublika bozori Konyunkturasi tahlili;
- Davlat byudjetiga boj to'lvlari tushumi ustidan nazorat qilish;
- Bojxona organlari vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;
- Savdo va to'lov balanslarining ayrim moddalarini tuzish uchun ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;
- MDH mamlakatlari o'rtasida tashqi savdo bojxona statistikasi bo'yicha axborotni uzoqroq ayirboshlashni ta'minrlash;
- Davlat bojxona siyosatidan kelib chiquvchi boshlqa vazifalar.

Bojxona statistikasi tashqi savdo bojxona statistikasiga va maxsus bojxona statistikasiga bo'linadi.

Mamlakatning tashqi savdo oboroti, ya'ni tovarlar eksporti va importi ularning miqdor va qiymat ifodasida, shuningdek eksport va importning jo'g'rofiy yo'nalishi («tovart - mamlakat», «mamlakat - tovar») *tashqi savdo bojxona statistikasining* kuzatishi va o'rganishi mavzusi hisoblanadi.

Tashqi savdo bojxona statistikasida **eksport** deganda olib kirilishi majburiy bo'lmagan mamlakatda ishlab chiqarilgan, yetishtirilgan yoki qazib olingan

[102] «Основы таможенного дело» под ред. В.Г. Драганова, -М.: Экономика.

tovartlarning mamlakatdan olib chiqilishi tushuniladi. Bunda mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar sirasiga, shuningdek mamlakatga olib kelinadigan hamda ularning asosiy sifat va texnik tavsiflarini o'zgartiruvchi ishlov beriladigan chet elda ishlab chiqarilgan tovarlar ham tegishli bo'ladi. Tovarlar eksporti moddiy boyliklarning milliy zahiralarini kamaytiradi (eksport tovarlarni sotishdan olingan tushum – to'lov balansining kirim qismi).

Import deganda mamlakatga tovarlar olib kirilishi tushuniladi. Importga mamlakatning ichida iste'mol qilishga, qayta eksport qilishga mo'ljallangan tovarlar va mamlakat tashkilotlari uchun chet elda harid qilingan tovarlar kiritiladi. Tovarlar importi moddiy boyliklarning milliy zahiralarini ko'paytiradi.

Mamlakatning bojxona chegarasi orqali olib o'tishda tovarlarga deklaratsiya to'ldirishda O'zbekiston Respublikasida foydalaniladigan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) da keltirilgan eksport va import tovarlar tashqi savdo bojxona statistikasida kuzatishning bevosita obyektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 7 – moddasiga muvofiq tovarlar deganda har qanday ko'char mol – mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, xalqaro yuk tashishlarda foydalaniladigan transport vositalaridan boshqa transport vositalari, intellektual mulk obyektlari, oldi – sotti va ayirboshlash obyektlari hisoblanuvchi bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning natijalari tushuniladi[103]. Bundan tashqari, tashqi savdo bojxona statistikasida quyidagilarning hisobi yuritiladi:

- To'lov vositasi hisoblanmaydigan tanga bo'lmagan oltin va kumush;
- Hadya, tekin yordam sifatida badallar hisobiga BMT texnik ko'maklashish jamg'armasiga yetkazib beriladigan tovarlar;
- Harbiy maqsaddagi tovarlar;
- Elektr energiyasi, suv, tovarlarni (neft, gaz) quvurlar orqali yetkazib berish;
- Xorijiy kemalar, samolyotlar va yuk avtomobillari uchun sotilgan hamda tegishlicha mamlakat kemalari, samolyotlari va yuk avtomobillari uchun chet elda sotib olingan bunker yoqilg'i, yonilg'i, oziq - ovqat va materiallar;
- Bir yilag va undan ko'p vaqtga ijaraga olingan tovarlar (yetkazib berish vaqtida ijaraga olingan tovarning to'liq qiymati bo'yicha hisobga olinadi);

[103]. Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил.

• Mamlakatga olib kelingan holda qayta eksport qilinadigan tovarlar;

• qo'shma korxonalarning ustav jamg'armasi hisobiga olib kirilgan (olib chiqilgan) tovarlar;

• tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishi vaqtidan qat'iyy nazar mamlakat hududida va chet elda o'tkaziladigan yarmakalar, ko'rgazmalar va boshqalarda sotilgan (sotib olingan) tovarlar;

• olib kirilishi va olib chiqilishi vaqtidan qat'iyy nazar konsignatorlar orqali sotilgan (sotib olingan) tovarlar;

• olib chiqilgan (olib kirilgan) kino, tele, video va audio mahsulotlar, litsenziyalar haqini to'lash ham shu jumlaga kiradi;

• muomalada bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, banknotlar va tangalar (ularning tijorat qiymati bo'yicha hisobga olinadi);

• ishlov berish maqsadida olib kirilgan (olib chiqilgan) tovarlar;

• chet eldagi tashkilotlar iste'moli uchun eksport — import operatsiyalarini amalga oshiruvchi boshqa mamlakatlar tashkilotlari kontraktlari bo'yicha sotib olingan tovarlar va tegishli mamlakatda xorijiy tashkilotlar iste'moli uchun kontraktlar bo'yicha sotilgan tovarlar;

• shaxsiy tusdagi pochta jo'natmalari baholash qiymati bo'yicha (jo'natmada ko'rsatilgan qiymat);

• musodara qilingan import tovarlar;

• muayyan muddat tamom bo'lgach bir xil nomdagi tovarlarni qaytarish shartlarida olib chiqilgan (olib kirilgan) tovarlar (tovar ssudasi).

Davlat chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi bilan bog'liq bir qancha operatsiyalar tashqi savdo hajmiga kiritilmaydi va binobarin, bojxona statistikasida hisobga olinmaydi. Bunday tovarlarga quyidagilar tegishlidir:

• monetar oltin, ya'ni milliy va xalqaro banklar almashtiradigan oltin;

• muomaladagi qimmatli qog'ozlar, banknotlar va tangalar;

• mamlakat hududi orqali o'tuvchi tranzit xorijiy tovarlar;

• mamlakatga olib kirilmaydigan qayta eksport qilinadigan tovarlar;

• vaqtincha olib chiqiladigan va tegishlicha olib turiladigan tovarlar (jumladan, ko'rgazmalar, yarmarkalar va konsignatsiya uchun mo'ljallangan tovarlarning sotilmaydigan qismi), poygalar, yugurishlar va shunga o'xshashlarda qatnashishi uchun vaqtincha olib chiqiladigan va olib kiriladigan hayvonlar; prokat uchun chet elga olib chiqiladigan hamda qaytib olib kiriladigan vatan kino va telefilmlari; savdo namunalari sifatida olib chiqiladigan va olib kiriladigan tovarlar;

• chet elga vaqtincha olib chiqiladigan va olib kiriladigan qaytariladigan idish. Konteynerlar va transport vositalari hamda ularning qaytarilishi;

• yo'lovchilarning shaxsiy bagaji, chet eldagi elchixonalar, diplomatik missiyalar, vakolatxonalar, savdo vakolatxonalari va boshqa tashkilotlar uchun mo'ljallangan ashyolar (xizmat va shaxsiy) (chet elda mamlakat bilan uning tashkilotlari o'rtasida tovarlar harakati tovarlarning mamlakat ichidagi harakati deb tushuniladi);

• bir yiladan kam muddatga ijaraga olingan tovarlar;

• tuzatish uchun jo'natiladigan hamda tuzatishdan keyin qaytariladigan transport vositalari va asbob — uskunalar;

• eksport uchun tayyorlagan tovarlar, biroq mamlakat tashkilotlariga ulardagi mavjud o'z valyuta mablag'lari hisobiga sotilgan tovarlar;

• mamlakat hududidagi xorijiy haridorlarga (elchixonalar, vakolatxonalar, savdo vakolatxonalari) xorijiy valyutaga ulgurji va chakana savdo orqali sotilgan tovarlar;

• ijaraga olingan ko'chmas mulk (binolar, yer va boshqalar);

• mamlakat ichida qo'shma korxonalar va tashkilotlar tomonidan sotiladigan (sotib olinadigan) tovarlar;

• davlat chegarasi bilan cheklangan hudud doirasida erkin zonada (erkin zonadan) olib o'tiladigan tovarlar.

Tashqi savdo statistikasi axborotida eksport va import miqdori va qiymati, tashqi avdo balanslari savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi hamda u yoki bu tovarning ishlab chiqarilgan mamlakati va yetkazib beriladigan mamlakati to'g'risida, yetkazib berish shartlari, narxlar va boshqalar haqida tasavvur beradi.

Pul ifodasida hisoblab chiqilgan eksport va import asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Uning negizida tashqi savdo samaradorligi aniqlanadi, tashqi savdo balansi saldosi, mamlakat to'lov balansida tashqi savdoning o'rni va ahamiyati belgilanadi. Tashqi savdoda muomalada bo'luvchi tovarlar hisobi nafaqat qiymat, balki miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi, bu aniq bitishuv narxlari yoki o'rtacha statistik narxlarto'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Tashqi savdo bojxona statistikasini shakllantirish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:[104]

Hisobot davri;

Tovar oqimi yo'nalishi (olib kirish yoki olib chiqish);

Olib kirishda tovar ishlab chiqarilgan mamlakat; olib chiqishda tovar yetkazib beriladigan mamlakat;

Statistika qiymati;

Tovar kodi va nomi;

[104] «Основы таможенного дело» под ред. В.Г. Драганова, -М.: Экономика, 176 бет.

Netto og'irlik;
O'lchashning qo'shimcha birliklari kodi va nomi;
O'lchashning qo'shimcha birliklari bo'yicha miqdor;
Bitishuv xususiyati;
Bojxona rejimi turi;
Tovar jo'natuvchi (oluvchi)ning toifasi;
Mintaqa.

Keltirilgan ko'rsatkichlar faqat tashqi savdo statistikasi bo'yicha vaqti – vaqti bilan materiallarni e'lon qilish vatayyorlash imkonini beribgina qolmay, balki har xil tahliliy tadqiqotlar tayyorlash, shu jumladan, mintaqalar bo'yicha tashqi savdo rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilari toifalari bo'yicha eksport – import operatsiyalar tahlilini o'tkazish imkonini beradi.

16. 2. Tashqi savdo bojxona statistikasi ko'rsatkichlari

Muayyan davrda eksport va importda yuz berayotgan o'zgarishlarni to'liq tahlil qilish uchun eksport va import fizik hajmi indeksi ko'rsatkichlaridan (tovarlar narxlari o'zgarishidan qat'iyy nazar eksport va import hajmlari dinamikasini aks ettiradi) va eksport import o'rtacha narxlari indeksi (narxlar o'zgarishining tovarning umumiy qiymatiga ta'sirini aks ettiradi) ko'rsatkichlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Tekin yordam tartibidagi eksport – import operatsiyalarini, tovar ayirboshlash (barter) operatsiyalarini baholash tegishli mamlakatlarning bozoridagi tovarlar narxlari yoki tijorat asosidagi eksport – import operatsiyalar amalga oshiriladigan bir nomdagi tovarlar narxlari bo'yicha amalga oshirladi. Agar baholash AQSH dollarida emas, balki boshqa valyutalarda bajarilgan bo'lsa, u holda ushbu valyutalar ham xorijiy valyutalar kurslari asosida AQSH dollariga qayta hisoblanadi. Bundan quyidagi algoritm bo'yicha tovarning statistika qiymatini hisoblab chiqish mumkin bo'ladi. bu holda statistika qiymatini chiqarish formulasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:[105]

Tovarlar eksporti (importi)ning jo'g'rofiy taqsimlanishi mamlakatlar bo'yicha tovarlar kelib chiqishi va iste'mol qilinishi belgilariga muvofiq bajariladi:

- eksport tovarlar boradigan (iste'mol qilinadigan) mamlakat bo'yicha aks ettiriladi;
- import tovar kelib chiqqan (ishlab chiqarilgan) mamlakat bo'yicha aks ettiriladi.

[105] . Ш.Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002 йил. 143 бет.

Tovar boradigan (iste'mol qilinadigan) mamlakat deganda tovar iste'mol qilish, foydalanish yoki keyinchalik ishlov berish uchun mo'ljallangan yuklash paytida pirovard mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat tushuniladi[106].

Tovarning kelib chiqishi (ishlab chiqarilgan) mamlakat sifatida tovarlar ishlab chiqarilgan yoki ishlov berilgan mamlakat tushuniladi.

Savdo qiluvchi mamlakat deganda, qaysi davlatga tegishliligidan qat'iyy nazar tovarni sotgan yoki sotib olgan savdo qiluvchi shaxs hududida turgan mamlakatni tushunish zarur

Butlovchi asbob-uskunalar yetkazib berilishini hisobga olish kodlar ko'rsatilgan holda bojxona yuk deklaratsiyasi bo'yicha alohida asbob-uskunalar hisobiga o'xshab yuritiladi.

Suv, temiryo'l, avtomobil, havoda tashishlar bo'yicha eksport va import hisobi quyidagicha yuritiladi:

- eksport bo'yicha – chegara bojxonasidagi bojxona yuk deklaratsiyasi shtempelida qo'yilgan chegara orqali chiqarishga ruxsatnoma sanasi bo'yicha;
- import bo'yicha – ichki iste'mol uchun yukni chiqarishga bojxona yuk deklaratsiyasidagi bojxona ruxsatnomasi sanasi bo'yicha;
- quvurlar orqali yetkazib beriladigan tovarlar, shuningdek elektr energiyasi eksporti yoki importi sanasi sifatida quvur yoki elektr quvuri chegara yoki boshqa nazorat taqsimlash punktlarida tuzilgan qabul qilish – topshirish dalolatnomasidagi sana qabul qilinadi;
- tovarlarni pochta orqali jo'natishda – pochta kvitansiyasi sanasi bo'yicha.

Bojxona statistikasi, tashqi savdo statistikasidan tashqari, shuningdek *maxsus bojxona statistikasini* ham o'z ichiga oladi. U quyidagi bo'limlardan iboratdir:[107] *bojxona yuk deklaratsiyalari bazasi* tashqi savdo bojxona statistikasi bilan hisobga olinadigan bojxona rejimi bo'yicha tovarlar olib chiqilishi va olib kiritilishini tavsiflaydi;

1) bojxona to'lovlari TIF daromadlarini shakllantirishda bojxona to'lovlari miqdorini tavsiflaydi. Bunda hisob bojxona to'lovlari turlari bo'yicha yuritiladi: import boj, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yig'imlarning boshqa turlari

2) miqdor va qiymat ifodasida eksport tovarlari hisobi bo'yicha *valyuta nazorati*, valyuta tushumi muddatlari va summalarini, import tovarlar hisobini har bir kontrakt bo'yicha naqd xorijiy valyutani hisobga olgan holda;

---

[106] Назаренко В.М., Назаренко К.С. Таможенное обслуживание внешнеэкономические деятельности – М.: Экзамен, 2004.

[107] . Ш..Шорахмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

3) musodara qilingan tovarlar tashqi savdo oborotida, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan takroran bojxona qoidalari buzilishi va kontrabanda hollari, musodara qilingan ashyolar qiymatini, undirilgan jarimalar summasini tavsiflaydi;

4) xalqaro pochta jo'natmalari O'zbekistondan chiqarilgan va O'zbekistonga qo'yilgan jo'natmalar va boshqa pochta jo'natmalari hisobini ifodalaydi;

5) xalqaro tashishlar bojxona chegarasidan o'tuvchi transport vositalari hisobini aks ettiradi;

6) yo'lovchilar oboroti O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali o'tgan jismoniy shaxslar hisobini aks ettiradi.

Bojxona statistikasidan tashqari, yuqorida aytilganidek, tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi o'z ichiga xizmatlar bilan savdo qilish statistikasini ham oladi.

Xizmatlar - anglanadigan ashyolardan farq qiluvchi «mahsulotlar»dir. Ular transport, kommunikatsion, qurilish, sug'urta, moliya, kompyuter va axborot xizmatlarini, reklama, buxgalteriya hisobi, boshqaruv maslahatlarini va boshqalarni qamrab oladi. Bitishuv tuzishda tomonlar o'zaro kelishgan bozor narxi xizmatlar qiymatini belgilash uchun asos hisoblanadi. Tashqi savdoda xizmatlar hisobi bilan davlat statistika organlari shug'ullanadi[108].

Tashqi iqtisodiy bitishuvlarda tovarlar yetkazib berishning har xil tijorat shartlarini hamda tovar narxi shakllanishining shu bilan bog'liq turli prinsiplarini hisobgaolgan holdatovar aylanishi bo'yichayig'mama'lumotlar olish uchun tovarlar qiymati bo'yicha ma'lumotlarni shunchaki jamlash noto'g'ri bo'lgan bo'lur edi, chunki ushbu qiymat baholari turlicha bo'lib, o'ziga narx tuzilmasini shakllantirishning har xil jihatlarini kiritadi. Tashqi savdo oborotining qiymat baholanishida qiyosiy ma'lumotlarni olish uchun tovar qiymatini yagona bazisga keltirish zarur:[109]

- eksport qilinadigan tovarlarni – eksport qiluvchi mamlakatning FKB (franko – kema – borti) yoki FRCH (franko - chegara) shartlari negizida (yetkazib berish joyi);
- import qilinadigan tovarlarni – import qiluvchi mamlakat chegarasi QSF (qiymat, sug'urta va fraxt) yoki TST (tashish va sug'urta yetkazib berish joyigacha to'langan) shartlari negizida.

FKB (bortda erkin) toifasi – sotish shartidir. Unga muvofiq tovar narxiga uning qiymati hamda yetkazib berish va tovarni kema bortiga yuklash harajatlari kiritiladi.

---

[108] «Основы таможенного дело» под ред. В.Г. Драганова, -М.: Экономика, 183 бет.
[109] Муаллифлар жамоаси, Инкотемс 2000 йил китобининг 79 бети.

QSF (qiymat, sug'urta va fraxt) toifasi – tovarni sotish shartidir. Unga muvofiq tovar narxiga uning qiymati hamda tovarni sug'urtalash va import qiluvchi mamlakat portigacha yetkazib berish harajatlari kiritiladi. +SF shartlarida sotilgan tovarlar eksport bo'yicha FKB shartlari bo'yicha hisobga olinadi. Ushbu holda narxlar narxdan tovarni borish joyigacha transportda tashish va sug'urta bo'yicha harajatlar chiqarib tashlanishi yo'li bilan FKBda qayta hisoblanadi.

FKB shartlarida sotib olingan tovarlar import bo'yicha +SF shartlariga ko'ra hisobga olinadi. Ushbu holda tovarning qiymati boshqa mamlakat hududi bo'ylab tovarlarni transportda tashish va sug'urta bo'yicha harajatlar qo'shilishi yo'li bilan +SF shartlarida qayta hisoblanadi.

16. 3. Tashqi savdo bojxona statistikasida tovarlar yetkazib berishning tijorat shartlari

Bojxona ishini yuritishning xalqaro qoidalariga o'tilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hududida kontraktlarni «Inkoterms - 90» qoidalariga mos keluvchi yetkazib berishning tijorat shartlari o'n uch turi asosida tuzish mumkin. Ushbu tasniflagich shundan iboratki, barcha o'n uch atama harf bilan belgilanishida E, F, C, D lotin harflaridan biri bilan boshlanadi. Ularni umumiy tasnifga ega bo'lgan to'rt guruh bo'yicha tasniflangan.

EXW (EX WORKS) - «zavoddan» - EXB[110]

«Zavoddan» degan so'z tovar o'z korxonasida (masalan, zavodda, fabrikada, omborda va hokazolarda) haridor ixtiyoriga berilgan paytda yetkazib berish bo'ycha sotuvchi o'z majburiyatini bajarganligini anglatadi. Xususan, sotuvchi haridor tomonidan berilgan transport vositasiga tovar yuklanganligi uchun yoki agar o'zgacha hol qayd etilmagan bo'lsa, eksport boj to'langanligi uchun javob bermaydi. Haridor tovar sotuvchi korxonasidan yetkazib berish joyigacha yetkazib berish bilan bog'liq bircha harajatlar va tavakkalchiliklarni ko'taradi.

Quyida F guruhi shartlarining qisqacha tavsifi keltiriladi.

FCA – «franko tashuvchi» - FRP[111]

«Franko – tashuvchi» sotuvchi yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bojxona tozalashidan o'tgan tovarni eksport paytida haridor tomonidan tayinlangan tashuvchi ixtiyoriga kelishilgan joyda yoki punktda

[110] Муаллифлар жамоаси, Инкотемс 2000.
[111] Муаллифлар жамоаси, Инкотемс 2000.

bergandan keyin bajarishini anglatadi. Agar haridor yetkazib berishning aniq punktini ko'rsatmagan bo'lsa, sotuvchi qayd etilgan tuman doirasidagi joyni tanlashi mumkin, u yerda tashuvchi tovarni o'z javobgarligi ostiga oladi.

FAC – «Kema borti bo'ylab erkin» - FAS

«Kema borti bo'ylab erkin» atamasi tovar sohilda kema borti bo'ylab yoki yuklashning kelishilgan portida lixterlarda joylashtirilganda yetkazib berish bo'yicha sotuvchi o'z majburiyatlarini bajarganligini anglatadi. Bunda haridor shu paytdan boshlab tovarning nobud bo'lishi yoki shikastlanishiga doir tavakkalchiliklarni ko'tarishi nazarda to'tiladi. FAS shartlariga ko'ra haridor eksport uchun tovarni bojxona tozalashidan o'tkazishi talab etiladi. Ushbu atamadan, agar haridor eksport paytida bojxona rasmiyatchiliklarini to'g'ridan – to'g'ri yoki bevosita bajara olmasa foydalanish mumkin emas.

FOB – «Kema bortida erkin» - FOB

«Kema bortida erkin» atamasi sotuvchi tovar yuklashning ko'rsatilgan portida kema ixtiyoriga o'tgan paytda yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarganligini anglatadi. Bu tovar shu paytdan boshlab duch kelishi mumkin bo'lgan nobud bo'lishi yoki shikastlanishi bilan bog'liq barcha harajatlar va tavakkalchiliklarni haridor ko'tarishini anglatadi. FOB shartlari tovarning bojxona tozalashi o'tkazilishi majburiyatini yuklaydi. Sotuvchi tovarni eksport qilishda bojxona tozashini o'tkazishni talab etiladi.

C guruhiga kiruvchi yetkazib berishning har bir tijorat shartlarining qisqacha tavsifini keltiramiz.[112]

CFR - «qiymat va fraxt» - KAF

«Qiymat va fraxt» atamasi sotuvchi tovarni haridor mamlakatidagi yetkazib berishning ko'rsatilgan portiga yetkazib berish uchun zarur bo'lgan barcha harajatlar va fraxt haqini to'lashi zarurligini anglatadi. Tovarni yetkazib berish portida tushirish bo'yicha harajatlarni haridor ko'taradi. U shuningdek, agar mavjud bo'lsa, sug'urta polisi haqini ham to'laydi. Eksport rasmiyatchiliklari haqini sotuvchi, import rasmiyatchiliklarini haridor to'laydi.

CIF – «qiymat, sug'urta va fraxt» - SIF

Yetkazib berishning mazkur tijorat sharti bo'yicha sotuvchining majburiyatiga haridor mamlakatida joylashgan yetkazib berishning ko'rsatilgan portiga tovarni yetkazib berish kiradi. Sotuvchining majburiyatiga, shuningdek tovarni sug'urta qilish ham kiradi. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi, import rasmiyatchiliklari uchun haridor haq to'laydi.

[112] Муаллифлар жамоаси Инкотемс 2000 йил китобининг 89-бети.

CPT – «tashish haqi (yetkazib berish joyigacha)» to'langan – PRO

«Tashish haqi (yetkazib berish joyigacha) to'langan» atamasi sotuvchi tovarni haridor mamlakatida joylashgan ko'rsatilgan yetkazib berish joyigacha yetkazish uchun javob berishini hamda tovarni haridorning omboriga yetkazuvchi tashuvchining ixtiyoriga berishni anglatadi. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi haq to'laydi. Import rasmiyatchiliklari uchun, shuningdek, agar sug'urta polisi bor bo'lsa, yuk sug'urtalanganligi uchun haridor haq to'laydi.

CIP – «tashish va sug'urta (yetkazib berish joyigacha) to'langan» - PSO.

Ushbu tijorat sharti bo'yicha sotuvchining majburiyati haridor mamlakatida joylashgan tegishli yetkazib berish joyigacha tovarni yetkazib berishdan, shuningdek o'z hisobidan yuk sug'urtalanishini ta'minlashdan iboratdir. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi, import rasmiyatchiliklari uchun haridor haq to'laydi.

Xulosa

Ushbu mavzuda bojxona statistikasi to'g'risida ma'lumot berilgan. Bojxona statistikasi tashqi savdoda, shuningdek bojxona to'lovlarini hisobga olish va tahlil qilish, kontrabandaga qarshi ko'rash va bojxona qoidalari buzilishi, nosavdo oboroti va hokazolarbilan bog'liq maxsus sohalarda yuz berayotgan hodisalarda yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarning miqdor jihatini o'rganadi. Davlat statistikasidan farq qilgan holda bojxona statistikasida barcha dastlabki axborot eng quyi darajadan eng yuqori darajagacha beriladi, biroq unda ko'rsatkichlar jami ancha kam.

Nazorat savollari

1. Bojxona statistikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Maxsus bojxona statistikasi nima?
3. Bojxona statistikasida tovarlarni hisobga olish tartibi?
4. Bojxona statistikasini olib borishda bojxona dekloratsiyasini ahamiyati
5. FOB shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi.
6. Tulov balansi va uni aniqlash tartibi qanday?
7. FAS shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi qanday?
8. DDP shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi.
9. Xalqaro pochta junatmalarini statistikasi?
10. Bojxona ishida bojxona statistikasini o'rni.

Asosiy adabiyotlar

1. . Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

2. Верслов А.Д. Международные таможенные отношения: учеб. пособ. IVESEP, 2000.

3. Назаренко В.М., Назаренко К.С. Таможенное обслуживание внешнеэкономические деятельности – М.: Экзамен, 2004.

4. «Основы таможенного дело» под ред. В.Г. Драганова, -М.: Экономика, 1998.

XVII BOB
KONTRABANDA, BOJXONA HAQIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZILISHI HOLATLARIGA QARSHI KURASHDA BOJXONA ORGANLARINING ROLI

17. 1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi idoralari oldida bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklarga va kontrabanda jinoyatiga qarshi ko'rash eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Birlashgan millatlar tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lgandan so'ng keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va hukumatimiz tomonidan bojxonaga katta e'tibor berilib, bojxona tizimi va moddiy ta'minot bazasi kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko'mitasini tashkil qilish to'grisida"gi 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815 Farmoni hamda ushbu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'grisida" 1997-yil 30 - iyulida 374-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu hukumat hujjatdarida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi[113]:

respublika bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, belgilangan vakolatlar doirasida mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilib borish;

bojxona ishlarini amalga oshirish chogida fuqarolarning, shuningdek, yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasida bojxona nazoratini ta'minlash, shu chegara orqali tovarlar va transport vositalari o'tishini tezlashtirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

kontrabandaga, bojxona qonunchiligini buzishlarga qarshi ko'rashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog, valyuta boyliklari, milliy boylik hisoblanuvchi badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari,

[113] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, Т., Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

aqliy mulk obyektlari respublikaning bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda olib o'tilishiga chek qo'yish;

savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning bojxona vositalarini qo'llash, boj xaki, soliqlar hamda boshqa bojxona to'lovlarini undirib olish;

xorijiy davlatlarning bojxona organlari bilan, bojxona ishi masalalariga mutasaddi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taallukli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash;

tashki iqtisodiy faoliyatga oid bojxona statistikasi va tovar nomenklaturasini yuritish;

bojxona ishi sohasidagi faoliyat to'grisida axborot to'plash hamda unga ishlov berish borasidagi avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish va joriy etish.[114]

O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona ko'mitasi huquqni muhofaza qiluvchi organ bo'lib, u quyidagi huquqqa egadir:

bojxona masalalari bo'yicha xalqaro huquq normalariga muvofiq, belgilangan tartibda xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalariga amal qilgan holda bojxona organlarining vakolatiga dahldor huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv ishlari va zarur tezkor-kidiruv chora-tadbirlarini o'tkazish;

bojxona qonunchiligi buzilganligi uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy ta'sir choralarini ko'llanish;

aybdorlarni javobgarlikka tortish masalasi davlat bojxona organlarining vakolatlari doirasidan chiqadigan hollarda huquqbuzarlik faktlari bo'yicha hujjatlarni tergov va sud organlariga topshirish;[115]

tovarlar va trasport vositalari respublika bojxona chegarasi orqali olib o'tilishining qonuniy asoslarini aniqlash uchun vazirliklar, idoralar, tashkilotlardan va mahalliy hokimiyat idoralaridan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan tashqi iqtisodiy aloqalarning qatnashchilaridan (mulkchilik shakllari va idoraviy mansubligidan kat'iy nazar) belgilangan tartibda materiallar va hujjatlarni olish.

---

[114] Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида»ги Қонуни, -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.

[115] Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2001.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi narkobiznes va qurol-yarog kontrabandasi, ekstremizm va terrorizmga qarshi xalqaro maydonda barcha davlatlar bilan keng mikyosda hamkorlik kilmoqda. Bojxonaga doir qonunbuzarliklar iqtisodiy jinoyatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, suveren davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta zarar yetkazib, Respublika rahbariyati va xalqini jiddiy tashvishga solmoqda.

Davlat bojxona ko‘mitasi boshqa qonunni muhofaza qilish organlari bilan yaqindan hamkorlikda davlatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan kriminal guruhlarni aniqlash va ularni jinoiy harakatlarini oldini olish bo‘yicha faol ish olib bormoqdalar.

Bojxona organlarining faoliyatlari yo‘nalishlaridan biri, Respublikaga noqonuniy tarzda aylanma yo‘llar orqali, o‘rnatilgan qonun qoidalar ni buzgan holda bojxona deklaratsiyasidan o‘tkazmay, tovarlarni olib kirishni oldini olishdir.

Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek, «Tovarlarning kontrabanda yo‘li bilan nazoratsiz, noqonuniy tarzdagi oqimiga hech bir davlat iqtisodiyoti dosh bera olmaydi».

Davlat xavfsizligiga taxdid solayotgan jinoyatlar qonunni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan munosib ravishda qarshilikka duchor bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, bo‘larning hammasi bizni bu hodisalarga qarshi mustaqil qonuniy asoslarni yaratishga zaruriyat tugdiradi.

Kontrabandaga, bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to‘lovlarini to‘lashdan bosh tortishga qarshi ko‘rash funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o‘tilgan funksiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavkei ham belgilab berilgan, bu o‘z funsional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi.[116] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, Т., Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998 й. 182 моддаси.

17. 2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun beriladigan jazo turlari

Bojxona bilan bog’liq huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlikka tortish, O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo‘llash

[116] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, Т., Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

amaliyoti O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining IX va X bo‘limlari qoidalari bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta’sir ko‘rsatish choralariga tegishli masalalar bo‘yicha normativ baza shakllanadi.

Bojxona kodeksida bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izoh berilgan. U 129 moddada keltirilgan. Ushbu moddaga muvofiq bojxona kodeksida va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslik bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 38-moddasiga muvofiq bojxona organlari bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to‘grisidagi ishlar bo‘yicha surishtiruv organlari hisoblanadi.

Jinoiy ishlar bo‘yicha surishtiruv dastlabki tergov uchun amaldagi jinoyat protsessual qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda va qoidalar bo‘yicha amalga oshiradi. Surishtiruvni surishtiruv organlari boshliklari yoki ularning topshirigiga ko‘ra surishtiruvchilar olib boradi[117].

Bojxona organlari O‘zR JPK 38-moddasi 8-bandiga muvofiq bojxona organlari haqidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun, ya’ni O‘z.R JK 182, 185-1, 186-1 va 246-moddasida nazarda tutilgan belgilar mavjud bo‘lgan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv olib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2003 yil iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, mamlakatimizga ko‘p miqdordagi tovarlarning noqonuniy ravishda, ya’ni kontrabanda yo‘li bilan olib kirilgani tashvish tugdirmoqda. «Ochiq aytishimiz kerak, - dedi Yurtboshimiz, - chegaralarimiz va chegara hududlarimizda mamlakatimizga kontrabanda yo‘li orqali tovar olib kirish bilan shug‘ullanadigan kuchli, uyushgan, korrupsiyalashgan jinoiy tizim amalda shakllangan va u iqtisodiyotimizga katta zarar yetkazmoqda. Biz tovarlarni chetdan olib kirish va sotishning qonuniy tartibini ishlab chiqdik va bugungi kunda bu boradagi ishlarni izchil davom ettirmoqdamiz. Bizning maqsadimiz, birinchi navbatda, mamlakatimizga usti yaltiroq, ichi qaltiroq, sifati past tovarlar, jumladan iste’mol qilish muddatlari o‘tgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar olib kirilishiga to‘siq qo‘yishdir. Bu masalada, butun dunyoda bo‘lganidek, bojxona tekshiruvini, davlat xazinasiga tegishli soliq va bojlar to‘lanishini ta’minlashdir»[118].

[117] Ўзбекистон Республикаси ЖПК 38-моддаси.

[118] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 майдаги 154-сонли Қарори

Bu borada «Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to'grisida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 maydagi 154-sonli qarori qabul qilindi.

Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib o'tilgan holatlar va ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni sharaf bilan bajarish uchun xodimlarimiz O'zbekiston Respublikasi bojxona faoliyatiga doir qonunchilikni mukammal bilishlari hamda bu qonunlarni amaliyotda to'gri ko'llay bilishlari lozim.

Xulosa

Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Birlashgan millatlar tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lgandan so'ng keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va hukumatimiz tomonidan bojxonaga katta e'tibor berilib, bojxona tizimi va moddiy ta'minot bazasi kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko'mitasini tashkil qilish to'grisida"gi 1997 yil 8 iyuldagi PF-1815 Farmoni hamda ushbu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'grisida" 1997 yil 30 iyulida 374-sonli Qarori qabul qilindi.

Nazorat savollari

1. Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari.
2. Bojxona organlarining kontrabanda, bojxona qonun hujjatlari buzilishiga qarshi ko'rashda roli.
3. Kontrabanda, BKBga qarshi ko'rashni tashkillashtirishda bojxona xizmati xodimi vazifalari.
4. «Kontrabanda va bojxona qoidalar ini buzilishiga qarshi ko'rash» fanini yoritadigan mavzular.
5. Bojxona Kodeksining 186 moddasida nima deyilgan?
6. Bojxona Kodeksining 246 moddasi to'g'risida gapiring?
7. Kontrabanda deganda nima tushinasiz?
8. Bojxona qoidalar ini buzilishi deganda nimani tushinasiz?
9. Narkotik moddalar kontrabandasi deganda nima tushinasiz?
10. Kurol yarog kontrabandasi deganda nima tushinasiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, -Т.: Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

2. Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиғи, 2001.

3. «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, -Т.: 1999.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 31 июлдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалари ва прекурсорларини Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тўғрисида»ги ПП-393-сон Қарори.

XVIII BOB
BOJXONA HAQIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZILISHI TUSHUNCHASI VA JAVOBGARLIK

18. 1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi

Kontrabandaga, bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to'lovlarini to'lashdan bosh tortishga qarshi ko'rash funksiyasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilgan funksiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavkei ham belgilab berilgan, bu, shubxasiz, o'z funksional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi.[119]

Bojxona organlari bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi ko'rash vazifasini hal etib, bojxona xakdagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar. Bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish sohasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo'llash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining IX va X bo'limlari qoidalar i bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralariga tegishli masalalar bo'yicha normativ baza shakllanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi tushunchasi. Bojxona kodeksida bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izoh berilgan. U 129-moddada keltirilgan. Ushbu moddaga muvofiq Bojxona kodeksida va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga aybli g'ayrihuquqiy rioya etmaslik bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi deb hisoblanadi.

Aytib o'tilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi – Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konuni, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu

[119] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, Т., Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

jumladan, bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lashga, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqqa zid tusdagi xatti-harakati yoxud harakatsizligidir. Buning uchun (ya'ni, ularning huquqqa zid tusdagi xatti-harakati yoki harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Javobgarlik subyektlari. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik subyektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O'zbekiston Respublikasi shaxslari ham, xorijiy shaxslar ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:[120]

a) fuqarolar (ular huquqbuzarlik sodir etilgan paytda un olti yeshga tulganda);

b) mansabdor shaxslar (agar ular huquqbuzarlik sodir etgan paytda ularning xizmat vazifalariga Bojxona Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsa);

v) yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan kat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);

g) yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-bulimi 134-172-moddalarida bojxona haqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

18. 2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzilishi no'g'risidagi ish yuritilishini ta'minlash

Fuqarolar va mansabdor shaxslarning javobgarligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning kilmishlarida jinoyat alomatlari bo'lgan taqdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar[121].

Xukukni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi (yuridik shaxs) o'rtasida o'zaro munosabatlar paydo bo'lganda, huquq buzish mavzusi esa fuqaroga tegishli tovar bo'lganda bojxona qoidalar ining buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin. Mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etilishi

[120] «Гиехвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўгрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, Т., 1999.

[121] Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодекси.

paytida Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning xizmat majburiyatlariga kirsa, bojxona qoidalar i buzilganligi uchun javob beradi.

Yuridik shaxslarning javobgarligi. Yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan Bojxona kodeksining 134-172 moddalarida nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan ular o'z xizmat vazifalarini bajarish chogida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yukni oluvchi, junatuvchi, tashuvchi, saklovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlari yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan bojxona qoidalar ining buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi.

Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lgan tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi[122].

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi (Bkning 132-moddasiga muvofiq):

1. Jarima. Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tovarlar va transport vositalarining

[122] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси.

qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.

2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan litsenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish. Litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo do'konlari, erkin omborlar, vaqtincha saqlash omborlariga, shuningdek, bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga yoki bojxona rasmiylashtiruvi mutaxassisiga ular tomonidan bojxona qoidalar i buzilganligi uchun, agar ushbu huquqbuzarliklar ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan litsen ziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bo'lsa, qo'llanilishi mumkin.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish. Musodara qilish – bojxona qoidalar i buzilishi obyekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib kuyilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jarima asosiy jazo sifatida qo'llaniladi, BK ning 132-moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan jazolar esa, ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanuvchi shaxs tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlari bir necha marta buzilsa, har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo beriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj to'lovlarini to'lash va Bojxona Kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi[123].

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo belgilash muddatlari. Bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarin amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini qaytarib olish hamda jarima ko'rinishida jazo belgilash bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish holati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay, byudjetga bojxona to'lovlarini to'lamaslik bilan bog'liq ishlar bo'yicha – besh yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish ko'rinishidagi jazo

[123] Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси.

bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilgan yoki aniqlangan vaqtdan hamda u asosiy yoki qo'shimcha jazo ekanligidan kat'iy nazar qo'llaniladi.

Tovarlar va transport vositalarini gayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

Xulosa

Bojxona organlari bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi ko'rash vazifasini hal etib, bojxona xakdagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar. Bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish sohasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo'llash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining IX va X bo'limlari qoidalar i bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralariga tegishli masalalar bo'yicha normativ baza shakllanadi.

Nazorat savollari

1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi tushunchasi.
2. Bojxona qonunchiligi buzilishi tarkibi.
3. Bojxona qonunchiligi buzilishining obyektlari.
4. Bojxona qonunchiligi buzilishining subyekti va subyektiv tomoni.
5. Fuqaro, mansabdor va yuridik shaxslarning javobgarligi.
6. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzilganlik uchun beriladigan jazo turlari.
7. Bojxona qonunchiligi buzilishining obyektiv tomoni.
8. Bojxona haqidagi qonunlarni buzganda qanday jazo choralari qo'llanadi?
9. Bojxona haqidagi qonunlarni rasmiylashtirish tartibi.
10. Bojxona haqidagi qonunni buzganlarligi uchun dastlabgi qilinadigan ishlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, -Т.: Адолат, Иқгисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
2. Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2001.
3. Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2001.

4. Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида»ги Қонуни, -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.

5. Ўзбекистон Республикасининг «Бож тарифи тўғрисида»ги Қонуни, -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.

6. «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, -Т.: 1999.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 31 июлдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалари ва прекурсорларини Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тўғрисида»ги ПП-393-сон Қарори.

XIX BOB
GIYOHVANDLIK VOSITALARI KONTRABANDASI VA UNGA QARSHI KURASH

19. 1. Surishtiruv jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

Giyohvandlik vositalari, ularning xususiyatlaridan, chunonchi qanday moddadan tayyorlanganligi, tabiiy yoki sun'iyligi, ziyon yetkazish darajasi hamda narkotik ta'siri, fizik va ruhiy ta'siri, hamda umumiy kimyoviy tarkibidan kelib chiqib, turli xillarga bo'linadi.

Ruhiy ta'siri kuchli bo'lgan, jiddiy ziyon yetkazuvchi vositalar sirasiga quyidagi tabiiy va sintetik giyohvand moddalar kiradi:

- kannabis turdagi dori-darmonlar;
- kokain va kokadan tayyorlanadigan boshqa dori-darmonlar;
- barbituratlar vaboshqagi piotik vositalar;
- kichik trankvilizatorlar, amfetomiklar va ularga o'xshash ta'sirga ega bo'lgan vositalar;
- LSD hamda boshqa alaxsiratuvchi vositalar;
- nazorat ostidagi vositalar va ularga o'xshash narkotiklar;
- organik eritmalar va boshqa preparatlar.

«Giyohvandlik (narkotik) vositalari» atamasi ham yuridik ma'noda, ham farmakologik ma'noda qo'llaniladi. Yuridik nuqtai nazardan «giyohvandlik vositalari» bu inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi har qanday narkotik, ya'ni bangilik chaqiruvchi, giyohvandlikka ehtiyoj uygotuvchi moddalardir.[124]

Farmakologiya dori-darmon vositalari haqidagi fan bo'lib, bo'larning kimyoviy xususiyatlarini organadi. Farmakologiya nuqtai-nazaridan «giyohvandlik vositalari» deganda Papaver somniferum o'simligi, ya'ni kuknorining alkaloidlari tushuniladi.

Giyohvand (narkotik) moddalar deb ataluvchi vositalar doirasiga quyidagi gruppalar kiradi[125]:

a) Tabiiy narkotiklar — giyohvand moddalar:

- opiy; bevosita Papaver somniferum o'simligidan olinadi;
- morfin, kodein va tebain; bo'lar opiydan olinadi.

b) Yarim sintetik giyohvand moddalar:

---

[124] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 31 июлдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалари ва прекурсорларини Ўзбекистон Республикаси худуди орқали олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида утказиш тўғрисида»ги ПП-393-сон Қарори.

[125] В.И. Ботлева «Расследование контрабанды» Москва «Логос» 2005 йил.

- geroin (diamorfin);
- gidromorfon (dimorfon);
- oksikodon (digidron);
- etorfin.

v) kuchli ta'sir etuvchi sintetik giyohvand moddalar:
- metadon (dolofin);
- meperidin, petidin (demerol).

g) kuchsiz ta'sir qiluvchi sintetik giyohvand moddalar:
- propoksifen (darvon);
- peptazotsin (talvin).

Tabiiy giyohvandlik vositalarining ko'p tarqalganlaridan biri opiy, ya'ni qora doridir.

Opiy oluvchilar kuknorining xali pishmagan kusagini tilib kuyadilar; tilingan joylardan oqqan shira kusak ustida qotib qoladi. Ana shu opiy xom ashyosidir. Opiy shaklga ega bo'lmagan qattiqsimon modda bo'lib, to'q jigarrangdan qora ranggacha bo'ladi. Ba'zan suyuq holda ham uchraydi. Achchiq ta'mga ega, yokilganda yorug' alanga berib yonadi va yoqimli hid tarqatadi. Suyuq holatdagi opiydan quritilgan meva hidi keladi. Giyohvandlar opiyni 3 yo'l bilan – ovqatga solib, o'rab chekish orqali va tomirdan yuborib iste'mol qiladilar (jargon tilda teryak, opiyuxa, ximanka, koraxon, sultoga deb ataydilar).

Opiydan olinadigan bir qator farmatsevtik dori-darmonlar, masalan opiyning kamfora eritmasi ham bor, ammo ular hozir qora bozorda kam uchraydi. Opiy asosan morfin, kodein va geroin olishda xom ashyo sifatida qo'llaniladi.[126]

Dunyoda yetishtiriladigan opiyning katta qismi «oltin uchburchak» deb nom olgan Myanmi, Tailand va Laos hududlaridan iborat Janubi-Sharqiy Osiyoning keng mintaqasidan olinadi. Bu mintaqa 1960-yillar oxiri 1970-yillar boshlarida dunyoga eng ko'p noqonuniy opiy yetishtirib beruvchi hudud edi. Bu yerda tahminan har yili 700 tonna atrofida opiy yetishtiriladi. Bu oltin uchburchak bir necha vaqt davomida G'arbiy Yevropa bozorlariga geroin yetkazib berish bo'yicha ustunlikni kuldan bermay keldi[127].

Noqonuniy opiy va geroin bilan savdo qiluvchi yana bir muhim hudud «Oltin yarimoy» deb ataladi. Uning chegarasi xuddi yarim oyga o'xshagan bo'lib, Janubi-G'arbiy Osiyoda joylashgan Pokiston, Eron va Afgoniston islom respublikasini yekalab o'tgan. 70-yillar oxirida opiy va geroin ishlab

[126] В.И. Ботлева «Расследование контрабанды» Москва «Логос» 2005 йил 96 бет.
[127] «Наркотики и пути его пересечение» журнал «Таможня» 14 март 2005 йил № 1 (312)

chiqaruvchi eng yyetakchi hududga aylangan «Oltin yarimoy» mamlakatlari ancha arzon, lekin kuchli ta'sirga ega bo'lgan geroin uchun xom ashyo yetishtirib bera boshladilar. Kuknori opiysi shuningdek Gvatemala, Hindiston, Meksika, Polsha sobiq SSSR davlatlari hududida va keyingi paytlarda Livanda noqonuniy ravishda yetishtirib kelinmoqda.

BMTning 1961 yildagi Yagona konvensiyasiga hamda Narkotik moddalar to'g'risidagi 1972 yildagi qarorga muvofiq giyohvand vosita hisoblangan opiy kuknorining kotgan shirasidan olinadi, deb belgilanadi.

Morfin. Opiydan olinadigan kuchli giyohvand moddalardan biri morfin bo'lib, u tibbiyotda ham keng qo'llaniladi. Keyingi yuz yildan ziyed vaqt davomida uni og'riq qoldiradigan vositalar orasida eng yaxshisi deb bilishgan. Morfin tibbiy maqsadlarda tuz (morfin sulfati) ko'rinishida qo'llaniladi. Bu hech qanday hidga ega bo'lmagan tabletka yoki aralashma tarzidagi kristall kukundir. Morfin shifoxonalarda maxsus hisobda turadi, uni olish va ishlatish uchun mas'ul xodimlar tayinlanadi. Opiydan morfin oluvchilar uni issiq suvda eritib, aralashmaga ohak kushadilar, xosil bo'lgan organik moddalar chukkach, eritmada qolgan morfin ammoniy xlorid qo'shib ajratib olinadi. U filtrlangach, ko'p bosqichli tozalashdan o'tadi. Xuddi yirik bugdoy donalariga o'xshab qoladi. Shundan keyin morfin quritilib idishga solinadi. Uning og'irligi dastlabki xom ashyoning 10 foiz miqdorida bo'lib qoladi.

Morfin (jargon tilda: morfi, marfuta, mariya, maryanka) tuk sarik yoki tuk pushti rangga ega, saqlangan sari tuklashib boradi. Achchik ta'mi bor, hidi yuk. Mayda kristall kukun shaklida bo'lib, teri ostidan va tomirdan yuboriladi.

Morfindan kodein va gidromorfon olinadi. Beshinchi bosqichli tozalash jarayonida morfin geroinga aylanadi. 10 kg tozalangan morfindan shuncha geroinni olish mumkin. Uning tozaligi 80 foizdan 90 foizgacha bo'lishi mumkin.

Kodein. Kodein birinchi marotaba 1832-yili morfindan olingan bo'lib, tarkibida 0,7-2,5 foiz opiy moddasi bor: tibbiyotda yutalni qoldirish uchun qo'llaniladi.

Giyohvand modda sifatida uning ko'p qismi morfinni qayta ishlash orqali olinadi, ammo ta'sir kuchi morfindan pastroq hisoblanadi. Bu oppok kristall shaklidagi kukun yoki tabletka shaklida bo'ladi. Unga tez o'rganishadi, chunki kutilgan darajaga erishish uchun u moddadan ko'proq qabul qilish kerak bo'ladi. Kodein jargon tilda katyuxa, pur, koda deb yuritiladi.

Geroin. Yarim sintetik giyohvand moddalarga geroin, gidromorfon, oksikodon yoki etofin kiradi. Kora bozorda uchraydigan geroin (diatsetilmorfin) shakli va rangiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. U ok, sarg'ish, jigarrang yoki qora rangli kukun yoxud donacha shaklida bo'ladi.

Geroin markaziy asab tizimiga yuqori darajada ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega; uning ta'siridan nafas yo'li, yurak kon-tomir kasalliklari kelib chiqadi. Ich yurishi zaiflashadi. Geroin kon tomiriga yuborilganda, pnevmaniya va boshqa yukumli kasalliklar, xato SPID ham kelib chiqishi mumkin; uni qabul qilish natijasida ishtaxa bugiladi, odam juda ozib ketadi va oxir oqibatda nafas siqishi natijasida halok bo'lishi mumkin.

Geroinning turli xillari, u olinadigan hududlardan nisbatan toza holda keltirilsa ham, iste'mol bozoriga odatda biroz suyultirilgan holda chiqariladi. Uni suyultirish uchun laktoza (sut shakari), glukoza, xinin, makka kraxmali yoxud kukun shaklidagi suvda eriydigan har qanday modda ishlatiladi. Geroinni quruq saqlash maqsadida selofan plenkaga yoki zar qog'ozga o'raladi. Odatda eritmani qizdirilganda chiqadigan buglarni hidlash, yoki kukunini har bir burun katagi bilan alohida hidlash orqali yoxud suvda eriganini ukol qilish orqali iste'mol qilinadi. Jargon tilida gera ham deb yuritiladi.

Gidromorfon. Dilaudid nomi bilan ma'lum bo'lgan bu yarim sintetik giyohvand modda morfindan bir necha barobar kuchli, ammo ta'sir vaqti qisqarok. U geroin o'mida ham qo'llaniladi. Tabletka ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Oksikadon. Oksikadon (perkodan) kodeinga o'xshash bo'lsada, ta'sir kuchi ancha yuqori; qora bozorda og'riq qoldiradigan vosita sifatida ham sotiladi. Tabletkalari suvda eriydi. Eritmani filtrdan o'tkazib inyeksiya yo'li bilan qabul qilinadi.

Etorfin. Etorfin morfinni qayta ishlashdan olingan birikmalardan bo'lib, o'z ta'sir kuchiga ko'ra morfindan bir necha bor kuchliroq. Etorfin gidroxloridi veterinariyada ayrim xayvonlarni tinchlantirishda ham qo'llaniladi.

Metadon. Metadon kuchli ta'sir qiluvchi sintetik giyohvand moddalar qatoriga kiradi. O'zining kimyoviy xususiyatiga ko'ra morfin yoki geroindan farq qiladi, lekin ta'siri juda kuchli. O'ning bir dozasi 24 soatgacha ta'sir kuchini saqlashi mumkin. Tibbiyotda keyingi paytlarda geroin bo'yicha giyohvand bo'lib qolgan bemorlarni davolashda qo'llanilmoqda.

Petidin va meperidin (demerol). Kuchli ta'sir qiluvchi bu sintetik giyohvand moddalar demerol nomi bilan sotiladi. Kimyoviy xususiyatiga ko'ra, ular morfindan farq qiladi, lekin ta'sir kuchi o'xshash bo'ladi. Og'riq qoldiradigan dori sifatida keng qo'llaniladi. Juda kam holatlarda demerol giyohvand modda sifatida qo'llanishi mumkin. Ko'pincha u vrach tomonidan quvvatni tiklash maqsadida tavsiya etilishi mumkin.

Kam ta'sir etuvchi sintetik giyohvand moddalar qatoriga propoksifen va pentazotsin kiradi. Ularni suiiste'mol qilish oqibatida salomatlikka jiddiy ziyon yetkazilishi mumkin.

Propoksifen Darvon yoki Dolene nomi bilan sotiladi; boshqa giyohvand moddalarga taqqoslaganda, ta'sir kuchi ham, o'ziga moyillik tugdirishi ham kamroq.

Pentazotsin – savdoda Fortal, Pentalgin va Taiwin nomlari bilan ataladi; kodeinga o'xshash kuchli ta'siri bor.[128]

Kannabis preparatlari.

Kannabis hind konoplyasi nomi bilan mashxur bo'lib, issiq yoki mu'tadil iqlimda usuvchi bir yillik o'simlikdir. Uning bo'yi 1 metrdan 3 metrgacha, hatto undan ham baland bo'lishi mumkin, barglari yopishuvchan, yaltiroq, ayni paytda yuza qismi nuqtalar bilan qoplangan, o'tkir tig'li yapaloq tarzida bo'ladi. Barglari va gullaydigan uchlarida ruhiy ta'sir ko'rsatadigan modda – tetrogidrokannibol (TGK) mavjud. Kannabis o'sgan sari ana shu giyohvand moddasi bor qismlari terib boriladi. Noqonuniy muomalada ana shu qismlari sotiladi. Sutasi hamda sutasining yonidagi shoxchalari ham ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi moddalarga ega, ammo ulardan tayyorlanadigan narkotiklarning ta'siri sust bo'ladi. Kannabis (nasha) o'simligidan ruhiy ta'siri kuchli quyidagi preparatlar tayyorlanadi:

a) **marixuana** nasha o'simligining barglaridan va yuqori qismidan olinadi, rangi barg rangiga o'xshash yoki och jigarrang bo'lib, tarkibida nasha o'simligining urug'lari bo'lishi mumkin (jargon tilida: dur, plan, klever, bojya travka, seno deyiladi).

b) **smola** nasha o'simligidan tayyorlanadigan ancha kuchli preparat bo'lib, u smolali shoxchalarni eritmada kaynatish yoki qirib olish yo'li bilan olinadi, so'ng zichlanadi va iste'mol qilinadi.

v) **gashish yogi** yopishuvchan qora suyuqlik bo'lib, kannabisdagi moddalarni eritib olinadi.

Bunday preparatlar Karib xavzasida, Afrika va Janubiy Osiyoda ham tayyorlanadi, turli mamlakatlarda turlicha shakl va nomlarga ega, masalan, Osiyoda ular ganja, chars va bank deb ataladi.

Ganja – o'simlikning yosh barglari va gullaydigan qismidan, smolasini zichlashtirib, yelimga o'xshash modda olinib, undan yupqa va dumaloq kulchalar tayyorlanadi; hidi o'tkir, mazasi yoqimli bo'ladi. Rangi to'q yashil yoki jigarrang.

Chars – bu ona o'simlikning yuqori qismidan olingan tayyor smola bo'lib, sarg'ish kul rang – oqish kukunga aylanguncha yedirilib boriladi, so'ng kulcha yasaladi. Rangi jigarrang bo'ladi, ta'siri ganjadan yuqoriroq.

Bang – nasha o'simligining ancha pishgan barglaridan chekish uchun

[128] В.И. Ботлева «Расследование контрабанды» Москва «Логос» 2005 йил 109 бет.

tayyorlanadi. Gohida un, yog‘ qo‘shib kaynatiladi va shurvasi ichiladi. Bang ganja va charsga qaraganda kuchsizroq.

G‘arbiy Osiyoda gashish termini kannabis barglari va smolasini, shuningdek ularning aralashmasini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shimoliy Afrikada mayda dag‘al kukun holiga keltirilgan o‘simlik smolasi va yuqori qismi Marokashda «kif», Jazoir va Tunisda «takrauri», Markaziy va Janubiy Afrikada «dagga» nomi bilan yuritishadi. Kanday atalishidan kat’iy nazar, kannabisning ta’siri asosan bir xil bo‘lib, tarkibidagi TGK miqdoriga bog’liq bo‘ladi.[129]

19.2. Sintetik giyohvand moddalari va ularni turlari

Kokain va boshqa koka preparatlari.

Koka o‘simligidan olinadigan preparatlar, shu jumladan, bargi, kokain pastasi, kokain, krek-kokain markaziy asab tizimiga kuchli ta’sir qiluvchi vositalar hisoblanib, yuqori darajada zarar yetkazish xususiyatiga egadir.

Koka barglari. Koka butasi odatda Peru, Kolumbiya, Boliviyada, qisman esa Janubiy Amerikaning boshqa hududlarida yetishtirilib, bo‘yi 1,5 metrgacha yetadigan o‘simlikdir. Har butasida 7-8ta silliq, tuxum shaklidagi barglari bo‘lib, quvvat berish, ochlikni qondirish xususiyatiga ega. Janubiy Amerikaning And hududida deyarli ming yildan beri barglariga ohak o‘rab surishadi. Koka barglarida tahminan 0,1-1 foiz kokain bo‘ladi. Kokain koka barglaridan olinadiga alkoloid bo‘lib, u kimyoviy usul bilan olinadi.

Hozirgi paytda giyohvandlikni XX asr vabosi deb talqin qilinishi — uning insoniyat uchun, yadro xavfidan keyingi o‘rinda turadigan eng jiddiy xavf-xatar ekanligidan dalolat beradi.

Giyohvand moddalar bilan noqonuniy ravishda shug’ullanish barcha mamlakatlarda, hamma xalqlar o‘rtasida eng qabix ish, eng og’ir jinoyat deb hisoblanadi. Giyohvand moddalar bilan bo‘ladigan barcha ishlar davlat nazoratida bo‘lishi kerak. Lekin yakka holda olingan bir davlat giyohvandlikni tag tomiri bilan tugatishi mushkul vazifa. Shuning uchun, ayniqsa, narkobiznesning jahon miqyosida harakat qilishini hisobga olib, giyohvand moddalar ustidan bo‘ladigan nazoratni butun dunyo miqyosida olib borish eng dolzarb muammodir.

Xulosa

Ushbu mavzuni o‘qish natijasida talabalar narkotik vositalar , ularning kelib chiqishi, ularni yetishtiruvchi mamlakatlar, narkotik vositalarni tarqalish yo‘llari, narkotik vositalarni yetishtirish uchun xom ashyolar va

[129] В.И. Ботлева «Расследование контрабанды». Москва, «Логос» 2005 йил 129 бет.

ularni yetishtirish, narkotik vositalarni istemol qilishni odam organizmi uchun zarari to‘g’risida Giyohvandlik vositalari, ularning xususiyatlaridan, chunonchi qanday moddadan tayyorlanganligi, tabiiy yoki sun’iyligi, ziyon yetkazish darajasi hamda narkotik ta’siri, fizik va ruhiy ta’siri, hamda umumiy kimyoviy tarkibi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Nazorat savollari

1. Giyohvandlik vositalarining turlari.
2. Giyohvandlikning ijtmioiy xavfi.
3. Giyohvandlik vositalarni noqonuniy ishlab chiqarishga qarshi ko‘rash.
4. Giyohvand vositalar haqidagi 1961 yilgi yagona konvensiya – BMT, Nyu-York, 1977 yil.
5. Giyohvand moddalarni aniqlash usullari.
6. Giyohvandlik vositasini istemol qilishning zarari haqida gapiring?
7. «Oltin yarim oy» guruhiga kiruvchi mamlakatlar qaysilar?
8. «Oltin uchburchak» guruhiga kiruvchi mamlakatlar qaysilar?
9. Narkotik vositalarni kelib chiqish tarixi.
10. Psixotrop moddalar va ularni zarari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, -Т.: Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
2. Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2001.
3. «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, -Т.: 1999.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 31 июлдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалари ва прекурсорларини Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тўғрисида»ги ПП-393-сон Қарори.

XX BOB
«GIYOHVANDLIK VOSITALARI KONTRABANDASI VA UNGA QARSHI KURASH» MAVZUSIDA YANGI PEDOGOGIK TEXNOLOGIYA BO'YICHA TAYYORLANGAN MA'RUZA MATNI

Fakultet, kafedra o'qitish bosqichi.	O'quv fani	Ma'ruza mavzusining o'quv dasturidagi o'rni
«Xalqaro biznes» fakulteti «Bojxona ishi va logistika» kafedrami	«Kontrabanda va bojxona qoidalarining buzilishiga qarshi ko'rash» fani	10– mavzu 2 soat
Talabalar soni 26 ta.	O'quv guruhi TD-61, 62	O'qituvchi, Alimbekova K.K.
Ma'ruza mavzusi	Giyohvandlik vositalari kontrabandasi va unga qarshi ko'rash.	
Ma'ruza rejasi:	1 Giyohvandlik vositalarining turlari. 2. Giyohvadlikning zarari va ijtimoiy xavfi. 3 Giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarishga qarshi ko'rash.	
Asosiy tushuncha va terminlar.	Kontrabanda, bojxona chegarasi, giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog', valyuta boyliklari, milliy boylik, madaniy-tarixiy va arxeologik meros, aqliy mulk obyektlari, qonunga xilof ravishda, bojxona to'lovlarini o'ndirish, axborot tuplash, tergov ishlari, qidiruv ishlari, ekspertiza o'tkazish, huquqbuzarliklar, guvohlarni tergov qilish, jinoyat ishini ko'zgatish, jinoyat subyekti, jinoyatni obyekti, narkobiznes qarshi ko'rash.	
Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar ruxati.	1.□зР Божхона кодекси, -Т. «Иітисодиет ва μуіуі дунеси», 1998. 2.□зР Жиноят кодекси, -Т.· 1998. 3 Таможенноіе право. Экзаменатсионныіе ответы Шпаргалки – М : Буклайн, 2004 4.Пилейева В.В. Комментарий к таможенному кодексу РФ. – М : ТК Влети, 2003. 5.Миляков Н В. Таможенная пошлина. -М. Економист, 2004. 6.Под ред.К.Ф.Скворсова «Расследованийе контрабанды», -М.: юрист, 1999	
O'quv darsining maqsadi	Talabalarga kontrabanda va bojxona qoidalar ini buzilishiga qarshi ko'rashish va bu ishda xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni zonada rivojlantirish va takomillashtirish: respublikamizning bojxona chegaralari orqali giyohvandlik moddalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog', valyuta boyliklari, madaniy – tarixiy va arxeologi meros buyumlari, intellektual mulk obyektlarining noqonuniy olib utilishining oldini olish kabi asosiy vazifalar to'g'risida bilim berish	
Pedogorikani maqsadi. 1.Talabalarga ma'ruza mavzusini tuzilishi to'g'risida ma'lumot berish; 2.Giyohvantlik vositalarining turlari bilan tanishtirish; 3.Giyohvantlikning zarari va ijtimoiy xavfi to'g'risida ma'lumot berish; 4.Giyohvantlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarishga qarshi ko'rash usullarini o'rgatish;	O'qitish faoliyatining natijasi: 1.M'ruza matnini mazmunidan kelib chiqib uni muammosini aniqlaydilar, 2 Giyohvantlik vositalarining turlarini ko'rsatadilar; 3 Kursatilgan muammoni hal qilishning har –xil yo'llarini baholaydilar va giyohvantlikning ijtimoiy xavfi va zarari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar; 4.Giyohvantlikka qarshi ko'rash usullarini organadilar va bu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.	

O'qitishning usullari va shakllari	Ma'ruza, savol, javob (blis opros) aqliy xujum Auditoriya bilan yuz-yuz ishlash (frontalnaya)
O'qitish jihozlari	Ma'ruza matni, sxemalar, har – xil rasmlar va slaydlar.
O'qitish sharti	Guruhlarda ishlash uchun texnik jihozlangan auditoriya.
Mazkur o'quv mashg'ulotida talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv ko'nikmalarini ro'yxati.	O'zR Bojxona kodeksi, UzR Jinoyat kodeksi, jinoyatchilikka va bojxona qoidalar ini buzilishiga qarshi ko'rashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi va Vazirlar Mahkamasini chiqargan qarorlari, hamda DBK tomonidan shu borada chiqarilgan

«Giyohvandlik vositalari kontrabandasi va unga qarshi ko'rash» mavzusidagi ma'ruzani texnologik kartasi

Bosqichlar	O'qituvchi	Talabalar
Tayyorgarlik ko'rish bosqichi	Muammoni shakllantirish va yakuniy xulosa chiqarish Kichik muammolar bo'yicha dastlabki xulosalarni chiqarish. Ushbu muammolarni hal etishda talabalarni faol qatnashishini ta'minlash maqsadida savollar ro'yxatini tuzish. Muammoga kirish uchun uni yo'llarini aniqlash.	Eshitadilar va yozadilar
1. Bosqich. Ma'ruza darsiga kirish (10 daqiqa).	1.1.Ma'ruza matnini mavzusini, uning asosiy savollarini, adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilish. 1.2.Dars o'tkazish shaklini tushuntiradi (Ilova 1). 1.3. Ma'ruzadagi asosiy tushunchalar va terminlar bilan hamda kutiladigan o'qitish natijalari bilan tanishtiradi.	Talabalar eshitadilar. Talabalar eshitadilar va yozadilar.
2. Bosqich. Maruza matning asosiy qismi (60 daqiqa).	2.1.Talabalar kichik guruhlarga bo'linadilar va ularga muammoli savollar beriladi. 2.2. Muammoni hal qilish yo'llarini tashkil qilish va talabalar bilan birga uni yechimini muhokama qilish.	Talabalar guruhlarga bo'linadilar Talabalar muammoni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bayon qiladilar.

	2.3. Muammoni hal etish usullarini qidirish. Muammoli savollarni o'rtaga tashlash orqali muammoni dastlabki bosqichiga chiqish (Ilova 2). 2.4.Yakuniy xulosalarni shakillantirish va talabalarni mazuni o'zlashtirish darajasini tek shirish uchun savol javob (blis-opros) o'tkazish (Ilova3).	Talabalar muammoni birdaniga hal etish imkoniyati yo'qligini tushinib yetganidan so'ng ular ushbu masalada o'z fikrlarini aytadilar, uni muhokama qiladilar, uni tahlil qiladilar va hal qilish bo'yicha fikrlarini bildiradilar.
3 Bosqich. Yakunlovchi Ma'ruzaga hotima yasash (10 daqiqa).	3.1. Muammoni hal qilish yo'lida talabalarning fikrlarini tahlili. 3.2. Muhokama chog'ida ularni tayyorgarlik holati va faolligini baholash. Muammoni hal qilinishining to'g'ri natijalarini e'lon qilish. 3.3. Talabalaraga mustaqil ravishda ishlash uchun vazifalarni e'lon qilish	Talabalar xatolarni tahlil qiladilar. Talabalar to'g'ri javob berishga harakat qiladilar Eshitadilar Talabalar eshitadilar va yozadilar

«Giyohvandlik vositalari kontrabandasi va unga qarshi ko'rash» mavzusidagi ma'ruza bo'yicha talabalarni faolligini baholash ko'rsatkichlari

F.I.O	Baholash turi.	O'zlashtirish mezonlari.			
		O'tilgan mavzuning o'zlashtirish ko'rsatkichi.	Faolligi	Muammoga qiziquvchanligi	Ballar jami
	Ballari	0,5	0,5	0,5	1,5
	%	40	30	30	100

«Aqliy xujum» usuli

Aqliy xujum (breynstorming – aql buroni) – Amaliy yoki ilmiy muammoni jamoa g'oyalarining generatsiyasi (yig'indisi) orqali yechish uslubi.

Aqliy xujum davrida ishtirokchilar mavjud qiyin muammolarni yechish mumkin bo'lgan fikrlarni bayon etishadi, bunday fikrlar tanqidiy qarashlardan yiroq bo'lib, ulardan eng samarali va to'g'ri bo'lganlarni saralash, muhokama etish, rivojlantirish, baholash, orqali bu fikrlarni ma'qullanadi yoki inkor etiladi.

Bunday usul hamma vazifalarni bajaradi, ammo uning asosiy vazifasi talabalarda o'qish, bilim olish faoliyatini yuksaltirish, kommunikativ odatlarni rivojlantirish, mustaqil ravishda muammoni yechish va tushunish qobiliyatini va muomila madaniyatini rivojlantirish, ijodiy masalalarni yechishda eskicha fikrlashdan yiroq bo'lishni aktivlashtirishdir.

Masalalarni an'naviy usulda yechishda ko'pgina talabalar (tinglovchilar) o'zlarining fikrlarini noto'g'ri bo'lishidan yoki u tomonidan aytilgan fikrlar tanqidga yoki kulgiga uchrashidan qo'rqib fikrlarini bayon etmaydilar. A. Osborn bunday holatda g'oyalarning uyg'unligini (generatsiyasini) taklif qildi, bunda hech qanday fikr tanqid qilinmaydi va man etilmaydi hatto mantiqsiz bo'lsa ham, Aksincha hamma fikrlar rag'batlantiriladi. Barcha aytilgan fikrlar yozib olinadi, tahlil qilinadi, baholanadi va keyingina ularning yung samaralilari, muvofiqlari, istiqbolilari saralab olinadi.

Tug'ridan-to'g'ri jamoa aqliy xujumi –mumkin qadar ko'pchilikning fikrlarini ta'minlabberadi. Hamma ishtirokchilar bitta muammoni hal etadilar. Ishtirokchilarning optimal soni 15 oshiq bo'lmasligi kerak. Muddati 1 soatgacha. Tadbiq etish muvaffaqiyati ishtirokchilarga bog'liq.

Ommaviy aqliy xujum – katta auditoriyada fikrlarning yig'indisini uyg'unlashishga imkoniyat beradi (60 odamgacha). Mikro-guruhlar ichida yirik muammoni biror bir jabhasi yechiladi.

ILOVA 2

Muammoli savollar.

1. Respublikamiz hududiga giyohvantlik va psixatrop vositalarini olib kelinishini oldini olish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar.

2. Giyohvantlikni ijtimoiy xavfi va zarari to'g'risida aholi o'rtasida olib borilishi zarur bo'lgan tadbirlar nimalardan iborat?

3. Hozirgi kunda yoshlar o'rtasida giyohvantlik moddalarini istemolini kamaytirish borasida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar.

4. Giyohvantlikni, terrorizimni asosiy omili ekanligini hamda unga qarshi ko'rashda xalqaro hamkorlikni o'rni nimadan iborat?

ILOVA 3

Talabalarni bilimini faollashtirish uchun beriladigan savollar.

1. Giyohvantlik vositalari qanday turlarga bo'linadi?
2. Giyohvandlik vositalariga doir qanday me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?
3. Giyohvandlikning zarari va ijtimoiy xavfi nimadan iborat?
4. Giyohvand moddalarni aniqlash qanday usullari mavjud?
5. Narkotik vositalar to'g'risidagi yagona Konvensiya qachon va qayerda qabul qilingan?

Asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси, -Т.: Адолат, Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

2. Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси, -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2001.

4. Ўзбекистон Республикасининг «Божхона хизмати тўғрисида»ги Қонуни, -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.

5. Ўзбекистон Республикасининг «Бож тарифи тўғрисида»ги Қонуни, -Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.

6. «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, -Т.: 1999.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 31 июлдаги «Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалари ва прекурсорларини Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тўғрисида»ги ПП-393-сон Қарори.

XXI BOB
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI GIYOHVANDLIK MODDALARI KONTRABANDASIGA QARSHI KURASHDA XALQARO HAMKORLIGI

21.1. Respublikamizda giyohvandlik moddalari kontrabandasiga qarshi kurash yo‘llari

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, hozirgi kunda butun dunyoda 8 milliondan ortiq kishi geroin iste’mol qilar ekan, 13,8 milliondan ortiq kishi kokain, 142 mln kishi marixuana, 280 mln.dan ortiq kishi esa sintetik giyohvandlik moddalarini iste’mol qilar ekan. Narkotik moddalarni dunyo bo‘yicha bir yillik oboroti 400 mlrd AQSH dollariga yoki butun dunyo savdo oborotining 8 foizini tashkil etar ekan. Chuqurroq o‘ylab ko‘rilsa, bu XXI asr boshlarida insoniyat oldida turgan mushkul muammolardan biridir[130].

O‘zbekiston Respublikasi bu muammoni hal qilishga, narkobiznesga qarshi ko‘rashda ma’lum chora-tadbirlarni xalqaro tashkilotlar, qo‘shni davlatlar, qolaversa, butun jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirayapti.

Ma’lumki, talab taklifni yuzaga keltiradi. Ammo, faqat narkobiznesgina o‘zining jinoyatkorona xususiyatiga ko‘ra aynan taklifning ustivorligini ta’minlash uchun hech narsadan kaytmaydi. Uning ta’siri ostida sotish bozorlari tashkil topadi. Narkotrafiklar yuzaga chiqadi, noqonuniy millionlar to‘planadi. UKNPPning huquqni himoya qilish masalalari bo‘yicha maslahatchisi Tofik Murshudlu mintaqada huquqni himoya qilish tuzilmalarining strategiyasi tamoyillarini ko‘rsatib berdi. U o‘z hududlarini bu zararli og‘uning kirib kelishi va tranzit qilinishidan himoyalash uchun bor kuch-g‘ayratlarini ayamayotgan O‘zbekistonlik bojxonachilar, ichki ishlar organlarining professionalizmini yuqori baholadi. Ularning ish faoliyatlarida e’tiborli tashkilotlarning hisob-kitoblariga qaraganda, jahondagi narkotik moddalarning eng yirik ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi bo‘lgan mamlakat bilan qo‘shnichilik jiddiy qiyinchilik tugdirmoqda. Afgonistondan narkoyunalishlar Markaziy Osiyo davlatlari orqali to‘siq tutuvchi tadbirlarning kuchaytirilishi tashvishidagi G‘arbga qarab yo‘naltirilmoqda. Geroin, boshqa giyohvand moddalar, ularni ishlab chiqarish uchun kerak bo‘lgan prekursorlarning musodara qilinayotgan miqdorlari tonnalar bilan o‘lchanadi. Janubiy Amerikada ham narkomafiya mavqei juda kuchli.[131]

---

[130] Бирлашган Миллатлар Ташқилоти статистик маълумотлари.

[131] В.И. Ботлева «Расследование контрабанды». Москва, «Логос», 2005.

Bir qator yirik xalqaro kelishuvlar yaxshi niyat mamlakatlariga «oq ajal» tajovuzkorlariga qarshi turishda yordam bermoqda. 1961 yilda Narkotik vositalar to'g'risida yagona konvensiya qabul qilindi. U narkotik xom-ashyolar ishlab chiqarish ustidan bir turdagi nazoratni o'rnatishga safarbar qilingan. 1971 yilda Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya, 1988 yilda Birlashgan Millatlar Tashqilotining narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi ko'rash to'g'risida konvensiyasi imzolandi.

O'zbekiston ham ushbu hujjatlarga qo'shildi. Birgalikdagi hamkorlik to'g'risida bir qancha mintaqaviy bitimlar ham mavjud. Vaqt o'tib bormoqda, voqelik esa shundan dalolat bermoqdaki, faqatgina harbiylashtirilgan to'siq usullari yordamida narkovabodan kutilish mumkin emas. BMTning aralashuvi natijasida ishlab chiqaruvchi mamlakatga narkotiklarni tayyorlash uchun ishlatiladigan ekinni yetishtirishga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risidagi talabnoma taqdim etildi. Shu yil Afgonistonda bo'lib qaytgan bir nechta baholovchi missiyalar ushbu manifestga qoniqarli javob qaytarilganligi tasdiqlandi — ko'knor ekish ancha kamaygan. Ammo, tayyor mahsulot zahiralari mafiya tuzilmalariga hozirda inson salomatligi uchun eng og'ir va falokatli afyun bo'lgan, qimmat turadigan va tashish uchun qulay bo'lgan geroinni tayyorlashga yo'naltirilgan va yulga qo'yilgan ishlab chiqarishni qo'llab-qo'vvatlash imkonini bermoqda.

Muammoning majmuaviy yechimini izlash vazifasi kun tartibida turibdi. Bu nafaqat nazoratni kuchaytirish, balki boshqa ogohlantiruvchi, oldini oluvchi yo'nalishlarda ham kuchlarni uyg'unlashtirishdir. Masalan, yer egasini bush qolgan yerlarga foydali ekinlarni ekishga qanday o'rgatish mumkin? Bu oson ish emas, lekin bugungi kunda u boshqa masalalar bilan bir qatorda turibdi.

Muammoning boshqa bir tomoni — talabni pasaytirish. Bu ham eng og'ir vazifalar sirasiga kiradi. Ularning yechimlari qatorida narkotiklarni iste'mol qilishning fojiaviy oqibatlari to'g'risida ogohlantirish kabi (ayniksa, yeshlarni) keng ko'lamli tadbirlari bor. Oldini olish tadbirlari keng jamoatchilikning ishtirokini, faol, xujumkor yo'l tutilishini talab qiladi.

«Insoniyat bu ko'rashda mag'lub bo'lmasligi lozim», degan shior qanchalik balandparvoz tuyulmasin, u baribir mavjud, ayanchli voqei vaziyatni aks ettirib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Milliy axborot-tahlil markazining direktori, narkotiklar ustidan nazorat qilish davlat komissiyasi raisining o'rinbosari Kamol Dustmatov uni ta'riflab berdi. Tibbiyotchilarga, bojxonachilarga, harbiylashtirilgan bo'linmalarga jamoatchilik yanada faolroq yordam berishi kerak. Giyohvandlikka qarshi

ko‘rash bo‘yicha davlat dasturi ko‘rib chiqish jarayonida turibdi.

Muammoga ko‘zni yumish, undan chuchish, uni xufiya saqlash mumkin emas. Yondoshuvlarning zamonaviyligi tashvishli tamoyillar oshirishining, ya’ni oshishining to‘xtatilishiga aniq yordam beradi.

Avstriya tajribasi buning yorqin isboti bo‘la oladi. 1992 yildan beri Yevropaning ana shu mamlakatida maqsadga yo‘naltirilgan, integratsiyalashgan, narkotiklarga qarshi siyosat davlat darajasida o‘tkazilmoqda. Shu davrga qadar birorta maqsadli, konsalidatsiyalangan dastur mavjud emas edi. Tug‘ri 60-yillarda xippilar harakati kuchayishi munosabati bilan bir qator me’yeriy-huququiy qadamlar qo‘yilgan bo‘lib, ulardan maqsad narkotiklarni iste’mol qiluvchilarning va ularni sotuvchilarning javobgarligini farqlab qo‘yishdan iborat edi.

Kuchaytirilgan e’tiboran va asosiy kuchlar asosan narkokorchalonlarga, iflos pullarni «tozalab olishning» oldini olishga qaratilgan. Bu haqda Vena munitsipaliteti ijtimoiy jamg‘armasining bog’liqliklarning oldini olish bo‘yicha Mutaxassisi Silviya Franke va Narkolog Yevald Xoldlar ma’ruza qildilar.

Ammo giyohvandlik bilan kasallanganlarning kattagina kontingentiga yetarli darajada biriktirilmagan maqsadlarning bunday siljitilishi vaziyatning jiddiy keskinlashuviga olib keldi. Bunday muhitda bevaqt ulimlar, OITS bilan kasallanish hollari avj oldi. Og‘udan telbalangan yigit va qizlar to‘g’ridan-to‘g’ri ko‘cha-ko‘yda yotardilar. Jinoyatchilik ham murakkablashib ketdi. Ommaviy axborot vositalari bong ura boshladi. Siyetsatchilarga esa Germaniya va Shveysariya tajribasini o‘rganib, giyohvandlarni davolash reabilitatsiyalash va giyohvandlikning oldini olish dasturini davlat manfaatlari darajasiga ko‘tarishlari uchun kattagina ijtimoiy iroda zarur bo‘ldi. «Xalq orasiga kirish»ga g‘ov bo‘luvchi to‘siqlarni olish eng nizoli holat bo‘ldi. Biroq, aynan shu taktika birinchi navbatda juda bo‘lmaganda hatar guruhlarining usib borishini, VICH infeksiyasi yoyilishini to‘xtatishga imkon berdi. Kuchma «ishonch punktlari»ga asta-sekin ko‘nika boshlashdi. Ijtimoiy xodimlar guruhlari ko‘cha-kuylarda, pastkam yo‘lkalarda giyohvandlar bilan aloqaga kirishdilar, ularga mashinalarda shpritslar tarqatishdi, davolanishni istovchilar uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan yordam to‘g’risida tushuntirish ishlarini olib bordilar.

21.2. Respublikamizda giyohvandlik moddalari kontrabandasiga qarshi kurashda xalqaro hamkorligi

Xavfli odatning zarari to‘g’risidagi tushuntirish ishlari faqat maktablardagina emas, balki bogchalarda ham o‘tkazila boshladi. Hozirgi

vaqtga qadar juda ko'p miqdorda turli qo'llanma va plakatlar chop etilmoqda.[132]

Albatta, giyohvandlikka tobe kishilarni davolash va reabilitatsiyalashtning turli usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nohukumat tashkilotlari ham narkotiklarga bo'lgan talablarning qisqarishida o'z suzlarini aytishlari mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati, jumladan Davlat bojxona qo'mitasi narkobiznesga qarshi ko'rashda xalqaro tashkilotlar, davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshirayapti. Shunday tashkilotlardan biri – BMTning 1997 yilda tashkil etilgan Narkotiklar ustidan nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish boshqarmasidir (UKNPP). Bu tashkilot narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va xalqaro jinoyatchilikka qarshi ko'rashda jahonda yetaqchilik qiladi. Bu xalqaro tashkilotning qarorgoxi Vena shahrida joylashgan.

Bundan tashqari, uning joylarda 22 ta bo'limlari, shuningdek, Nyu-York va Bryusselda aloqa bo'yicha bo'limlari bor. U BMTning Narkotiklar ustidan nazorat qilish xalqaro dasturini (YUNKD) va Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha xalqaro markaz (SMPP)ni o'z tarkibidagi tartibiga oladi.

YUNKDning Interpol hamda Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorligi butun dunyoda narkotiklarning noqonuniy aylantirilishiga qarshi ko'rashda va huquqbuzarliklarni ta'kib qilishning samaradorligida huquqni himoya qilish faoliyatining samarasini oshirmoqda. Narkotiklarni noqonuniy aylantirishning umumjahon tamoyillari, kontrabanda usullari va uni yetkazib berish yo'llari to'g'risida doimiy axborot almashinuvi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yordam mutaxassislarni narkotiklarni olib kirishga yo'l kuymaslikning takomillashgan usullariga, narkosavdo holatlarini tekshirishga urgatish, hamda turli-tuman maxsus texnikalar va uskunalar taqdim etishda ham ko'rinadi[133].

Pullarni tozalab olishga qarshi ko'rashish bo'yicha YUNKD umumjahon dasturi doirasida turli mamlakatlarning hukumatlariga narkotiklar sotishdan tushgan daromadlarini xalqaro moliya tizimi orqali tozalab olayotgan jinoiy doiralarga qarshi turishda yordam ko'rsatilmoqda.

Umumjahon dasturi ishbilarmon guruhlari, huquqni himoya qilish va sud organlari mutaxassislariga malakali moliyaviy tekshiruvlar o'tkazishni

[132] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллий ахборот-таҳлил марказининг статистик маълумотлари. 2005.

[133] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллий ахборот-таҳлил марказининг статистик маълумотлари. 2005.

ham ko'zda tutadi. U mafiyaning mablaglarini tozalab olishga qarshi turishning mustahkam huquqiy va institutsional asosini ta'minlaydi hamda tezkor moliyaviy axborot to'plash bo'yicha bo'linmalar tashkil etishga ko'maklashadi.

Butunjahon bojxona tashkilotining bosh totibi Mishel Daneni hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining tashabbusi bilan Toshkentda 2002 yil oktabr oyida «Buyuk ipak yo'li mamlakatlarida narkotik moddalarini noqonuniy aylanishiga qarshi ko'rash» mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya ishida ko'pgina yirik xalqaro tashkilotlami, hamda 30 ta davlat bojxona organlari boshliqlari ishtirok etishdi. Anjumanda asosiy e'tibor narkotik moddalarini noqonuniy tarqalishiga qarshi ko'rash xalqaro dasturini ishlab chiqishga qaratildi. Butunjahon bojxona tashkilotining to'laqonli a'zosi sifatida, O'zbekiston Respublikasi butunjahon bojxona tashkiloti va BMTning narkotik moddalarini noqonuniy aylanishiga qarshi ko'rashga qaratilgan dasturlari va chora-tadbirlarini hayotga tadbiq etishda faol qatnashayapti.

O'zbekiston Respublikasi narkotik moddalar va giyohvandlikka qarshi ko'rash to'g'risidagi xalqaro bitimlami, xususan, BMTning konvensiyalarini, giyohvand moddalarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarini imzolagan. Xususan, narkotik vositalar to'g'risidagi 1961-yilgi yagona konvensiya (1972-yil bayonnomasiga muvofiq kiritilgan tuzatishlar bilan), Psixotrop moddalar to'g'risidagi 1971-yilgi konvensiya hamda narkotik vositalar hamda ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni qonunga xilof ravishda sotish to'g'risidagi BMTning 1998 yilgi konvensiyalariga qo'shilgandir. Nomlari qayd etilgan bu konvensiyalar giyohvandlik moddalari va ruhiy ta'sir etuvchi moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish me'yerlarini belgilab beradi. Xalqaro huquq va milliy qonun hujjatlarga dahldor giyohvandlik vositalari, ta'sir kuchiga qarab hamda ularni suiiste'mol qilinishi xususiyatlaridan kelib chiqib, turli toifalarga ajratiladi. BMTning 1988-yildagi konvensiyasida giyohvand moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash uchun ishlatiladigan 12 ta kimyoviy moddalar ustidan xalqaro nazorat me'yerlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari to'g'risida» qonun qabul qilingan bo'lib, respublikamiz bojxona organlari BMT ning UKNPPni tashabbusi bilan tashkil etilgan «Topaz» kodli nomga ega bo'lgan xalqaro operatsiyasida ishtirok etayapti. Mustaqillik yillari davomida bojxona organlari tomonidan 30 tonnaga yaqin narkotik moddalar ushlanib, yo'q qilindi. Birgina 2000-yilda noqonuniy aylanishdan 675 kg geroin yo'q qilib tashlandi[134].

[134] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси ҳузуридаги Миллий ахборот-таҳлил марказининг статистик маълумотлари, 2005 йил.

O‘zbekiston Respublikasi narkotik moddalarini noqonuniy aylanishini nazorat qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlik sohasida Germaniya, Turkiya, Pokiston, Mustaqil hamdustlik davlatlari bilan davlatlararo kelishuvlar, Eron islom respublikasi bilan esa narkotik va psixotrop moddalarini noqonuniy aylanishiga qarshi ko‘rash bo‘yicha memorandum imzolangan. Shuning bilan birga respublika bojxona xizmatining qo‘shni davlatlardagi shu singari bo‘linmalar bilan hamkorligi kengaymoqda.

Xulosa

O‘zbekiston ham ushbu hujjatlarga qo‘shildi. Birgalikdagi hamkorlik to‘g’risida bir qancha mintaqaviy bitimlar ham mavjud. Vaqt o‘tib bormoqda, voqelik esa shundan dalolat bermoqdaki, faqatgina harbiylashtirilgan to‘siq usullari yordamida narkovabodan qutilish mumkin emas.

Nazorat savollari

1. Giyohvand moddalarni kontrabandasi va jinoyatchilikka qarshi ko‘rashda respublikamizning tutgan o‘rni.
2. Giyohvandlikka qarshi ko‘rashda bojxona organining boshqa huquqni himoya qilish organlari bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz
3. Jahon bojxona tashkiloti bilan xalqaro hamkorlik.
4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 31-iyuldagi 393-sonli Qarori.
6. Shanxay Hamkorlik Tashqiloti sammitida narkobiznesga qarshi ko‘rash bo‘yicha ko‘rilgan masalalar.
7. O‘zbekiston Respublikasi «Giyohvandlik va psixotrop moddalar to‘g’risida» gi qonuni qachon qabul qilingan.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasini Giyohvandlik vositalariga qarshi ko‘rashda Butunjahon bojxona tashkiloti bilan hamkorligi.
9. Giyohvandlik vositalarini aniqlash yo‘llari.
10. Giyohvanlik vositalarini aniqlashning psixologik tomonlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси Тошкент «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёти, 1998.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси, -Т.: 1998.
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси, -Т.: 1999.
4. Таможенное право. – М.: BUKLAYN, 2004.

XXII BOB
XALQARO BOJXONA HAMKORLIGI TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA MAQSADI

22.1.Xalqaro bojxona hamkorligi tushunchasi, uning mohiyati va maqsadi

Erkin savdo va bojxona ittifoqi bo'yicha kelishuv jahon hamjamiyati mamlakatlarida keng tarqaldi. Raqobatbardoshlikni kuchayishi sharoitida jahon iqtisodiy sistemasi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash maqsadida boshqa chet-el mamlakatlar bilan shartnoma tuza boshladilar.

Mamlakatlar, ular o'rtasida tovarlar, kapital va xizmatlarni erkin harakatlanishi uchun o'zaro kelishuvlar imzolaydilar. Bunday kelishuvlarning ko'pchiligi xalqaro va mamlakatlar o'rtasida hududiy harakter kasb etadi. Bularga Yevropa ittifoqi (YEI), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST), Butun jahon bojxona ittifoqi (BJBT), Yevropa erkin savdo assotsiatsiasi (BJSA), Erkin savdo bo'yicha shimoliy Amerika kelishuvi (ESBSHAK), Shimoli-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiasi (ASEAN), erkin savdo bo'yicha markaziy Yevropa mamlakatlari assotsiatsiasi, Shimoli-Sharqiy Afrika mamlakatlari umumiy bozori (KOTESA) va MDX mamlakatlari bojxona hamkorligi tashkiloti, «Shanxay beshligi» hamkorlik tashkiloti va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin.[135] Yevropa va shimoliy Amerika kelishuvi doirasida jahon savdosini 40% foizi amalga oshiriladi. Yevropa ulushiga jahondagi savdo operatsiyalarini yarmi to'g'ri keladi, Amerika zimmasiga jahon savdo operatsiyalarini 1/6 qismi to'g'ri keladi. Shunday qilib umumiy tashqi savdo operatsiyalarining 2/3 qismi savdo kelishuvlariga a'zo mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi.[136]

O'ziniig rivojlanish yo'lida integratsiya bir necha miqdoriy va sifat bosqichlaridan o'tdi.

1.Ochiq savdo hududi (OCHX)

2.Bojxonalar ittifoqi (BI)

3.Yagona yoki uumiy bozor (UB)

4.Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVI)

Ochiq savdo hududi iqtisodiy birlashuvni eng sodda shakli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar o'zaro tovar savdosining iqtisodiy to'siqlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar, lekin bir vaqtning o'zida qatnashuvchi

[135] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

[136]Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

tomonlar o'zining uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy siyosatlarini olib bordi. Boshqacha qilib aytganda ochiq savdo hududlarini o'ziga xosligi bo'lib:

- tovarlar savdosini bojxona va miqdoriy chegaralashlardan ozodligi;
- bosqichma - bosqich o'zaro bojxona talablari va notarif usullarini bekor qilish;
- bir tomonlama notarif to'siqlari va bojxona bojlarini kiritmaslik.

Bu esa «erkin savdo» hududiga kirayotgan davlatlarni xalqaro tashqi iqtisodiy faoliyat savdo amaliyotida tez moslashishga olib keladi.

Ochiq savdo hududlarini faoliyatini boshqarish mahalliy davlat boshqaruvi aralashuvisiz amalga oshiriladi.

Barcha qabul qilinayotgan qarorlar ochiq savdo hududi kelishuviga a'zo mamlakatlarning oliy mansabdor shaxslari yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan siyosiy yo'llar bilan hal qilinadi. Bu qabul qilingan qarorlar ushbu bosqichda tashqi iqtisodiy faoliyat ittifoqchilari tomonidan bajarilishi majbur bo'lgan qarorlar hisoblanadi.

Erkin savdo hududlari tashkil etish ayrim mamlakatlar iqtisodiyoti uchun salbiy harakter kasb etish ham mumkin. Bu esa ba'zi bir milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni ayrim chet-el tovar ishlab chiqaruvchilarining sifatli tovarlari oldida inqirozga uchrash xavfini tug'diradi va ayrim hollarda bu maqsadlariga ham erishadilar.

Natijada importyorlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z bozoridan siqib chiqaradilar. Shuning uchun ham milliy tovar ishlab chiqaruvchilarga davlat yordami zarur bo'ladi.

Erkin savdo hududlarini hammasini qamrab olgan hudud bo'lib, 1994 1-yanvarda kuchga kirgan Shimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuvi hisoblanadi. Bu kelishuv AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari hukumatlari tomonidan imzolangan.

Bu ochiq savdo hududi doirasida yagona tashqi savdo tarifi amal qiladi va yana bu kelishuvni yaxshi tomoni Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga a'zo mamlaktlar hududida savdo tarifi umuman yo'qligi bilan ajralib turadi.

Bu kelishuvning o'ziga xos tomoni yana shundaki bunda investitsiyalar ham "Savdo to'g'risidagi kelishuv"ning bir qismi hisoblanadi.[137]

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi tovarlarni harakatini, kelib chiqishni tasdiqlovchi yagona jarayonini, tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo-bojxona orqali tartibga solishda va boshqa qoidalar ini soddalashtirishda asosiy xalqaro tashkilot hisoblaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani keyingi bosqichi bu Bojxona Ittifoqi hisoblanadi.

---

[137] В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ,2004.

22. 2. Bojxona hamkorligi tashkilotlarining tashkil etish turlari

Bojxona ittifoqi o'z navbatida ittifoqqa a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va ittifoqka a'zo bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shug'ullanadi va buni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi.

Shunday qilib, "Bojxona ittifoqi"ga a'zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbat savdo siyosatini olib borishni Ittifoq boshqaruvi organiga saylangan a'zolar belgilaydilar.

Masalan 1967 yil Shimoliy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi Bojxona ittifoqi yoki erkin savdo hududi ko'rinishida tashkil etilgan.

Bu ittifoq doirasida a'zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiya to'g'risida, iqtisodiy hamkorlikni rasmiy chuqurlashtirish va bojxona hamkorligi to'g'risida chuqur o'ylamoqdalar.

1992 yil ASEAN ga a'zo mamlakatlar ochiq savdo hududi tashkil etish bo'yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo hududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

ASEAN ga a'zo mamlakatlarda tarif tovar qayta ishlanganlik darajasi atrofida belgilangan bo'lib ular 15 ta tovar kategoriyalari uchun tarif stavkalarini kamaytirish mo'ljallangandi. Tovarlarni kelib chiqish qoidasiga asosan tovarlar ASEAN da ishlab chiqarilgan bo'lishi uchun tovarning kamida 40% qismi unga a'zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani yuqori darajasi bo'lib **yagona yoki umumiy bozor** hisoblanadi, chunki bu sistemada kapital va mehnatning erkin harakati ta'minlanadi. Bojxona poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'z faoliyatlari davrida yagona yoki umumiy bozor yaratish uchun shart-sharoit yaratadilar.[138]

Buning uchun: yaratilgan mexanizm va vositalardan tashqari a'zo mamlakatlarni iqtisodiyotini ayrim tarmoqlarini rivojlantirish umumiy siyosatini ishlab chiqish, kapitallarni erkin harakatiga, ishchi kuchi erkin harakatiga, xizmatlar va axborotlarning erkin harakatiga tovarlarni har qanday to'siqlarsiz harakatiga sharoit yaratish; sotsial va hududiy rivojlanishda umumiy fondlarni shakllantirish, bu haridorlar va yashovchi aholini itegratsion jarayonni ustunligini real his etilishlariga olib keladi.

Asosiy urin raqobatni tartibga soluvchi qonunlarni buzulishiga yo'l kuymaslikka ajratiladi.

---

[138] Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред. И.П.Фоминского. -М.: Экономист, 2004 год.. китобининг 114 бети.

Xulosa

Mamlakatlar, ular o'rtasida tovarlar, kapital va xizmatlarni erkin harakatlanishi uchun o'zaro kelishuvlar imzolaydilar. Bunday kelishuvlarning ko'pchiligi xalqaro va mamlakatlar o'rtasida hududiy harakter kasb etadi. Bularga Yevropa ittifoqi (YEI), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST), Butun jahon bojxona ittifoqi (BJBT), Yevropa erkin savdo assotsiatsiasi (BJSA), Erkin savdo bo'yicha shimoliy Amerika kelishuvi (ESBSHAK), Shimoli-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiasi (ASEAN), erkin savdo bo'yicha markaziy Yevropa mamlakatlari assotsiatsiasi, Shimoli-Sharqiy Afrika mamlakatlari umumiy bozori (KOTESA) va MDX mamlakatlari bojxona hamkorligi tashkiloti, «Shanxay beshligi» hamkorlik tashkiloti va Markaziy Osiyo mamlakatlari iktisoliy hamkorlik tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Bojxona hamkorligi deganda nimani tushinasiz?
2. Iqtisodiy integratsiya nima?
3. Iqtisodiy integratsiyaning qanday shakillarini bilasiz?
4. Iqtisodiy integratsiyaning qanday bosqichlari mavjud?
5. Ochiq savdo hududi nima?
6. Bojxona ittifoqi deganda nima tushinasiz?
7. Yagona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?
8. iqtisodiy yoki valyuta ittifoqi nima?
9. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (ASEAN) nechanchi yilda imzolanib nechanchi yilda kuchga kirgan?
10. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvini qaysi mamlakatlar imzolagan?

Asosiy adabiyotlar:

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.
2. Международные экономическая отношения. Учебник, -М: Инфра- М, 2004 год.
3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.
4. Международные экономическая отношения.Учебник, Под ред.И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.
5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

XXIII BOB
YEVROPA ITTIFOQI VA UNING TASHKIL ETILISHINING ASOSIY SABABLARI

23. 1. Yevropa ittifoqi – integratsiyaning bir ko'rinishi sifatida

Hozirgi kunda xalqlaro sistemada iqtisodiy integratsiyani to'rtta bosqichini o'ziga mujassam etgan faqatgina bitta sistema mavjud, u ham bo'lsa Yevropa ittifoqidir. Yevropa ittifoqini tashkil etilishining tarixi 1951-yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashkil etish bilan boshlangan. Yevropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Yevropa mamlakatlari kirgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Nederlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953 - yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

1957-yilda oltita Yevropa mamlakatlari tomonidan Rim shartnomasini imzolanishi bojxona ittifoqi va umumiy siyosatga asoslangan holda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishini ma'lum qildi.

Keyingi 1973 yildan to 1995 yilgacha shartnoma imzolagan oltita Yevropa mamlakatlariga yana to'qqizta Yevropa mamlakatlari kelib qo'shildilar (1973 yilda – Daniya, Irlandiya va Buyukbritaniya mamlakatlari, 1981 yilda – Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari, 1995 yilda – Avstrya, Finlandiya va Shvetsiya mamlakatlari).

Hozirgi vaqtda Yevropa ittifoqiga 15 ta mamlakat kirib ularning aholisini umumiy soni 370 million odamni tashkil etadi.[139]

Yevropa ittifoqini tashkil etish tashkilotchilarini fikri bo'yicha «To'rt erkinlik kengligini» tashkil etilishini: tovarlar harakati, kapital harakati, xizmatlar harakati va ishchi kuchilarini erkin va to'siqlarsiz harakati ma'lum qilardi. Yevropa Ittifoqini tashkil etish natijasida milliy tashqi savdo to'siqlariga barham berildi (Bojxona tarifi, kvotalar) va yagona tarif va kvota o'rnatish bo'yicha, tashqi savdoni tartibga solish qonun-qoidalar ini bir xillashtirish bo'yicha faol ish olib boradilar.

Togo mamlakatining Lomey shahrida imzolangan Lomey konvensiyasi Yevropa ittifoqi va Afrikaning ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlari, Karib dengizi va Tinch okeani havzasi mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy sistemani tashkil etdi. Bular Yevropa ittifoqi va 68 ta rivojlanayotgan mamlakatlar orasida tashqi savdo sohasida ularning birlashuvini nazarda tutgan edi. Yevropa Ittifoqining bu mamlakatlarga nisbatan olib borayotgan

[139] В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ,2004..

iqtisodiy siyosati ikki tomon manfatlarini ko'zlar edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo tarif orqali tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot bu mamlakatlarda agrar va tog kon sanoati sohalari iqtisodi va shunga o'xshash ayrim sanoat ishlab chiqarishni nopok sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi.

Bu konvensiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar oldida chuqur ko'p qirrali bog'liqligini anglatadi, chunki Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar mineral xom-ashyoga juda ham muxtoj, shunday bo'lsa ham ularni rivojlanayotgan mamlakatlar oldida iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun ekanligini anglatadi.

1985-yilda qabul qilinib 1987-yilga kuchga kirgan Yevropa akti kelgusida yagona ichki bozorni yakunlashi shart edi. Tovarlar harakati, kapitallar harakati, xizmatlar harakati va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishini oldida turgan to'siqlarni olib tashlash rivojlantirilgan iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini tuzish bo'yicha harakatlar boshlangan edi.

1992 yil oxirlarida tuzilgan Yevropa ichki bozori uzil kesil tovarlar, kapitallar, xizmatlar va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishi va iqtisodiy to'siqlarni bekor qildi, ya'ni "turt erkinlik kengligini" milliy xo'jalik qonunini soddalashtirish uchun Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar agrar, valyuta, moliya va strukturaviy siyosatni ma'lum bosqichlarini bosib o'tgan mamlakatlarga yangi yo'l ochib berdi.

Shunday qilib G'arbiy Yevropada tashqi iqtisodiy faoliyatni kelishilgan bir xil prinsiplar asosidaamalgaoshirish vaittifoq hududi umumiy xo'jalik yurtuvchi yagona iqtisodiy hudud tashkil etildi[140].

Yevropa ittifoqida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va chuqurlashtirish, dastlabki ko'rinishidan (ochik savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor), yuqori ko'rinishga o'tish (iqtisodiy va valyuta ittifoqi) va unga a'zo mamlakatlar sonini oshirish bu ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. 1957 yil Rim (imzolangan Yevropa iqtisodiy hamjamiyaatini tashkil etish) shartnomasida ko'zda tutilgan edi. Jahon haritasidan Yevropadagi sotsialistik mamlakatlar yukolganidan so'ng Yevropa ittifoqiga qo'shilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar soni yana ko'paydi, ya'ni sobiq ittifoqning boltiq bo'yi mamlakatlari va Yevropaning boshqa sotsialistik respublikalari qo'shilishi mumkin bo'ldi. Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 1997-yil dekabrda Lyuksemburgda bo'lib o'tgan Oliy darajadagi uchrashuvda 1999-yildan Yevropa ittifoqi tarkibiga beshta mamlakatlarni qo'shish makullandi. Bular Vengriya, Kipr (Gretsiyaqismi), Polsha, ChexiyavaSloveniya.1991-1992

[140] И В. Малкова – Мировая экономика, в вопросах и ответах. -М.: Проспект, 2004.

yillarda Sharqiy Yevropa bilan Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'rtasida, Sharqiy Yevropa mamlakatlari qonunlarini Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar qonunlari bilan yaqinlashtirish, tashqi iqtisodiy a'lokalarni kengaytirish davlatlar o'rtasida 10 yil ichida bojxona bojlarini bekor kilash yo'li bilan ochiq savdo hududlari, ochiq sanoat ishlab chiqarish hududlari tashkil etish va tashqi savdodagi boshqa to'siqlarni bekor qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Ko'pkina sanoat mahsulotlariga Yevropa ittifoqi 1995-yil Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun bojxona bojlarini bekor qildi. 1990-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar Sharqiy Yevropa mamlakatlari ichki bozorlariga iqtisodiy siyosat choralariga tortilmasdan erkin kirib kela boshladi.[141]

23. 2. Maastrixt shartnomaning mohiyati va maqsadi

Rossiya Federatsiyasi o'zining ichki bozorini himoya qilishda proteksionistik choralarni meyoriy ravishda qo'lladi. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan dempingga qarshi choralar bir tomonlama qo'llanilmaydigan bo'ldi. Kapitallarning to'g'ri investitsiyalari ko'rinishida harakatlanishi to'g'risidagi tartibi kelishib olindi. Rossiya Federatsiyasi bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi a'loqalar o'sish xarakterini kasb etdi. Rossiya Federatsiyasining tashqi savdo aylanmasining 50% Yearopa ittifoqiga a'zo mamlakatlar zimmasiga to'g'ri keladi. 1994 yil 24 iyunda Gretsiyaning Korfu orolida Rossiya Federatsiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasida hamkorlik va sheriklik to'g'risidagi kelishuv imzolandi. Bu kelishuv esa Rossiya Federatsiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi ilgari qabul qilingan SSSR va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi (1988 yil), SSSR va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati o'rtasidagi (1990 yil), savdo - tijorat va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvlar (1989 yil) yana ham chuqurlashishiga sabab bo'ldi.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiyotni barcha sohalari bo'yicha hamkorlik kila boshladilar.

1998 yildan keyin Yevropa ittifoqi Rossiya Federatsiyasi bilan itifokdoshlar kompaniya va korporatsiyalari mamlakatlarda erkin harakatini qamrab olgan va transchegara bo'yi xizmatlar savdosi va kapital harakatini ko'zda tutuvchi erkin savdo hududi tashkil etishni rejalashtirilgan edi. Bu kelishuvlarning asosiy maqsadi bo'lib iqtisodiy va boshqa turdagi kelishuvlarda ikkala tomonning foydasini ko'zda tutuvchi va ikkala tomon bir-birlariga nisbatan javobgarlikni his qiluvchi va bir-birlarini Qo'llab - quvvatlash hisoblanar edi.

---

[141] «Ўзбекистон Республикасининг жаҳон савдо тизимига интеграллашуви» «Бозор, пул кредит» журналининг 2004 йил 8 июлдаги сони

Kelishuvga asosan Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy o'tish davridagi mamlakat hisoblanar edi. Shundan kelib chiqqan holda Rossiya Federatsiyasi davlat savdo sistemasi" deb nomlangan tushunchadan Yevropa ittifoqi voz kechdi, bu esa Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqi mamlakatlari qattiq tashqi savdo diskriminatsion choralar qo'llanilishini bildirardi, bu Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarni Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakat ichki bozorlariga kirib borishini kamaytirar edi.

O'tish davrining muddati 5-yilga mo'ljallangan edi, lekin shartnoma kuchga kirishi bilan Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar diskriminatsion choralarni olib tashlovchi shartnomani qabul qildilar va u kuchga kirdi[142].

Xulosa

Hozirgi kunda xalqlaro sistemada iqtisodiy integratsiyani to'rtta bosqichini o'ziga mujassam etgan faqatgina bitta sistema mavjud, u ham bo'lsa Yevropa ittifoqidir. Yevropa ittifoqini tashkil etilishining tarixi 1951 yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashkil etish bilan boshlangan. Yevropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Yevropa mamlakatlari kirgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Nederlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953 - yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Nazorat savollari

1. Yevropv ittifoqini tashkil etish bo'yicha ilk shartnoma to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Yevropa birlashmasi nechanchi yilda imzolangan?
3. Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Yevropa birlashmasi nechanchi yilda kuchga kirgan?
4. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati nechanchi yilda tashkil etiilgan va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan?
5. Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga 1973-1995 yillarda nechta va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan
6. Yevropa ittfokini tashkil etilishining asosiy sabablari nimada?
7. Yevropa ittfokini tashkil etilish bo'yicha Maastrixt shartnomasi nechanchi yilda imzolangan?

[142] «Ўзбекистон Республикасининг жаҳон савдо тизимига интеграллашуви» «Бозор, пул кредит» журналининг 2004 йил 8 июлдаги сони

8. Yevropa ittfokiga a'zo bo'lish uchun mamlakatlar qanday shartlarni bajarishi lozim?

9. Yevropa ittfokini uchinchi mamlakatlar bilan o'zaro aloqasi qaysi tamoyillar asosida tashkil etiladi?

10. Yevropa ittfokiga a'zo mamlakatlar bilan O'zbekiston Respublikasining o'zaro aloqasi?

Asosiy adabiyotlar

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

2. Международные экономическая отношения,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004 год.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

4: Международные экономическая отношения,. Учебник, Под ред.

И.П.Фоминского, -М.: Экономист, 2004.

5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

XXIV BOB
JST/GATT – XALQARO SAVDO TASHKILOTI VA XALQARO SAVDONI TARTIBGA SOLISH TAMOYILLARI

24. 1. Butunjahon savdo tashkilotini tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) – xalqaro savdoning boj-tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng no'fuzli to'zilmadir. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «bu tashqilot jahon savdosining hozirgi tizmini boshqarishda markaziy urinni egallab turibdi».

GATT 1947 yilda Jenevada to'zilib, tovar aylanmasi hajmini kengaytirish maqsadida xalqaro savdoning barqaror qoidalar ini qaror toptirish intilishlarini aks ettiradi.

Dastavval AQSH takliflari asosida xalqaro savdo tashqiloti tashqil etish ko'zlanib, uning ustavi ishtirokchi davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinmay, uning o'rninga boj siyosati asosiy qoidalari to'g'risidagi ko'p tomonlama kelishuv – boj va tariflar to'g'risidagi bosh kelishuv kuchga kirdi.

Bu kelishuv savdo erkinligi g'oyalarini, ya'ni ishtirok etuvchi taraflarning tengligini ifoda etadi. Bunday g'oyalar bir necha qoidalar da yanada aniq aks ettirilgan.

Birinchi va eng asosiy qoida diskriminatsiya qilmaslik tamiyili, «eng ko'p qulaylik berish» shaklini olib, bu tashqi savdo ishtirokchilari hammasining tengligini ta'minlash va ularni diskriminatsiya qildirmaslik to'g'risidagi tezisdir. «Eng ko'p qulaylik berish» rejimi ishtirokchi davlatlarning o'zaro yetkazib berilayotgan tovarlarga nisbatan har qanday uchinchi tomon tovarlarga nisbatan qo'llanilayotgan boj stavkalaridan yuqori bo'lmagan boj stavkalarini qo'llash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis maxsus iqtisodiy guruhlar tashqil etidgan hollarda undan chekinishga ruxsat beradi. Shuningdek rivojlanayotgan davlatlarning preferensiya boj rejimlaridan bir taraflama foydalanishi huquqi ham alohida qayd etilgan[143].

Diskriminatsiya qilmaslik tamoyili «milliy rejim» tushunchasining asosida ham yotadi. Unga ko'ra a'zo davlat o'zining va boshqa a'zo davlat tovar va xizmatlari o'rtasida diskriminatsiya rejimini o'rnatmasligi kerak. Tovar va xizmatlar boshqa davlatning chegarasini kesib o'tganidan bohlab ularga mahalliy ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan munosabatda bo'linishi talab etiladi. Bu eng avvalo soliqka tortish, tovarning sifati va sertifikatsiyalashtirilishiga nisbatan talablarga taallukli.

Ikkinchi tamoyil tashqi savdoni tartibga solish usullari qo'llanilishining

[143] «Узбекистон ва Жаҳон савдо ташкилоти» «Ҳамкор» газетасининг 2003 йил 24 декабр 316 сони.

huquqiy asoslanganligi tamoyilidir. GATT shunday usul sifatida faqat bojlarni tan oladi. Tashqi savdoni tartibga solishning boshqa usul va shakllari qo'llanilmasligi talab etilib, ular qo'llanilgan holda ham amal qilish davri qisqa bo'lib, faqat istisno holatlarida joriy qilinishi mumkindir. GATT a'zo davlatlarga kvotalardan foydalanish hamda eksport yoki import litsenziyalarini qo'llashni tavsiya etmaydi. Biroq GATTda miqdoriy cheklashlarni joriy etish o'rinli hisoblab ularni asoslaydigan extimoliy istisno holatlari ro'yxati keltirilgan. Shular qatoriga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tartibga solish dasturlarini amalga oshirish yoki to'lov balansi muvozanati bo'zilishi holatlari kiradi.

Va nixoyat GATT faoliyatining eng asosiy tamoyili qarorlarni qabul qili shva chora-tadbirlarni amalga oshirish qoidalariga aloqadordir, bu eng avvalo bir taraflama harakatlardan o'zaro mo'zokaralar va maslahatlar foydasiga voz kechishdir. Ishtirokchi davlatlar tashqi savdoni cheklashga qaratilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar: barcha qaror faqatgina savdo masalalariga bag'ishlangan o'zaro muzokaralar doirasida qabul qilinadi.

Bugungi kunda dunyodagi 148 mamlakat JST (Jahon savdo tashkiloti) a'zosi bo'lib, ular Urugvay raundi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ish ko'radilar. Hozirda Yana 30 ta mamlakat JSTda kuzatish maqomini qo'lga kiritganlar va ular ham a'zolikka da'vogardirlar.

JSTga a'zo bo'lish ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar hukumatlari tomonidan JSTga kuzatish maqomini qo'lga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichida tashkilotga teng huquqli a'o bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayonining Ushbu bosqichi hukumatlar tomonidan JSTga maxsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi[144].

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasidagi sado-iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jihatlaro'z aksini topadi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik shartlari atroflicha o'rganib chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha maxsus ishchi guruhi tashkil etiladi. Ishchi guruhi majlislarida da'vogar mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va xizmatlar turi bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va majburiyatlar xususida JSTga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradilar. Muzokaralar

[144] «Ўзбекистон ва Жаҳон савдо ташкилоти» «Ҳамкор» газетасининг 2003 йил 24 декабр 316 сони.

o‘rnatilgan tartiblarning amalda ijro etilishi mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi va ularning istagan vaqtda o‘zgartirilishi qat’iyyan man etiladi.

A’zolikka da’vogar mamlakatning savdo rejimini o‘rganish va uning bozorga kirib borish to‘g‘risidagi muzokaralar o‘z yakuniga yetgandan so‘ng, Ishchi guruhi tomonidan a’zolikka qabul qilish to‘g‘risidagi asosiy shart-sharoitlar ishlab chiqiladi. Majlis natijalariga ko‘ra, maxsus bayonnoma tayyorlanadi va u Bosh yig‘in yoki vazirlar Konferensiyasida JST a’zolarining 2/3 qismi tomonidan qo‘llab-quvvatlanilgan taqdirdagina imzolangan va tasdiqlangan deb topiladi. Mamlakatlar JSTga a’zo bo‘lganlaridan so‘ng, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning barchasini qabul qilishlari va ularga amal qilishlari shartdir.

2003 yilning 10-14 sentabrida Meksikaning Kankun shahrida bo‘lib o‘tgan JSTning 5-vazirlar Konferensiyasida 148 mamlakat savdo vazirlari o‘rtasida yuzaga kelgan har xil kelishmovchiliklar sabab, jahon savdo tizimini yanada erkinlashtirish borasida hal qilinishi lozim bo‘lgan ushbu masalalar o‘z yechimini topa olmadi. Biroq, mazkur vaziyat JSTning xalqaro miqyosdagi nufuziga ta’sir ko‘rsata olmaydi, albatta. Chunki, bu tizim millatlar uchun ma’lum bir ustunliklar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi tabiiydir.

JST tizimining ustunliklari, unda yirik savdogar davlatlarning a’zo bo‘lganligi bilan emas, balki uning erkin tovar almashinuvi jarayonida mamlakatlar uchun turfa xil iqtisodiy manfaatdorliklarni ta’minlashi bilan izohlanadi. Bu tizim a’zo mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga, shuningdek, fuqarolar farovonligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. JST savdo tizimi mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolida, shuningdek, alohida fuqarolar va umuman jahon hamjamiyati doirasida o‘z ustunliklarini namoyon etadi.[145]

24. 2. Butunjahon savdo tashkilotining asosiy tamoyillari

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklovlar va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma’muriy-iqtisodiy dastaklarning me’yoridan ortiqcha qo‘llanilishi, oxir-oqibatda kutilgan ijobiy natijalarga emas, balki kishilar farovonligi darajasining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, ayrim statistik ma’lumotlarga qaraganda, to‘qimachalik mahsulotlari importiga qo‘yilgan savdo cheklovlari oqibatida Buyuk Britaniyada iste’molchilarning kiyim-kechaklar uchun yiliga qo‘shimcha 500 mln funt sterling miqdoridagi

[145] «Ўзбекистон Республикасининг жаҳон савдо жараёнига интеграллашуви» «Бозор, пул кредит» журналининг 2004 йил 8 июл сони.

oshiqcha mablag'lar sarf qilganligi qayd etiladi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kanadalik iste'molchilar uchun tahminan 780 mln Kanada dollariga teng bo'lgan. Yevropa Ittifoqida esa, telekommunikatsiya sohasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan. 2005 yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar savdosi bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, aynan shu xildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgandir.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari, yana shu bilan izohlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor xorij mahsulotlaridan tashqari, import qilinadigan xom ashyolar, butlovchi qismlar va jihozlar baholarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovar va xizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahalliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tovarlar almashinuvi jarayonining faollashuvi esa innovatsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Savdoning rivojlanishi, uzoq muddatli istiqbollarda, asosan, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan sohalarida bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatga kapitalning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahalliy korxonalarningamalda cheklab bo'lmaydigan xorijiy raqobat bilan to'qnash kelishi natijada mavjud ish o'rinlarining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Fikrimizcha, jahon mamlakatlari tomonidan proteksionizm siyosatining faol qo'llanilishi, bu muammoni yanada chigallashtiradi. Chunki, sadvo to'siqlarining noo'rin qo'llanilishi oqibatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahalliy mahsulotlar sifatida keskin pasayish alomatlari kuzatilishi mumkin. Importni chegaralash jarayonida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bahosining ortib borishi sotuv hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa mavjud ish o'rinlari qisqarib boradi. Aynan shunday holat o'tgan asrning 80-yillarida Yaponiya avtomobillari importiga qat'iyy cheklovlarning o'rnatilishi sababli, AQShda kuzatilgan edi. Bugungi kunda AQShning eksport tarmoqlarida kamida 12 millionga yaqin ishchi band bo'lib, bunga qarama-qarshi o'laroq, YEI bozorlarining erkinlashtirilishi oqibatida, hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda qo'shimcha 300 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi.

Bizningcha, himoya chora-tadbirlarining aql-idrok bilan qo'llanilishi va qo'shimcha davlat daromadlarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish har qanday mamlakatda savdoni erkinlashtirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishning muhim omili bo'la oladi. JST tamoyillarining amalda qo'llanilishi, shuningdek, amaldagi bojxona poshlinalari va boshqa savdo to'siqlari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki, daxlsizlik va iqtisodiyotning ochiqligi, ustuvor savdo shartlarining belgilab olinishi va ularning soddalashtirilishi hamkorlar e'tiborini tortadi. Shuningdek, mavjud korxonalar harajatlarining kamayishi va savdo hamda investitsiyalar uchun qulay muhitning yaratilishi, mamlakat tovar aylanmasi hajmining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston ham ko'pchilik davlatlarning savdo munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida JSTga qo'shilishga qaror qildi. Bunday integratsiyalashuv JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdoni kengaytirish, eksport tushumlarini ko'paytirish, chet el investitsiyalarini ko'prok jalb etish, ishlab chiqarish sohalarda bandlik yuqori darajasi erishishni ta'minlaydi. [146]

24. 3. O'zbekiston Respublikasini Butunjahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari

JST bilan samarali faoliyat tashkil qilish maqsadida, mamlakatda JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tuzildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 dekabrdagi 520-sonli +aroriga muvofiq uning tarkibi tasdiqlandi. Unga TIAA, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralardan vakillar kiritildilar. JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya qotibiyati vazifasini bajarish TIAA zimmasiga yuklatildi. JSTga kirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida respublikaning vazirliklari va idoralarida ishchi guruhlari tashkil etilib, ularning maqsadi:

- savdoda qo'llaniladigan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar hamda texnik to'siqlar to'g'risidagi savolnomalar ro'yxatini tayyorlash;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalarini berish to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash;
- xizmatlar savdosiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash;
- intellektual mulk huquqi savdosiga tegishli bo'lgan axborotlarni tayyorlash;
- tovarlarga tarif chegirmalarini berish va xizmat majburiyatlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish;

[146].В..Малкова – Мировая экономика, в вопросах и ответах. -М.: Проспект, 2004 .

• JST bitimi doirasida ko‘zda tutilgan tartiblarga muvofiq milliy qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish;

• JSTga a’zo bo‘lishning iqtisodiyot sohalariga bo‘ladigan ta’sirini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni olib borishga qaratildi.

Shu paytga qadar O‘zbekiston Respublikasi tomonidan JST Kotibiyatiga quyidagi bir qator masalalarni o‘z ichiga oluvchi materiallar tayyorlab topshirildi:

• A+SH, YEI, Koreya tomonidan JSTga kirish bo‘yicha ishchi guruhining birinchi majlisi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston savdo rejimi to‘g‘risidagi memorandumga qo‘yilgan yozma savollarga javoblar;

• JST bitimiga muvofiq savdodagi texnik to‘siqlar, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar bo‘yicha qo‘yilgan turli xildagi savollarga javoblar;

• Intellektual mulk huquqi savdosi masalalariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar.

Shuningdek, hozirgi paytda 2002 yilning 24 sentabrida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lib Kirishi bo‘yicha tashkil qilingan Ishchi guruhining ikkinchi majlisiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi amalga oshirilmoqda[147] va Ishchi guruhi tomonidan O‘zbekistonning JSTga kirishi bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi qo‘shimcha ma’lumotlar tayyorlanmoqda:[148]

• tovarlar mavqyeibo‘yicha tariflarni tushirib borish yuzasidan boshlang‘ich ma’lumotlar;

• xizmatlar savdosi sohasidagi siyosatni olib borish bo‘yicha ma’lumotlar;

• xizmatlar savdosi sohasidagi maxsus majburiyatlarning boshlang‘ich ro‘yxatini tuzish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati JSTga a’zo bo‘lib kirishni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida qarab kelmoqda va mazkur tashkilotga teng huquqli a’zo bo‘lib kirish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. JSTga a’zo bo‘lib kirish mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tajribaga muvofiq, JSTga a’zo bo‘lish uzoq muddatli istiqbollarda har qanday milliy iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, biroq qisqa muddatli istiqbollarda u milliy xo‘jalik taraqqiyoti uchun ayrim muammmolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Eksportni

---

[147] Экономическое обозрение, № 6 (46), 2003.

[148] ЎзР ТИААда 2004 йилнинг 5-17 январида «Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият юритувчи корхоналар раҳбарларининг малакасини ошириш курси» тарқатма маълумотлари асосида.

rag'batlantiruvchi siyosat olib boradigan mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan nafaqat uzoq muddatli istiqbollarda, balki qisqa muddatli istiqbollarda ham katta foyda ko'radilar. Bunga qarama-qarshi o'laroq, import o'rnini bosuvchi siyosat olib boruvchi mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan uzoq muddatli istiqbollarda manfaat ko'rsalarda, qisqa muddatli istiqbollarda ular iqtisodiy jihatdan ma'lum darajada zarar ko'rishlari ham mumkindir. Shu sababli, xalq xo'jaligi miqyosida erishiladigan foyda va kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish va iqtisodiy jihatdan baholash Butun jahon savdo tashkilotiga ishtirok etishning dastlabki bosqichlarida o'ta muhim hisoblanadi.

Ayni paytda, JSTga a'zo bo'lishning milliy iqtisodiyotga. shuningdek, uning alohida tarmoqlariga bo'ladigan ta'sirini baholamasdan turib, xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi mazkur tashkilotda a'zo bo'lish uchun zarur bo'lgan qat'iyy chora-tadbirlarni ishlab chiqish qiyin, albatta.

Xulosa

Ushbu mavzuni o'rganish natijasida talabalar butunjahon savdo tashkiloti va uning vujudga kelish tarixi. Butunjahon savdo tashkilotini tashkil etishning asosiy sabablari, butunjahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlarni iqtisodiy imkoniyatlari, Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar va ular geografiyasini kengashib borishi, Butunjahon savdo tashkiloti doirasida davra suhbatlarini o'tkazish tartibi, Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida O'zbekiston Respublikasining olib borayotgan chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Nazorat savollari

1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv qachon to'zilgan?
2. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvning asosiy tamoyillari qanday masalalarni yechishga qaratilgan?
3. Shu davrgacha GATT/JSTni nechta raundlari o'tkazildi?
4. Bu raundlarda qanday asosiy masalalar ko'rilgan?
5. Urugvay raundining eng ahamiyatli natijasi nimadan iborat?
6. Jahon savdo tashkiloti qachon tashqil topdi?
7. O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish istagini qachon bildirdi?
8. Jahon savdo tashkilotining asosiy kelishuvlari.
9. O'zbekiston Respublikasi JSTning qaysi kelishuvlariga qo'shildi?
10. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Asosiy adabiyotlar:

1. В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

2. Международные экономическая отношения,. Учебник, -М: Инфра- М, 2004.

3. Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов – Международная экономика, Ш- изд., -М.: Дело-сервис, 2004.

5. Ш.Шораҳмедовнинг умумий таҳрири остида чиқарилган «Божхона фанининг илмий асослари», Солиқ ва божхона органлари Академияси, 2002.

XXV BOB
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON XO‘JALIGIGA INTEGRATSIYALASHUVI

25. 1. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va maqsadi

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga iqtisodiy integratsiyasi uchun chet mamlakatlarining bu soha bo‘yicha eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishda tuplangan yutuqlari juda ham muhimdir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, uzoro iqtisodiy a’lokalarning chuqur rivojlanishi va mallatlar o‘rtasidagi xo‘jaliklarning mehnat taksimoti tushuniladi.

Shundan kelib chiqib bu jaroyon faqatgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiy almashinuvi, bozor iqtisodiyoti emas, balki xalqaro hamkorlikda va jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish jarayonini o‘z ichiga oladi. Lekin bu tovarlar ishlab chiqarish doirasiga chuqur kirib boradi va har xil ko‘rinishda chuqur iqtisodiy a’loka o‘rnatishga olib keladigan jarayon hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng uning oldida jahon hamjamiyatiga a’zo bo‘lish yo‘lida yangi imkoniyatlar paydo bo‘la boshladi.

Respublikaning milliy Xalq xo‘jalik kompleksini bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish va bundan tashqari integratsion imkoniyatlarni va undan samarali foydalanishini kuchaytirish zarur.

Bizning nazarimizda integratsion salohiyat deganda —Xalqaro iqtisodiy integratsiya subyektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab-chiqarish, ilmiy texnika sohasidagi hamkorligi va o‘zaro almashinuv predmeti hisoblangan tabiiy kompleksi, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy salohiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

O‘zbekiston respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsion aloqalariga ko‘maklashuvchi faktorlari va shartlari orasida baxslashib bo‘lmaydiganlari quyidagi integratsion patensionalini rivojlantirishga qaratilganlarini ajratish mumkin[149].

- O‘zbekiston Respublikasining Yevro-Osiyo kit’asida muhim geografik joyda joylashganligi;

yer osti va yer usti zahiralarini mineral xom-ashyo va o‘simlik resurslari, qishloq xo‘jaligini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini rivojlantirish uchun qulayligi;

tashki savdo va eksport salohiyatini yuqoriligi;

[149] В.К. Ломакин – Мировая экономика, изд., Учебник, -М.: ЮНИТИ, 2004.

yuqori ishlab chikrish salohiyati;

insonlarni salohiyati yuqoriligi usuvchi mehnat resurslari;

bundan tashqari jahon hamjamiyatiga nisbatan arzon ishchi kuchi mavjudligi;

Respublikamizni boshqa hududlar bilan boglab turuvchi avtomobil va temir yo'l magistrallari mavjudligi;

rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi;

ikki tomonlama manfaatli tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlik, chet el kapitali, investorlar jalb etish uchun davlat granti va turgun siyosiy holat mavjudligi;

